



**Maxmashukurov Sherzod Xushmurodovich**

# **SPORT TADBIRLARIDA SAHNA HARAKATI VA MUSIQAVIY NAMOIYISHLAR**

● **O'quv qo'llanma**

**MAKON SAVDO PRINT-2024**

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI YOSHLAR SIYOSATI  
VA SPORT VAZIRLIGI**


**O'ZBEKISTON DAVLAT JISMONIY TARBIYA  
VA SPORT UNIVERSITETI**

**Maxmashukurov Sherzod Xushmurodovich**

**SPORT TADBIRLARIDA SAHNA  
HARAKATI VA MUSIQAVIY  
NAMOIYISHLAR**

*O'quv qo'llanma*

*60411200-Menejment (Sport tadbirlarini tashkil etish va boshqarish)  
yo'nalishi talabalari uchun*



**TOSHKENT  
MAKON SAVDO PRINT-2024**

UO'K: 77.03.03

KBK: 75.1

Taqrizchilar:

**Ichki: K.D.Yarashev** – O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti "Sport tadbirlarini tashkil etish" kafedrası p.f.n. professor.

**Ichki: L.A.Djalilova** – O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti "Sport tadbirlarini tashkil etish" kafedrası dotsent v.b.

**Tashqi: Y.Y.Oripov** – O'zbekiston davlat Jismoniy tarbiya va sport ilmiy tadqiqotlar instituti p.f.n. professor.

Sh.X. Maxmashukurov. **Sport tadbirlarida sahna harakati va musiqaviy namoyishlar / o'quv qo'llanma.** T: - "MAKON SAVDO PRINT" 2024 - 144 bet

Ushbu o'quv qo'llanmada talabalar turli shakldagi sport tadbirlarini sahna harakati va musiqaviy namoyishlarini kompleks boshqarish, xususan sport tadbirlarining tantanali ochilish va yopilish marosimlarida, ochiq maydon hamda yopiq sport inshootlarida o'tkaziladigan ommaviy sport tadbirlarida yakka va jamoaviy harakatlanishni tashkil etish, ishtirokchilar yordamida har xil shakldagi ko'rinishlarni yasash, harakat va musiqa uyg'unligiga erishish, tadbirga mos musiqa tanlash, turli musiqiy janrlarni farqlay olish va ulardan samarali foydalanish ko'nikmalarini shakllantirish imkonini beradi.

\*\*\*

В данном учебном пособии студенты будут обучаться комплексному управлению сценическими движениями и музыкальным исполнением различных видов спортивных мероприятий, в частности, организации индивидуального и коллективного движения в массовых спортивных мероприятиях, проводимых на открытых площадках и в закрытых спортивных сооружениях, в частности, с помощью участников, во время торжественных церемоний открытия и закрытия спортивных мероприятий позволяет формировать навыки выполнения различных форм выступлений, достижения гармонии движения и музыки, выбора подходящей для мероприятия музыки, различения различных музыкальных жанров и их эффективное использование.

\*\*\*

In this study guide, students will be taught the complex management of stage movements and musical performances of various forms of sports events, in particular, the organization of individual and collective movement in public sports events held in open fields and indoor sports facilities, in particular, with the help of participants, during the ceremonial opening and closing ceremonies of sports events. It allows to form the skills of making various forms of appearances, achieving the harmony of movement and music, choosing music suitable for the event, distinguishing different musical genres and using them effectively.

ISBN: 978-9910-766-79-4

© Sh.X. Maxmashukurov, 2024  
© "MAKON SAVDO PRINT", 2024

## KIRISH

*Oliy sportda erishilgan yutuqlar bilan chegaralanmasdan, ommaviy sportga ham katta e'tibor berishimiz kerak. Mamlakatimizda sportni ommalashtirish bo'yicha besh yillik milliy konsepsiya ishlab chiqish zarur. Aholini jismoniy tarbiya bilan muntazam shug'ullanib, sog'lom turmush kechirishga jalb etish, shu orqali kasalliklarning oldini olib, odamlarning umrini uzaytirish konsepsiyaning asosiy yo'nalishi va natijasi bo'lishi kerak. 20.09.2018*

**Sh.M.Mirziyoyev**

Barchamizga ma'lumki mamlakatimizda jismoniy tarbiya hamda ommaviy sport bilan shug'ullanish uchun keng sharoitlar yaratilmoqda. Bunday sayi harakatlarning eng asosiy, dolzarb vazifalaridan biri, aholi va yoshlar, shuningdek, bolalar o'rtasida sportni ommalashtirish hamda jamiyatni sog'lomlashtirishdir. Ommaviy sport turlari bo'yicha mahalla, tuman, viloyat va respublika bosqichlaridan iborat ommaviy sport tadbirlari o'tkazib kelinmoqda. Mahallalarda sport infratuzilmasini yaxshilash, loyihalar qiymatini maqbullashtirib, maydonchalar tashkil etish bo'yicha bir qancha ijobiy ishlar amalga oshirildi.

Aholi, ayniqsa, yoshlarni sportga keng jalb qilish va ularni sog'lomlashtirish uchun korxonalar, ta'lim muassasalari, istirohat bog'larida ommaviy badantarbiya va gimnastika mashg'ulotlarini o'tkazish ishlari amalga oshirilib kelinmoqda. Bunday mashqlarning inson salomatligi uchun foydaliligini targ'ib qilish maqsadida doimiy ko'rsatuv va ijtimoiy roliklar tayyorlab, televideniye orqali, shuningdek, ommaviy sport tadbirlarini tashkil qilib, ularning tantanali ochilish hamda yopilish, taqdirlash marosimlarini ko'tarinki ruhda o'tkazish, shu bilan birga targ'ibot-tashviqot ishlari amalga oshirilib kelinmoqda.

Ushbu o'quv qo'llanmada sportchilarning ko'rgazmali chiqishlarini sahnalashtirishda o'ziga xos bo'lmagan ifoda vositalaridan kompleks foydalanish, tomoshabinlarni faollashtirish, talabalarga sportchi-aktyorlarning mahorati ustida ishlash usullari va tajribasini oshirish yo'llari ko'rsatilgan.

Sport va san'at inson hayoti va madaniyatining eng muhim hodisalaridan biridir. Jahon madaniyati tizimida san'at va sport o'rtasidagi munosabatlar uzoq vaqtdan beri mavjud. Sport va san'atning umumiyligidan sport - bu san'at, degan xulosa kelib chiqmaydi, faqat sportning ma'lum jihatlari bilan san'atga "o'xshash" ekanligini anglatadi.

Sportni san'at bilan uyg'unlashtirishga intilish "muz ustidagi balet", "sport va harakat teatrlari", gimnastika, estrada ansambllari va boshqalarni yaratish kabi harakatlarda ham namoyon bo'ladi.

San'at bilan sintezga asoslangan sport eng yuqori estetik qadriyat va o'yin-kulgiga ega. Ular nafaqat texnik elementlarning xilma-xilligi, balki sportchilarning mahoratini baholashda o'z ijro mahorati bilan ham ajralib turgani holda sport va ko'ngilochar tomoshalarda o'z ifodasini topadi.

Ommaviy madaniyatning yangi estetik-badiiy turlari shakllanmoqda, u badiiy va sport bayramlarida, ommaviy sport shoularida, sport va ko'rgazmali kompozitsiyalarda o'zining aniq shakllarini ko'rsatadi va u sport va san'at sintezida ifodalangan, sportning-badiiy tarkibiy qismidir. Bu uni eng katta o'yin-kulgi bilan ta'minlaydi.

Ommaviy sport tomoshasida hamma narsa: yorug'lik, ovoz, liboslar, rekvizitlar, bezak va mizan-sahnalar bitta maqsadga xizmat qiladi. Badiiy obraz yaratish, ko'rgazmali sport chiqishlari ham bundan mustasno emas. Sport bayramlari tashkilotchilari tadbirning dasturlariga eng ajoyib sport turlaridan ko'rgazmali chiqishlarni kiritadilar, bunda sportchilar eng yuqori komillikka erishib, nafaqat estetik idealni o'zida mujassamlashtira olish, balki insonning ruhiy holatini ifodalash qobiliyatiga ega bo'ladilar.

## **I BOB. SPORT-TOMOSHABOP TADBIRLARINING TARIXI VA ULARNING ILMIIY-NAZARIY ASOSLARI**

### **1.1-§ Sport o'yinlari, musobaqalar va tadbirlar tarixi**

#### **1.1.1 Xalq o'yinlari tarixi va turlari.**

Ma'lumki, inson o'z mehnati tufayli hayvonot dunyosidan ajralib chiqqach, yashash uchun kurash jarayonida qanchalik ongli mehnat qilsa, u shunchalik muvaffaqiyatlarga erishgan. Bu jarayon ibtidoiy odamlar ovchilik bilan kun ko'rayotgan davrlarda yaqqol sodir bo'la boshlagan. Chunki arxeologik qazilmalar va g'orlardan topilgan ibtidoiy davrlarda chizilgan primitiv suratlarda asosan hayvonlar, ov qilish, ovchilar raqsi (ba'zan hayvonlar niqobida) kabi tasvirlar qadimiy odamlarning o'z mehnati (ovi) natijasini tantana qilganliklaridan dalolat beradi. Ma'lumki, ajdodlarimiz turmush tarzining eng qadimiy shakllaridan biri termachilik va ovchilikdan iborat bo'lib, turli daraxtlarning mevalarini, iste'mol qilish mumkin bo'lgan ildiz-mevalarni terish hamda jonivorlarni ovlash bilan shug'ullanganlar. Shuning uchun ham ov baroridan kelib, yaxshi o'lja bilan qaytishgach, o'z muvaffaqiyatidan quvongan kishilar ov ruhlari sharafiga muayyan marosimlarni uyushtirishgan. Ko'pchilik bo'lib turli ramziy raqs-harakatlari vositasida o'zlarining xursandchiliklarini ifoda etishgan. Bunday qadimiy rituallar xursandchilik va shodiyona kayfiyatni yuzaga keltirishga ham xizmat qilgan. Bunday ibtidoiy marosimlarda ovchilar o'ljani qo'lga kiritish holati - ov jarayonini har xil ramziy raqslar, imo-ishoralar, maxsus harakatlar va o'yin tarzidagi mifologik raqslar orqali ifodalashga harakat qilishgan. Fanda "Ovchilar o'yini" nomini olgan ana shu kabi ov oldi yoki ovdan keyingi marosimiy rituellardagi ramziy harakatlar keyinchalik an'anaviy tomosha san'atining muhim elementlari - ommaviy raqs, hayotiy dekoratsiya asosiga qurilgan mizanssena hamda muqallid san'atining shakllanishiga zamin bo'lgan.

Odamlar ovchilik bilan shug'ullana boshlaganda ularning ovi samarali tugasa - qorni to'ygan, ov natija bermasa och qolgan qiynalgan. Ovdan o'lja bilan qaytayotgan ovchilar xursand bo'lib, ov jarayonini imo-ishora, maxsus harakatlar hamda o'yin shaklida takrorlashga harakat qilishgan. Natijada "ov o'yinlari" nomi bilan tarixda muhim o'rin tutgan madaniy tadbir vujudga keladi.

Ibtidoiy odamlar hayotida “ovchilik o‘yinlari” muhim o‘rin tutib, ular ovdan oldin ham undan keyin ham o‘tkazilgan. Oldiniga o‘yinlar ov oldi mashqi, ovga tayyorgarlikni tekshirish, ovga ruhiy va jismoniy shaylanish vazifasini o‘tab, o‘ziga xos kichik jiddiy tadbir shaklida uyushtirilgan. Ov oldi mashqlarida odamlar o‘ljani qo‘lga olish, unga yaqinlashishni o‘rganishgan. Buning uchun niqob kiyib hayvon qiyofasiga kirishi uning yurish-turishlari va tovush chiqarishlarini mashq qilishgan. Bu o‘yinlarda yoshlarni ham ov qilishga o‘rgatishgan. O‘yin faqatgina chaqqonlik mashqi, dovyuraklik darsligi bo‘lib qolmasdan balki o‘z zamonasiga mos odamlarni tarbiyalash maktabi ham bo‘lib xizmat qilgan.



1-rasm. Ibtidoiy jamoa davri. Ov jarayoni.

Darhaqiqat, ibtidoiy odam mehnati qanchalik samarali tugasa, qorni to‘ygan, xursand bo‘lgan va aksincha, mehnati natija bermasa, och qolgan, xafa bo‘lgan. Ovdan o‘lja bilan qaytish va o‘z mehnatidan manfaatdor bo‘lish xursandchilik, shodiyona kafiyatini yaratgan. Bu holatda ovchilar ov jarayonini imo-ishora, maxsus harakatlar hamda o‘yin shaklida ifodalashga urinishgan. Yoki **G.V.Plexanov** ta‘biri bilan aytganda: **“O‘yin – mehnat farzandi!”** bo‘lib vujudga kelgan.

Ibtidoiy odamlar terib kun kechirish bilan mashhur bo‘lgan davrda bu sohaga oid ish tajribalar bilan birga o‘yin musobaqalarga ham ehtiyoj sezila boshlanadi.

**Birinchidan:** – terib yig‘ish davrida kim ko‘p va tez meva zahirasini yig‘sa to‘q bo‘lgan bu o‘ziga xos musobaqani vujudga keltirgan.

<sup>1</sup> Плеханов Г.В. Искусство и общественная жизнь. – М. 1953, 69-бет.

**Ikkinchidan:** – mohir terimchilar keksayib kuchdan qolganda ularga daraxt uchiga chiqib xatarli shoxlarda turib meva terish qiyin bo'lgan. Bolalarda esa, harakatli o'yinlarga moyillik bo'lgan va bundan foydalangan qariyalar bolalarga meva terishni ish sifatida emas balki o'yin shaklida o'rgatishgan.


**Uchinchidan:** – ibtidoiy davrda urug' qabilalar o'rtasida serhosil joylar uchun janglar bo'lib, ular oqibatida qurbonlar ko'p bo'lgan. Borgan sari masalani madaniy shaklda hal qilish yo'llari izlangan buning natijasida bir-biri bilan ikki urug' emas balki ularning sardorlari yakkama-yakka jang qilganlar. Vaqt o'tib o'lim bilan tugaydigan janglar o'rniga madaniylashgan sardorlar kurashi olishuvlari vujudga kelgan. Olishuvlar esa hozirgi milliy kurashimizning ibtidosidir.

**To'rtinchidan:** – qabilalar o'z muammolarini janjal bilan emas balki tinchlik yo'li bilan hal qilish maqsadida qo'shni urug' vakillarini mehmonga chaqirgan inson tili rivojlanmagan davrda mehmon va mezbonlar o'z fikrlarini pantamimo o'yin raqs shaklida ifodalashgan.

Xullas inson terimchilik bilan mashhur bo'layotgan davrdayoq o'yinlarning ilk shakllari meva terish bo'yicha musobaqa, tarbiyaviy o'yin, mashg'ulotlar, sardorlar olishuvlari, pantamimo, raqslar kabi o'yinlar shakllana boshlaydi. Bu o'yinlar orqali esa o'z-o'zidan jismoniy harakat, yugurish, chaqqonlik, ephillik, merganlik, mehnat va ov qurollari bilan jang qilish, nayza uloqtirish, kuchli bo'lish hamda g'olib bo'lish kabi xislatlari shakllangan va rivojlangan. Natijada sport o'yinlari, musobaqalar, kurashlar, chavandozlik, merganlik kabi sport turlari paydo bo'la boshlagan.

Kurash ajdodlarimizning eng qadimiy musobaqalaridan biri ekanligiga ko'plab tarixiy va ashyoviy dalillar topilmoqda. Akademik Asqarov bu borada tasviriy aksga ega bo'lgan qator arxeologik topilmalarni misol keltiradi: birinchisida – 3.5 ming yil ilgari yashagan zardushtiyalarning sopol idishdagi tasvirda kurash manzarasi bir-birining oyog'ini chalgan ikki pahlavon olishuvi; ikkinchisida – 2.5 ming yil avvalgi sak qabilalarining ot to'qasidagi tasvirda ikki kuchli chayir pahlavonlar bir-birlarining oyog'idan olishayotgani; uchinchisida – 1.5 ming yil avvalgi kumush cho'michda ikki pahlavonning otdan tushib, qurol-aslahalarini taxlab qo'yib bellashayotgani, jumladan, bir-birlarini belbog'idan tutib

ikkinchi qo'li bilan (otlari oldida taxlab qo'yilgan) qurol sanchiqni olishga intilayotganligi aks ettirilgan.



2-rasm. Misrda m.a. 2800 yillarga mansub bo'lgan ehrom devoridagi erkin kurash bo'yicha texnik harakatlar.

Albatta, kurashchi-pahlavonlarning qiyofasi va liboslari ham bizning diqqatimizni tortadi. Birinchi holda libosini aniqlash qiyinga o'xshaydi, ikkinchi holda esa pahlavon egnida uzun chalvor (hozirgi kombinzonga oxshash), oyoqlarida poshnasiz choriq, sochlari o'rilgan, uzun, orqaga tashlab qo'yilgan; uchinchi holatda – pahlavonlarning egnida gulli chapon, oyoqlarida choriq, boshida qiyiqcha va hokazo.<sup>2</sup>

Ovchilik asosida chorvachilik shakllanadi, chorvachilikda muayyan hayvonlar ot, ho'kiz, eshak, tuya, mehnatidan foydalanish jarayonida ham bu hayvonlar harakatlarini taqlid qiladigan o'yinlar vujudga keladi. Masalan; hush-hush, shohmot, qush haydash, qo'sh hayda, ilk bor ot egarlash vaqtida qaysar ot kabi o'yinlar paydo bo'ladi. Shuningdek qo'y junlarini olish mavsumiy marosimi, qoramol terilarini oshlash va ulardan po'stin tikish, jun yigirish va kiyim to'qish an'analari, turli qo'shiqqa raqslar kabi bir qancha o'yinlar paydo bo'lgan. Xullas chorvachilik tarmoqlarining har biri masalan; qoramolchilik, qo'ychilik, yilqichilik, parrandachilik, baliqchilik, asalarichilik kabilar bilan bog'liq o'ziga xos o'yin odatlar paydo bo'lgan.

---

<sup>2</sup> Asqarov A. Moziyga tutash qadriyat. O'zbekiston adabiyoti va san'ati. 2001 yil, 1 yanvar.

Dehqonchilik vujudga kelishi va rivojlanishi natijasida ikki an'ana birinchisi bahorda mehnat mavsumiga kirish va ikkinchisi kuzda xosilni yig'ish yakuniga bag'ishlangan marosimlar yuzaga keladi. Ayniqsa yoz bo'yi mehnat qilib mo'l hosil yetishtirilgan dehqonlar xursand bo'lganidan o'ziga xos xirmon to'yini o'tkazib, unda mehnat jarayonlarini o'yinlar orqali aks ettirishgan mehnat o'yinlari yaxshi kayfiyatda bayram holatida o'tgan.

Shunday qilib eng qadimiy davrlardan boshlab inson hayotida termachilik ovchilik chorvachilik dehqonchilikka oid mehnat tajribalari bilan birga o'yin raqslar shakllana boshlaydi. Ongli mehnat va tajriba asosida turli o'yinlar paydo bo'ladi va taraqqiy etishi inson rivojlanishida ham muhim o'rin tutadi. Chunki o'yinlar boshqalar tajribasidan, ilg'orlar yutug'idan, keksalar ibratidan, avlodlar merosidan samarali foydalanishga imkoniyat yaratgan.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki marosim, san'at, ijod kabi madaniyat turlari shuning bilan birgalikda sport turlarini ham vujudga kelishida va rivojlanishida o'yinlar o'ta muhim rol o'ynagan. Obrazli qilib aytganda o'yin ko'pgina qadimiy madaniy turlarning jumladan raqs teatr sport kabilarning onasi hisoblanadi. Dastlab o'yin insonning rivojlanishi uchun kerak bo'lgan bo'lsa keyinchalik inson o'yinni rivojlantirdi.


### ***1.1.2 Qadimgi davrda jismoniy tarbiya.***

Jismoniy tarbiya va olimpiya harakati tarixi qadimgi davrda jismoniy tarbiyaning vujudga kelish xususiyatlarini o'rganishdan boshlanadi. Qadimgi dunyo jismoniy tarbiyasi deganda, insoniyat bosib o'tgan ikki tarixiy-ijtimoiy davr – ibtidoiy jamoa tuzumi va quldorlik tuzumi jismoniy tarbiyasi tushuniladi.

Insoniyatning eng qadimgi davr tarixi 3-3,5 million yil avval boshlanib, milodiy IV asrgacha davom etgan. Olimlarning ma'lumotlariga ko'ra, odamzod dastlab Afrika, Janubiy va Janubi-sharqiy Osiyoda paydo bo'lgan. Keyinroq esa Osiyo va Yevropaning boshqa hududlariga kirib borgan. O'rta Osiyoda ham eng qadimgi odamlarning yashashlari uchun qulay sharoitlar mavjud bo'lgan. Ilk davrlarda odamlar yashash uchun tabiat bilan kurashganlar va turli tabiiy ofatlardan saqlanish uchun harakat qilganlar.

Inson uchun kerakli hayotiy malaka va ko'nikmalar jismoniy sifatlar, malaka va qobiliyatlar ularning bevosita mehnat faoliyati jarayonlarida hosil qilingan. Yoshlar barcha mehnat va jismoniy harakat faoliyatlarini katta yoshdagilardan o'rgangan hamda ularga taqlid qilib rivojlantirgan.

Qadimgi davrda odamlar mehnatining asosini ovchilik va termachilik tashkil etgan. Bu davrda odamlar yirik hayvonlarni – mamont, ulkan ayiq, bizon, zubr, yovvoyi ot, buqa kabi hayvonlarni ovlaganlar. Yirik hayvonlarni ovlash juda qiyin bo'lgan, shuning uchun bu davrda jamoa bo'lib ovchilikning turli usullaridan foydalanganlar. Mehnat va yashash uchun kurash jarayonida qadimgi odamlarning aqliy va jismoniy rivojlanishi tezlashgan. Ular ov qurollarini yasash, olov yoqish, kiyinish, jismonan baquvvat bo'lish uchun bolalarni maxsus mashqlar bilan tayyorlash kabi juda ko'p ijtimoiy turmush tajribalariga ega bo'lganlar.



**3-rasm. O'tkir tig'li nayza otish, kurash tushish, himoya qalqoni va dubulg'a.**

Turli mustahkam va o'tkir uchli yengil nayzalarning, o'q va kamoning paydo bo'lishi ovchilikning takomillashuvi va ovning rivojlanishiga olib kelgan. Buning natijasida oziq-ovqat topish uchun sarflanadigan vaqt ancha qisqargan. Natijada, o'troqlashib yashash, bolalarni tarbiyalash imkoniyatlari kengaygan. Ibtidoiy to'da davrida kashf etilgan oddiy yutuqlar urug' jamoasi va madaniyatining vujudga kelishi uchun shart-sharoit yaratib bergan.

Urug' jamoasi insoniyat tarixining alohida bosqichini tashkil etadi. Xo'jalikni idora qilishning yangi shakllari yuzaga kelishi bilan kishilik


jamiyatini uyushtirish holatlari ancha mustahkamlanib borgan. Ona urug'i jamoalari paydo bo'lgan, ularning a'zolari qarindosh-urug'chilik munosabatlari asosida birlashib, mehnat qilganlar. Bu o'z navbatida, jamoatchilikni yuzaga keltirgan.

Madaniyat sohasida ham o'zgarishlar yuzaga kelgan: masalan uy-joy qurish, hunarmandchilik, tasviriy san'at paydo bo'lgan, ijod qilingan. Ana shu davrlarda ilohiy kuchlarga ishonish, ularga bo'ysunish, qurbonliklar keltirish kabi diniy tasavvurlar paydo bo'lgan.

Mehnat bilan bog'liq bo'lgan turli musobaqalar, o'yinlar mustaqil tarbiyaviy ahamiyat kasb etdi va ulardan urug' jamoasining turli yoshdagi guruhlari foydalangan. Shu davrda ilk bor mehnatning jins va yoshga qarab bo'linishi amalga oshirilgan. San'atning paydo bo'lishi kishilarning fikr va tasavvurlarini boyitib, ularning ma'naviy dunyosini takomillashtirgan. O'yin va raqslarda takrorlanadigan mehnat va mudofaa xususiyatidagi harakatlar faqat mehnat emas, balki jismoniy mashqlar sifatida rivoj topgan. Turli xil jismoniy mashqlarning (kurash, otda poyga, nayza uloqtirish, qilichbozlik va h.k.) o'yinlar tarzida vujudga kelishi ibtidoiy jamiyat tarbiyasida tubdan o'zgarishlar yasash uchun turtki bo'lgan. Ijtimoiy mehnat va madaniyat jarayonlari deyarli barcha qit'alarda turli darajada shakllanib, keyinchalik tobora rivoj topgan.

Qadimgi davrda urug'chilik jamoasi to'da davrining davomi bo'lib, bundan 40-35 ming yillar ilgari boshlangan. Bu davrda mehnat qurollari takomillashgan, o'q-yoy kashf etilgan, dehqonchilik, chorvachilik, hunarmandchilik va savdo-sotiq vujudga kelgan. Urug'chilik jamoasi ona urug'i (matriarxat) va ota urug'i (patriarxat)ga bo'lingan. Ularning har biri o'ziga xos ijtimoiy taraqqiyot va jismoniy tarbiya xususiyatlariga ega bo'lgan.

Matriarxat taraqqiy qilgan davrda o'yin uchun maxsus tayyorlangan uskunalar (jundan qilingan to'p, nayzabozlik tayoqlari, uchi to'mtoq nayzalar, o'yinchoq, yoy, to'qmoq va h.k.) paydo bo'lgan. Yoshlarni nayza uloqtirishga, yoydan o'q otishga o'rgatish ibtidoiy jismoniy tarbiya yo'nalishlaridan hisoblanib, uning asosiy tarkibiy qismini tashkil etgan.



4-rasm. Sport bellashuvlari.

Patriarxat davrida esa ishlab chiqarish jarayonlari takomillashib, yanada rivojlandi. Bunda erkaklarning mehnati, yaratuvchilik fikr-mulohazalari oldingi o'rinda turgan. Temir qurollarining paydo bo'lishi, omoch, bolta bilan ishlash, dehqonchilik va chorvachilikning rivojlanishi ovning xo'jalik ahamiyatini kamaytirgan. Chorva mollarini boqish, qo'lga o'rgatish, xonakilashtirish va dehqonchilik qilishdagi tajribalar jamoada erkaklarning hukmron bo'lishini ta'minlagan. Patriarxat davrida oilalar vujudga kelgan.

Patriarxatning dastlabki bosqichida qabilalar o'rtasida nizolar, janjallar, ko'pincha bir-biriga qarama-qarshi bo'lgan qabila vakillarining yakkama-yakka kurashi bilan hal etilgan. Ba'zi hollarda janjalli masalalar birgalikda bayramlar tashkil etish, bir-biriga sovg'alar berish va h.k. bilan yakunlangan. Qabilalar o'rtasidagi do'stlik munosabatlarining rivojlanishi va mustahkamlanishida muhim ahamiyatga ega bo'lgan. Qabilalar o'rtasida o'tkaziladigan musobaqalar jarayonida jamoa shon-sharafi, o'zaro bir-birini quvvatlash, zaiflarga yordam qilish tushunchalari rivoj topgan.

Qadimgi mashqlar (kurash, mushtlashish, og'irlik ko'tarish, yugurish, sakrash va h.k.) asta-sekin mustaqil tur sifatida o'rganilib, an'analar, marosimlarda namoyish etilgan va musobaqa tarzida tashkil etilib, g'oliblarni olqishlash, taqdirlash kabi odatlar amalga oshirilgan. Dehqonchilik, chorvachilik va boshqa kasb-hunar bilan shug'ullanuvchilar o'z sohalari bo'yicha turli o'yinlar, mashqlarni ixtiro qilganlar.

Ibtidoiy jamoaning yemirilishi va quldorlik tuzumining shakllanishi qadimiy Germaniya, Okeaniya, hindu qabilalari (astek, ink, mayya) va

boshqa joylarda ham sodir bo'lib, ularda ham o'ziga xos jismoniy mashqlar va o'yinlarning rivojlanishiga olib kelgan. Masalan, mayya qabilasida kauchukdan yasalgan koptok bilan jamoa bo'lib o'yin o'ynash an'anaga aylangan. Ya'ni uning shakli va mazmuni hozir mashhur bo'lgan sport o'yinlariga asos solgan bo'lishi mumkin.<sup>3</sup>

Qadimgi Peru mamlakatida jismoniy mashqlar yoshlardan iborat harbiy qismlarni tayyorlashda eng muhim vosita sifatida xizmat qilgan. Hindular qabilasida kauchuklardan koptoklar, maxsus chana yasaganlar. Ulardan xo'jalik yumushlari va turli musobaqalarda ham maqsadli foydalanganlar.

Sharqiy Afrikadagi ibtidoiy qabilalarda langarcho'p bilan sakrash va yugurib kelib balandlikka sakrash musobaqalari ham o'tkazilgan. Ularni turli bayramlarda namoyish etishgan. Shimoliy va Janubiy Amerikada Yevropaliklarning istilosiga qadar katta rezina koptok, chavgon va raketkalaridan foydalanib o'ynaladigan yozgi va qishki o'yinlar rasm bo'lganligi aniq manbalarda o'z ifodasini topgan. Ibtidoiy jamoa tuzumi davrida suvda suzish, kanoe va baydarka xilidagi yengil uzunchoq qayiqlarda eshkak eshish ham keng qo'llanilgan. Sharqiy Braziliya xalqlari orasida qiz va yigitlar hayotida kerak bo'lgan epcillik, chaqqonlik chidamlilik, jasurlik va qat'iyatlilik kabi qobiliyatlar hamda sifatarga ega bo'lishi lozim edi. Chunki qabilalarda yigitlar ma'lum sinovlardan o'tmagunlaricha uylanishga ruhsat berilmagan.

Turli qabilachilik holatlari o'zaro jang, nizo va urushlarni keltirib chiqargan. Shu sababdan himoya qal'alari, qurol-yaroqlar yasash kabi yangi faoliyatlar tarkib topib, ular yanada rivojlangan. Maxsus jangchilarni tayyorlash ishlariga alohida e'tibor qaratilgan. Jangchilarning jismoniy tayyorgarligida boshqa qabila va elatlarni bosib olish, ko'pchilikni hukmron ozchilikka bo'ysundirish uchun foydalanishni ko'zda tutadigan jismoniy tarbiyaning yangi tizimi namunalari tug'ila boshladi. Bunday jarayonlar esa quldorlik tuzumini vujudga keltirgan.

Quldorlikning dastlabki davrida qabilachilik munosabatlarining xalq hokimligi an'anasi saqlanib, qabila zodagonlari hokimiyatini cheklab turgan. Lekin qabilalar o'rtasida to'qnashuvlar harbiy xususiyatlarga ega

---

<sup>3</sup> Djalilova L.A. Jismoniy tarbiya va olimpiya harakati tarixi. Darslik. T.: "Voriz-nashriyoti", 2017.- 432 b.

bo'lgan. Ularning asosiy sababi boylik orttirish va o'z hukmronligini o'rnatishdan iborat bo'lgan. Harbiy dohiylar rahbarligida maxsus posbonlar paydo bo'lgan.

Dohiylar ko'pincha qabilalarning yo'l boshchisi ham hisoblangan. Xalq kengashlari yuzaga kela boshlagan. Ularning vazifalari jamoaning barcha a'zolarini himoya qilishdan iborat bo'lgan. Qishloq istehkomlari paydo bo'lib, chet el posbonlari hujumidan harbiy mudofaa qilish madaniyati rivojlangan.

Qadimgi Sharq davlatlarida jismoniy tarbiya. Miloddan avvalgi IV-III asrlarda ilk davlatlar paydo bo'lgan. Bu davrlarda yirik davlatlar asosan qadimgi Sharqda, Gretsiya va Rimda bunyod etilgan. Qadimgi Sharq hududidaagi Misr, Eron, Bobil, Ossuriya, Hindiston, Xitoy kabi davlatlardagi jismoniy tarbiya vositalarining xilma-xilligi haqida haykallar, qurilish yodgorliklaridagi devoriy suratlar, turli madaniy ashyolar, qo'lyozmalar bunga guvohlik beradi.

Miloddan avvalgi IV asrlarda O'rtayer dengizi atrofida vujudga kelgan davlatlarda jismoniy madaniyatning ilk namunalari paydo bo'lgan. Jismoniy mashqlarning mazmuni va shakllari harbiy faoliyatlarda o'z ifodasini topgan. Bunda, asosan, bel ushlab kurashish, mushtlashish, g'ildirakli aravalarda poyga qilish va merganlik san'ati kabi faoliyatlar muhim o'rinni egallagan. Parfiyonlar, skiflar, eroniylar, arablar o'z ommaviy o'yin va an'analari messopotamiyaliklardan o'rganganlar. Hindlar va eroniylar hayotida ham turli tuman jismoniy mashqlar va o'yinlar vujudga kelgan. Ular tarkibida otda (tuyada, xachir va h.k.) yurish va ov qilish, qilichbozlik, aravachalarda poyga, kamondan o'q otish, to'plar va tayoqlar bilan o'ynash keng rivojlangan.

Qadimgi Eronda maxsus tashkil qilingan maktablarda zodagon yoshlarni tarbiyalash tizimi mavjud bo'lgan. Bunda yuqorida tilga olingan mashqlarni (nayza sanchish, qilich ishlatish, otdan ag'darish) o'rgatish dastur asosida olib borilgan.

Qadimgi Misrda harbiy aslzodalarni harbiy-jismoniy jihatdan maxsus tayyorlash uchun kurash, qilichbozlik, kamondan o'q otish, nayza uloqtirish kabi mashqlardan foydalanishgan.

Misr davlatida dinlarning ko'pligi tufayli ularning xudolariga hamda urf-odatlariga bag'ishlangan ko'pgina bayramlar, an'anaviy xalq musobaqalari o'yinlar va raqslar bilan birga qo'shib olib borilgan.

Keyinchalik ulardan ko'proq g'oyaviy maqsadda foydalanilgan. Hukmron doiralar xalq o'yinlari va jismoniy mashqlardan o'z kamoloti va manfaatlari yo'lida foydalanganlar.

Qadimgi Sharq davlatlarida quldorlik tuzumi davrida ozod dehqonlar, kasb-hunar egalari, savdo-tijorat xodimlari orasida rasm bo'lgan xalq jismoniy tarbiyasi shakllari va xalq mashqlarining turlari quldorlar tomonidan o'z obro'yi hamda hukmronligini kuchaytirish maqsadida o'zlashtirilgan va ulardan keng foydalanilgan.

### **1.1.3 O'zbek xalq bayramlarining paydo bo'lishi.**

Insoniyat yaralibdiki, uning turmush tarzida bayramlar alohida ahamiyatga ega bo'lib kelmoqda. Insoniyat hayotini bayramsiz, an'ana, marosim, urf-odatlarisiz tasavvur qilib bo'lmaydi. "Bayramlar jamiyatning ma'naviy go'zalligini, xalqning yashash tarzi, turmush sharoitini dunyoga ko'z-ko'z qiluvchi asosiy vositadir. Biror davlatda nishonlanayotgan milliy bayramlar yoki jahon miqyosidagi tadbirlarni kuzatar ekanmiz, o'sha davlatning milliyliigi, o'ziga xos urf-odatlarini o'rganamiz. Demakki, bayram hayotning eng nafis va nafosatli xislatlarini namoyish etuvchi ko'zgidir. Bayram jamiyatning kechasi, buguni, ertasi haqida dalolat beruvchi jonli manbadir<sup>4</sup>.

**"Bayram"** — turkcha so'zdan olingan bo'lib, "to'y", "marosim", "xursandchilik" degan ma'nolarni bildiradi. Bayram so'zining turli talqinlari bor. Bizningcha, falsafiy ensiklopediyada berilgan Bayram **"insonlar xursandchiligining yig'indisi"**, - degan talqin eng to'g'risi deb hisoblanadi. Bayram ijtimoiy mahalliy hayotning eng muhim qismlaridan bo'lib, shodiyona, xursandchilikni vujudga keltiradigan voqealarni nishonlaydi.

Ommaviy bayramlarning ommabopligi shundaki, birinchi navbatda, u amaliy namoyish etilganda, o'zining chuqur ijtimoiy- psixologik ildiziga ega ekanligi namoyon bo'lib, sahnalashtirish jarayonida tasodifiy hol va elementlarga yo'l qo'yilmaydi. Ommaviy bayramlar ba'zi bir tashkilotchi yoki tashkilotning xohishiga qarab o'tkazilmasdan, balki keng xalq ommasining bayramga bo'lgan ma'naviy ehtiyoji tug'ilganda o'tkazilsa, haqiqiy bayram tomoshasi yuzaga keladi.


---

<sup>4</sup> B.Sayfullayev. Tomosha san'ati tarixi va nazariyasi. Toshkent 2014, 73-bet.

Bayramlar eng qadimiy davrlardan boshlab inson hayotining eng muhim va tarkibiy qismiga aylangan. Bayramlar xalq hayotining yaxshi va go'zal tomonlarini aks ettiruvchi ko'zgudir. Bayram hayotning davomi muhim qismidir, bayram shaxs, oila, jamiyat, millat, davlat, xalqaro hayotdagi eng muhim hodisa, voqea sanalarni qayd etadi, ularni nishonlashga imkoniyat yaratadi. Kishilarning hayoti faoliyatida erishgan yutuqlarini ifodalaydigan hodisadir.

O'zbek xalqida yirik ishlarning boshlanishi va yakunlanishi odatda bayramga aylanib ketadi. Bayram insoniyatning bosib o'tgan yo'llarini chuqur anglashga g'alabalardan faxrlanishga ertangi kun uchun rejalar tuzishga kelajakka umid bog'lashga yordam beradi. Shu boisdan ham bayram arafasida kishilar bir-birlarini tabriklashadi yaxshi istaklar bildirishadi.

Bayramlar insoniyat hayotida shu qadar mustahkam o'rin egallaganki, ularni nishonlamaydigan hech bir shaxs, oila, jamoa topilmaydi. Shuningdek har bir millat va elat, xalqning o'z taraqqiyot tarixi jarayonida shakllangan bayramlari mavjud. O'rta Osiyo xalqlari, jumladan o'zbek xalqining ham eng qadimiy davrlardan shakllana boshlagan, asrlar bo'yi avloddan avlodga o'tib, kamol topib, bebaho merosga aylangan bayramlari ko'p. Bu bayramlarning ma'lum bir qismi tarixning "sovuq shamollari"- bosqinchilar va turli tarixiy shaxslar-hukmdorlar tazyiqiga uchrab nohaq yo'qotilgan, ayrim bayramlar esa qarama-qarshiliklarni yengib, ko'pgina fazilatlaridan ajralsa-da, butunlay yo'qolib ketmagan, yana boshqalari esa xalq hayotidan mustahkam o'rin olib, bizning zamonamizgacha yetib kelgan.



5-rasm. An'anaviy Navro'z bayrami.

Bu sohada birinchilardan bo'lib falsafa fanlar doktori, professor U.X.Qoraboyev ilmiy izlanishlarida O'zbekiston bayramlari fani rivojiga o'zining katta hissasini qo'shdi. Uning "O'zbekiston bayramlari", "O'zbekiston bayramlari tarixi" kitoblarida bu mavzuga chuqur, ilmiy yondashilib, bayramlarning kelib chiqish tarixi to'liq yoritishga harakat qilingan.

Xullas, eng qadimiy davrlardan xalq ommasi ehtiyoji bilan shakllana borgan, ijtimoiy zarurat asosida rivoj topgan, muayyan vaqtlarda taqiqlangan, katta qarama-qarshiliklar, to'siqlarni yengib, boshqa xalqlar tajribasi bilan boyib kelgan o'zbek bayramlari uzoq va boy tarixga ega. Biroq hanuzgacha o'zbek xalq bayramlarining tarixi va hozirgi ahvoli maxsus o'rganilgan emas. O'zbekiston hududida yashagan va yashayotgan avlodlar bayramlarining paydo bo'lishi, tarixiy rivojlanishi, hozirgi kuni, muammolari haqida maxsus ilmiy-ommabop kitoblar va o'quv qo'llanmalari yaratish tarixiy zaruriyatdir.

Aslida esa o'zbek xalq bayramlari uzoq va boy tarixga ega. Agar tarixchi-madaniyatshunos olimlarning "bayram inson bilan birga paydo bo'lgan va rivojlangan" degan fikriga tayansak, bayramlar kurtaklarini eng qadimiy paleolit davridan, ya'ni O'rta Osiyoda odam zoti paydo bo'la boshlagan - 500 ming yil avvalgi vaqtdan izlasa bo'ladi. Shuni ta'kidlash kerakki, tarixga qanchalik chuqur kirib boraversak, shunchalik tarixiy manbalarni kamayib ketayotganligini sezamiz. Bizning madaniy-ma'naviy tariximiz, inson hayoti, odatlari, bayramlari jiddiy tadqiqotlarni kutmoqda.

Ibtidoiy davrda vujudga kelgan ilk bayram shakllari arxeologlar, tarixchilar, etnograflar, san'atshunoslar bergan ma'lumotlarga qaraganda, bayramlar eng qadimiy davrlardayoq mavjud bo'lgan va iptidoiy odamlar hayotida muhim rol o'ynagan. Bu fikrni madaniyatshunos olimlar ham etirof etadilar. Masalan, **D.M.Genkinning** fikricha, **"...bayramlarning chuqur ildizi insoniyatning go'daklik davriga borib taqaladi"**<sup>5</sup>. Yoki **M.M.Baxtinning** ta'kidlashicha, **"Bayram - insoniyat madaniyatining boshlang'ich shaklidir"**<sup>6</sup> deb ta'riflaydi.

<sup>5</sup> Генкин О.М. Массовые праздники. М., 1975, 44-бет.

<sup>6</sup> Бактин М.М. Творчество Франсуа Рабле и народная культура средневековья и Ренессанса. - М., 1965, 11-бет.

Bayramlarning eng qadimiy davrlarda mavjud bo'lganligi umuman tan olingan bo'lsada, biroq bu masalalar hanuzgacha maxsus o'rganilmay kelinmoqda. Ammo hozirgacha mavjud bo'lgan manbalarga tayanib, ilk bayram shakllarining paydo bo'lishi haqida mantiqiy fikr yuritsa va ular to'g'risida muayyan tasavvur hosil etsa bo'ladi.

Odatda, bayram deganda biror-bir muhim hodisa, voqea, sanani ko'pchilik bo'lib, ko'tarinki ruhda, xursandchilik bilan nishonlash tushuniladi. Shu boisdan **Beruniy** bayramlarni hayotdagi "**eng muhim kunlar**" desa, **Mahmud Qoshg'ariy** "**shodlik va xursandchilik kuni**" deb ta'riflaydi.

"Bayram xalqning shodlik va xursandlik kuni", - degan edi XI asr Sharqning buyuk olimi Mahmud Qoshg'ariy. Darhaqiqat, bayramlar yordamida hayotdagi xursandchilik, shodiyona, tantanavorlik holatini vujudga keltirgan yirik voqealar, muhim sanalar, ulkan yutuqlar nishonlanadi. Bayram insoniyatning o'zi bosib o'tgan yo'llarni chuqur anglashi, qo'lga kiritilgan g'alabalardan mag'rurlanishi, ertangi kunga yaxshi umid bilan qarashiga yordam beradi.

Ommaviy bayram va tomoshalar haqida fikr yuritishdan oldin biz bayram bilan tomosha o'rtasidagi farqni anglab olishimiz lozim. "Bayram" tushunchasi "tomosha" tushunchasidan ancha kengdir. Bayram har doim keng, faol, ijodiy xalq ommasining ishtirok etishi bilan farq qiladi. U katta maydonlarni egallab, hech qanday uzviy sahna maydoni va chegarasiga ega bo'lmaydi. Tomosha bo'lsa, bayramdan farqli, doimo aniq sahna maydonida o'tkazilib, uzviy sahnaviy chegaraga ega bo'lib, xalq ommasini ishtirokchi va tomoshabinga bo'ladi.

Ommaviy bayram tuzilishi va shakli bo'yicha turli-tuman bo'lib, u har bir shaharda, har bir qishloqda, har bir mehnat korxonasida o'tkazilib, madaniy-ma'rifiy ishlarda yetakchi o'rinlardan birini egallaydi. Ommaviy bayramda birvarakayiga bir nechta badiiy harakat yuzaga kelib, tomoshabinning o'zi o'z diqqat obyektini topishi lozim.

Ommaviy tomosha bayramning teatrlashtirilgan qismi bo'lib, bayram strukturasi asosiy o'rinlardan birini egallaydi. Tomoshaning vaqti chegaralangan bo'ladi. Bayram esa hech qanday vaqt birligida chegaralanmaydi. U bir kundan bir oygacha davom etishi mumkin

---

<sup>7</sup> Mahmud Qoshg'ariy. "Devonu lug'otit turk", 1-tom. - T.: "Fan", 1963 yil, 447-bet).

(masalan: "Navro'z" bayrami). Lekin bayram asosini tomosha tashkil qiladi. Kompozitsion jihatdan bir-biriga g'oyaviy bog'langan bir qancha tomoshadan bayram vujudga keladi.

Ommaviy tomosha estrada konsertidagi kabi tayyor nomerlarni ijaraga olish yoki qandaydir tezisini tasvirlash emas, balki turli janrdagi nomerlarni, hujjatli material, kino-video materiallarni, maxsus yozilgan matnlar va h.k.lar asosida yangi sifatli sintetik, kompleks janr bo'lib hisoblanadi. Yuqorida aytib o'tganimizdek, bayram deb, insonlar xursandchiligining yig'indisiga aytiladi. Hozirda nishonlanadigan va zamonaviylashgan bayramlar spetsifikasi bo'yicha, bir qancha turlarga bo'linadi. Ular quyidagilar;

#### **I. Ijtimoiy-siyosiy bayramlar:**

- 1-sentyabr Respublikamizning "Mustaqillik" kuni;
- 8-dekabr "Konstitutsiya" kuni;
- 14-yanvar "Vatan himoyachilari" kuni;
- 9-may "Xotira va qadrlash" kuni;
- 21-oktyabr "Til bayrami" kuni;

#### **II. Milliy bayramlar:**

- "Navro'z" bahor bayrami;
- "Qovun sayli";
- "Gul sayli";
- "Suv sayli";
- "Olma sayli";
- "Qum sayli";
- "Lola sayli";
- "Qushlar bayrami";
- "Ona yer sahovati" bayrami;
- "Mehrijon";
- "Birinchi qadam" bolalar bayrami.

#### **III. Mehnat bayramlari:**

- "Birinchi chigit qadash" bayrami;
- "Hosil" bayrami;
- "Paxta" bayrami;
- "Birinchi gul" bayrami;
- "Birinchi karvon" bayrami.

#### **IV. Diniy bayramlar:**

- “Qurbon hayit”;
- “Ramazon hayit”;

#### **V. Kalendar-professional kasb bayramlari:**

- “O’qituvchilar va murabbiylar” kuni;
- “Radio kuni”;
- “Teatr kuni”;
- “Shifokorlar” kuni;
- “Militsiya xodimlari” kuni;
- “Matbuotchilar” kuni;
- “Savdo xodimlari” kuni;
- “Metallurglar” kuni;
- “Aviatorlar” kuni;
- “Temiryo’lchilar” kuni;
- “Shaxtyorlar” kuni;
- “Neftchilar” kuni;
- “Geologlar” kuni;
- “Qishloq va o’rmon xo’jaligi” kuni;
- “Quruvchilar” kuni.

#### **VI. Kalendar bayramlari:**

- 1-yanvar — Yangi yil bayrami;
- 8-mart — Xalqaro xotin-qizlar bayrami;
- 1-iyun — Xalqaro bolalar kuni;
- 1-aprel — Kulgi va hazil kuni va h.k.

Bu bayramlar qatoriga hozirda nishonlanadigan sport bayramlarini ham kiritishimiz mumkin.

#### ***Sport bayramlari:***

- Uloq, ko’pkari - yil davomida;
- Kurash milliy sporti — 6-sentyabrda nishonlanadi;
- Xalqaro futbol kuni — 10-dekabr;
- Umid nihollari, Barkamol mavlod, Universiada.

Ommaviy bayram harakati teatrdan farq qilib, uzviy ketma-ketlikdan mahrum bo’lib, unda lirik chekinishlar, voqealarning qaytishi, to’xtalish, pauza, so’zli materialni plastik materialga ko’chishi, plastik materialni musiqaga, musiqadan so’zga o’tishi mumkin. Agar teatr rejissyori premyeradan so’ng yana spektakl ustida qayta ishlashi mumkin

bo'lsa, ommaviy bayram bor-yo'g'i bir marotaba o'tkazilib, odamlarda chuqur emotsional taassurot qoldirishi lozim.

Sport o'yinlarining paydo bo'lish tarixi haqida mantiqiy tasavvur qiladigan bo'lsak hamda sport bilan bog'lasak quyidagi fikrlar kelib chiqadi. Qadimda ibtidoiy odamlar o'rtasida serxosil joylarni egallash uchun janglar bo'lib turgan. Bunday janglar oqibatida qurbonlar ham ko'p bo'lgan. Asta-sekinlik bilan bu boradagi mojarolarni madaniy tarzda hal qilish yo'llari izlangan. Dastlab, ikki urug' odamlari emas, balki sardor (oksoqol)lar o'zaro jang qilishgan. G'olib o'z jamoasi chegarasini belgilagan. Keyinchalik o'lim bilan tugaydigan janglar o'rniga, sardorlarning madaniylashgan olishuvlari vujudga kelgan. Ana shu olishuvlar hozirgi milliy kurashlarning ibtidosi bo'lgan.

#### ***1.1.4 Mamlakatimizda ommaviy sport tadbirlarining ilk bosqichlari.***

Mamlakatimizda har tomonlama yetuk, barkamol va sog'lom avlodni voyaga yetkazish ijtimoiy taraqqiyotning asosiy yo'nalishlaridan biriga aylanganligi bois, joylarda biri-biridan ko'rkam, zamonaviy anjomlar bilan jihozlangan sport majmualari, sport va sog'lomlashtirish markazlari, jismoniy tarbiyaning turli sohalariga ixtisoslashtirilgan sport maktablari, o'yingohlar va suzish havzalari bunyod etildi. Ana shu ezgu jarayonning tarkibiy qismi sifatida mamlakatimizda "Umid nihollari", "Barkamol avlod", "Universiada", shuningdek, milliy kurash, tennis va boshqa sport turlari bo'yicha musoboqalar muntazam ravishda o'tkazib kelinmoqda. Ana shunday sport musoboqalarining ochilish va yopilish tantanalari katta o'yingohlarda teatrlashgan maydon tomoshalari mezonlari asosida o'tkazilishi bugungi davr rejissurasida o'ziga xo's alohida yo'nalishni yuzaga keltirdi.

Xalqimizning sport bayramlari orasida milliy kurash bilan bog'liq turli musoboqalar bilan aloqador tantanalar muhim o'rin tutadi. Ma'lumki, kurash xalqimizning eng sevimli va keng tarqalgan sport turlaridan biridir. O'zbekistonda ikki usulda, ya'ni buxorocho va farg'onacha usuldagi kurash turlari keng tarqalgan. Mamlakatimiz hududida olib borilgan arxeologik qazilmalar chog'ida o'zbek milliy kurashining tarixi g'oyat qadimiyligini isbotlaydigan ashyoviy dalillar topilgan. Shulardan eng qadimiysi Janubiy O'zbekiston hududida joylashgan qadimgi Baxtar - Baqtriyanning bronza davriga oid topilma

bo'lib, bu sopol idishda saf tortib borayotgan kurash kiyimidagi odamlar tasvirlangan. Arxeolog olimlarning fikricha, bunday idishlar odatda zardushtiylik ibodatxonalarida foydalanilgan bo'lib, ramziy- magik xususiyatga ega deb tasavvur qilingan. Bunday idishlarning ko'pchiligida polvonlar tasviri mavjud. Jumladan, Surxondaryo viloyatining Sherobod tumani hududidagi bronza davriga oid Jarqo'ton yodgorligida olib borilgan arxeologik qazuv ishlari chog'ida ana shunday sopol idishlardan bir nechtasining parchasi - bo'lagi topilgan. Bu idish parchalarida bittasida ikki polvonning kurash tushayotganligi va polvonlardan biri raqibini oyog'idan chalib yiqitayotganligi tasvirlangan bo'lsa, ikkinchi idish bo'lagida ikki polvon qo'llarini baland ko'tarib kurash tushishga shaylanib turgan holati aks etgan. Akademik A.Asqarovning aniqlashicha, ana shu ikki sopol idish parchasidagi tasvirlarga asoslanib, o'zbek milliy kurashining tarixiy ildizlari kamida uch yarim ming yillik tarixga ega, deb xulosa chiqarish mumkin<sup>8</sup>.

Ma'lumki, kurash faqatgina milliy sport turi emas, balki qadimdan ajoyib tomosha namunasi sifatida ham mashhur bo'lib kelgan. Kurash xalqimizning qadimiy musobaqasi bo'lishi bilan birga ommaviy tomosha turi sifatida to'ylarda, bayram va sayillarda doimiy ravishda o'tkazib kelingan. Bu sport turi katta tajribaga ega bo'lgan kuragi yer ko'rmagan polvonlar va usta bakovullar tomonidan namoyish etiladi. Shuning uchun ham mutaxassislar kurashni mohiyatiga ko'ra "o'yin-tomosha" deb tasniflaydilar. Bunda kurashda u yoki bu polvonning g'olib chiqishi uning sport musobaqasi sifatidagi mohiyatini anglatasa, polvonlarning mahorati va epcilligi ishqibozlarga zavq berishi uning tomoshaviyligini bildiradi.

Mustaqillik yillarida ko'pgina milliy qadriyatlarimiz qatorida kurash bilan bog'liq sport an'analarimiz ham qayta tiklandi. Chunonchi, 1991-yilda Samarqand viloyatining Bulung'ur tumanida "Polvonbozlik" tomoshasining yangicha shakli qayta tiklandi. Bu ezgu ish "Chavqi" folklor-etnografik jamoasining keksa san'atkorlari Ummat Abdug'aniyev va Abdulla Soatovlar ijodiy intilishlari nati- jasida o'ziga xos tomosha san'ati sifatida namoyish etildi. Dasturga binoan katta davra hosil qilinib, egniga to'n, beliga belbog' bog'lagan polvonlar o'rtaga chiqadilar. Qarsak

---

<sup>8</sup> Asqarov A. O'zbek milliy kurashining arxeologik materiallarda aks etishi // Markaziy Osiyoda an'anaviy va zamonaviy etnomadaniy jarayonlar. 2-qism. - Toshkent, 2005. - B.3-4.

jo'rligidagi qo'shiqlar bilan davra ahli polvonlarni qo'llab-quvvatlab turadi. Bu dastur milliy kurash an'anasining sahnaviy talqinini yaratish borasidagi ilk tajriba bo'lgan edi.

Mustaqillik yillarida kurash bilan bog'liq milliy qadriyatlarimizni tiklash va xalqaro maydonga olib chiqish borasida keng ko'lamli ishlar amalga oshirildi. O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.Karimov tashabbuslari bilan 1991-yil milliy kurash federatsiyasi tashkil etildi. Milliy kurash an'analari tiklash maqsadida bir qator nufuzli musobaqalar o'tkazildi. Xususan, Xorazmda Pahlavon Mahmud, Buxoroda Bahovuddin Naqshbandiy, Shahrisabzda Amir Temur, Termizda At-Termiziy, Andijonda Zahiriddin Muhammad Bobur xotirasiga bag'ishlangan katta xalqaro kurash musobaqalari bo'lib o'tdi. Bu musobaqalar o'zining mohiyati va o'tkazilish jarayoniga ko'ra o'ziga xos sport bayramlari bo'ldi. 1993-yil 3-4-aprel kunlari Termiz shahridagi «Alpomish» o'yingohida buyuk hadisshunos olim Hakim at-Termiziy xotirasiga bag'ishlangan xalqaro musobaqa bo'lib o'tdi. Dunyoning turli mamlakatlaridan kelgan 400 nafardan ortiq zabardast polvonlari qatnashgan mazkur kurash musobaqasi bayramona tarzda o'tkazildi. Bu nufuzli xalqaro musobaqaga alohida tayyorgarlik ko'rildi. Kurash musobaqalari o'tkaziladigan «Alpomish» o'yingohi va uning atrofi obodonlashtirildi. O'yingoh va unga tutash inshootlar ta'mirlanib, bayramona ko'rinish kasb etdi. Sport bayrami uchun maxsus liboslar, taklifnomalar, ko'krak nishonlari, dekoratsiyalar, bayram dasturi tayyorlandi. Mannon Uyg'ur nomidagi viloyat drama teatri jamoasi tomonidan mazkur sport bayramining ochilishi tantanalari uchun katta tomosha dasturi tayyorlanib namoyish etildi.

Xalqaro musobaqaning ochilish marosimi tantanali tusda boshlandi. Bahodirlik va ulug'vorlikni tarannum etuvchi milliy kuy-qo'shiqlar fonida polvonlar davraga kirib keldilar. O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.Karimovning musobaqa qatnashchilari va mehmonlarga yo'llagan tabrigi o'qib eshittirildi. So'ngra jamoalarning sardorlari musobaqa bayrog'ini ko'tardilar. Viloyat va respublika televideniyesi musobaqaning ochilishi to'g'risidagi ko'rsatuvlarni keng ommaga namoyish etdi. Shu tariqa milliy kurash bo'yicha mamlakat birinchiligi va ko'plab xalqaro musobaqalar o'tkazib kelinmoqda. Bu sport bayramlari orasida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti sovrini uchun o'tkaziladigan an'anaviy kurash musobaqasi alohida o'rin tutadi.

Umuman, bizning obod va erkin mamlakatimizda har yili ko'plab sport bayramlari o'tkazilishi an'anaga aylangan. Shu bois, ommaviy bayramlarni tashkil etish va o'tkazish uchun yetuk rejissyor kadrlarni tarbiyalab voyaga yetkazishda sport bayramlariga ixtisoslashgan mutaxassislarni o'qitishga alohida e'tibor qaratish juda zarurdir. Binobarin, birinchi galda o'yingohlar o'zining tuzilishi, shakli va texnik jihozlanishi jihatidan sayilgoh, amfiteatr yoki tomosha maydonlaridan farqlanib turganligi bois, rejissyorlar uchun senariyning o'ziga xos talqinlarini yaratish vazifasini kun tartibiga qo'ydi. Qolaversa, sport musobaqalari bilan aloqador teatrlashgan maydon tomoshasi ham mazmunan sport bilan bevosita aloqador bo'lishi va musobaqalar mohiyatini o'zida mujassamlashtirgan bo'lishi talab etilar edi. Ommaviy badiiy-sport tomoshalari teatrlashgan maydon tomoshasi san'atining nisbatan yosh janrlaridan biri hisoblanadi. Bu yo'nalish sport bayramlarini tashkil qilish, sport turlariga aloqador shou-biznesni yo'lga qo'yish, yoshlar sport festivallarini o'tkazishda muhim amaliy ahamiyatga ega. Ommaviy badiiy-sport tomoshasi shunchaki keng qamrovli madaniy tadbir emas, balki g'oyatda katta ko'lamdagi tashkiliy-tayyorgarlik ishlarini talab qiladigan hodisadir:

Respublikamizda jismoniy tarbiya va sportning ommalashuvini yanada yuqori pog'onaga ko'tarish, jismoniy madaniyat harakatini rivojlantirish, xalq milliy o'yinlarini qayta tiklash, sog'lom turmush tarzini shakllantirish, zamonaviy sport turlari bo'yicha iqtidorli sportchilarni tayyorlash va ularning sport mahoratlarini oshirish maqsadida mamlakatimizning Birinchi Prezidenti Islom Karimov tomonidan amalga oshirish borasida ko'plab, qabul qilgan farmon va qarorlari mamlakatimizda sporti sohasini ommalashtirish va rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega bo'ldi.

Mamlakatimiz mustaqillikning dastlabki kunlaridan boshlab bu sohada o'ziga hos islohatlarni amalga oshirish borasida muayyan ko'rinishdagi huquqiy bazasini shakillantirdi.

Jumladan, "O'zbekiston Bolalar sportini rivojlantirish jamg'armasi faoliyatini tashkil etish to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, "Bolalar va o'smirlar sport maktablarini kadrlar bilan ta'minlashni yaxshilash to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'lim vazirlining buyrug'i, 2007-yilda "Bolalar sportini rivojlantirish

jamg'armasi byudjetini va bolalar sport obektlari qurilishining manzilli dasturini tasdiqlash to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, "O'zbekiston Respublikasi Jismoniy tarbiya va sport vazirligi huzuridagi Jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish jamg'armasi faoliyatini tashkil etish to'g'risida" Vazirlar Mahkamasining qarori, "Jismoniy tarbiya va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori kabi rasmiy me'yoriy hujjatlar qabul qilinishi yurtimizdagi barcha hududlardagi mahallalar va ko'chalardagi yoshlarni, o'zbek milliy sport o'yinlari bilan tarbiyalanishiga va komil inson bo'lib shakillanishiga olib keldi.

O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti Islom Karimov mustaqillikning ilk yillaridagi O'zbekistonni va o'zbek sportini dunyoga tanitish maqsadida dastlabki ishlaridan biri 1995-yil 29-avgustda Toshkent shahrida "Prezident kubogi" xalqaro turnir ochilishi bo'ldi.

2018-yilning 5-mart kuni Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev "Jismoniy tarbiya va sport sohasida davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni qabul qilindi. Farmonga muvofiq, ilgari davlat qo'mitasi va uning hududiy bo'linmalari negizida O'zbekiston Respublikasi Jismoniy tarbiya va sport vazirligi tashkil etilib, uning vazifa va vakolatlari kengaytirilgandi. 2018-yil 20-sentyabr kuni Yurtboshimiz tomonidan jismoniy tarbiya va sport sohasini rivojlantirish masalalariga bag'ishlangan yig'ilish o'tkazildi. Unda sportchilarni tanlab olish – seleksiya ishlarini takomillashtirish bo'yicha yangi tizim joriy etilishi dastlabki natijalarini berganligi ta'kidlandi.

Biz xalqaro sport maydonlarida O'zbekistonning nufuzi va obro'-e'tiborini oshirishga katta hissa qo'shgan sportchilarimiz bilan faxrlanamiz. Shu bilan birga, oliy sportda erishilgan yutuqlar bilan chegaralanmasdan, ommaviy sportga ham katta e'tibor berishimiz kerak, – dedi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev mazkur yig'ilishda.

Mustaqillikka qadar O'zbekiston xalqaro sport jamoatchiligi uchun qaryib yopiq edi. Futbol va tennis bo'yicha o'smirlar o'rtasida sobiq sotsialistik davlatlar sportchilari ishtirokida o'tkazilgan turnirlarni hisobga olmaganda, mamlakatimizda xalqaro musobaqalar deyarli o'tkazilmadi.

Mustabid siyosat jismoniy tarbiya va sport sohasida ham o'z asoratlarini qoldirib, bular ayniqsa, quyidagilarda namoyon bo'ldi:

1. O'zbekistonda jismoniy tarbiya va sport ishlari markaziy respublikalarga nisbatan past darajada yo'lga qo'yildi, sport harakatiga yerli aholi ommaviy ravishda jalb qilinmadi, ular orasidan yuqori malakali sportchilarni tayyorlash borasida esa, aniq va maqsadli ishlar olib borilmadi.

2. Sport tarmoqlarini rivojlantirish, sport inshootlarini qurish, umuman sportning moddiy-texnikaviy bazasini kengaytirish va moliyalashtirish ishlari faqat markaz roziligi bilan, cheklangan tarzda amalga oshirildi.

3. Soha uchun oliy va o'rta ma'lumotli kadrlar tayyorlash yo'lga qo'yilgan bo'lsada, musobaqalarda milliy sportchi kadrlar turli sun'iy to'siq va saralashlardan o'tishga majbur edi.

Mustaqillikka erishilishi bilanoq, 1992-yilning yanvar oyida mamlakatda jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirishning huquqiy asosi "Jismoniy tarbiya va sport to'g'risida"gi qonun qabul qilindi.

Qisqa muddatda:

- jismoniy tarbiya va sportni boshqarishning tashkiliy asoslari takomillashtirildi;

- O'zbekiston Milliy Olimpiya qo'mitasi, sport turlari bo'yicha federatsiyalar tashkil qilindi; jismoniy tarbiya, sog'lomlashtirish, ommaviy sport ishlari va sportning milliy turlari rivojlantirildi;

- jismoniy tarbiya va sportning moddiy-texnik bazasi mustahkamlandi; milliy ta'lim dasturiga binoan jismoniy tarbiya va sport sohasiga kadrlarni tayyorlash va qayta o'qitish ishlari amalga oshirilmoqda.

Mamlakatimizda yosh avlodning jismoniy va ma'naviy barkamolligini ta'minlash sog'lom turmush tarziga intilish va sportga mehr-muhabbatni rivojlantirish, joylarda bolalar sportining moddiy bazasini yaratish, aholi yashaydigan joylarda bolalar sportining moddiy bazasini yaratish, hamda sport uskunalari va jihozlari bilan ta'minlash ishlarini yanada faollashtirish maqsadida, 2002-yilda O'zbekiston Bolalar sportini rivojlantirish jamg'armasi tuzildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Jamg'arma homiylik kengashining raisi etib saylandi. Qoraqalpog'iston

Respublikasi Jo'qori Kenges raisi, viloyatlar va Toshkent Shahar hokimlari mintaqaviy filiallar xomiylik kengashlarining raislari etib tayinlandilar.

Sport mashg'ulotlariga o'quvchilarni ommaviy ravishda, uzluksiz jalb qilishni tashkil etish maqsadida, "O'quvchi va talaba yoshlarni sportga jalb qilishga qaratilgan uzluksiz sport musobaqalari tizimini tashkil etish to'g'risida" 2003-yilda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori qabul qilindi. Mazkur qaror asosida mamlakatda umumta'lim maktablari, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari o'quvchilari hamda oliy ta'lim muassasalari talabalarining "Umid nihollari", "Barkamol avlod", "Universiada" musobaqalarining hududlarda respublika final bosqichlarini o'tkazish rejasi belgilandi.

Jismoniy tarbiya va sport bilan muntazam shug'ullanish aholimiz, avvalo, yosh avlodimizning sog'lig'ini mustahkamlashda muhim o'rin tutishini inobatga olib, bu sohaga alohida e'tibor qaratilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev davlatimizda sport sohasini rivojlantirish maqsadida qator chora va tadbirlarni amalga oshirmoqda buning natijasida O'zbekiston sport bo'yicha terma jamolari osiyo va jahon miqyosida bo'lib o'tayotgan musobaqalarda yuqori o'rinnlarni egallamoqda. Shu borada 2017-yil 15-fevral kuni Madaniyat va sport sohasida boshqaruv tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmoni e'lon qilindi.

Ushbu farmonning birinchi bandiga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi Madaniyat va sport ishlari vazirligi tugatilsin va uning negizida:

- O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi;
- O'zbekiston Respublikasi Jismoniy tarbiya va sport davlat qo'mitasi tashkil qilinsin.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmoniga asosan, O'zbekiston Respublikasi Jismoniy tarbiya va sport davlat qo'mitasi faoliyatining asosiy vazifa va yo'nalishlari belgilab berildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida 2017-yil 31-oktyabr kuni jismoniy tarbiya va sport sohasida boshqarish tizimini takomillashtirish, ommaviy sportni rivojlantirish, iqtidorli sportchilarni tanlash va tarbiyalash, sohani malakali kadrlar bilan mustahkamlash hamda zamonaviy sport inshootlarini barpo etish masalalariga bag'ishlangan yig'ilish o'tkazildi.

Ushbu yig'ilishda mamlakatimiz Prezidenti Shavkat Mirziyoyev nutq so'zladilar va o'z nutqlarida shunday deydilar, mustaqillik yillarida bu borada keng ko'lamli ishlar amalga oshirildi. Aholining, ayniqsa, yosh avlodning jismoniy tarbiya va ommaviy sport bilan muntazam shug'ullanishi uchun zarur sharoitlar yaratildi. Shahar va qishloqlarda zamonaviy sport komplekslari bunyod etildi. "Umid nihollari", "Barkamol avlod" va "Universiada" musobaqalari yoshlarni ommaviy sportga, sog'lom turmush tarziga oshno qilish vositasiga aylandi.

Istedodli bolalarni tanlash va professional sportchilarni tayyorlash bo'yicha uzluksiz tizim yaratildi. Umumta'lim maktablari va bolalar sport majmualaridagi mashg'ulotlarda qobiliyati ko'zga tashlangan o'g'il-qizlar bolalar va o'smirlar sport maktablari, sport kollejariga olinib, professional yondashuvlar asosida tarbiyalanmoqda. Buning natijasida mamlakatimiz sportchilari jahonning nufuzli musobaqalarida yuksak g'alabalarni qo'lga kiritib, xalqimiz salohiyatini butun dunyoga namoyon qilmoqda. Xususan, sportchilarimiz 2016-yili Braziliyada o'tgan Olimpiya o'yinlarida 13 ta, Paralimpiya o'yinlarida 31 ta medalga sazovor bo'lib, yurtimiz sporti tarixidagi eng yuqori natijalarga erishdilar.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 3 iyundagi "Jismoniy tarbiya va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi qarori sohadagi yana bir muhim hujjat bo'ldi. Ushbu qaror bilan O'zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va ommaviy sportni yanada rivojlantirish dasturi qabul qilindi. Dasturda 2017-2021- yillarda jismoniy tarbiya va ommaviy sportni yanada rivojlantirish uchun 995,2 milliard so'mdan ziyod mablag' sarflanishi, sport maktablarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash maqsadida 167 ta sport inshooti, jumladan, 90 ta sport majmuasi va 77 ta suzish havzasini qurish, rekonstruksiya qilish, kapital tamirlash, jihozlash va qayta jihozlash nazarda tutilgan.

Dastur doirasida joriy yilda 153 ta bolalar maydonchasi tamirlangan, 232 ta zamonaviy maydoncha, Nukus shahrida sportning olimpiya va milliy turlariga ixtisoslashtirilgan sport majmuasi foydalanishga topshirilgan. Yig'ilishda bu borada yo'l qo'yilgan kamchiliklar ham ko'rsatib o'tildi. Xususan, Bolalar sportini rivojlantirish jamg'armasi mablag'lari hisobidan 39 ta sport inshootini qurish va rekonstruksiya qilish ishlari jadvaldan ortda qolgani, suzish havzalarini zamonaviy

anjomlar bilan jihozlash kechiktirilgani tanqid qilindi. Bu kamchiliklarni bartaraf etish, yil oxirigacha qurilish ishlarini yakunlash bo'yicha topshiriqlar berildi.

Sport majmualaridan foydalanish samaradorligini oshirish, yoshlarni ularga yanada keng jalb etish zarurligi qayd etildi. Sport maktablari, respublika oliy sport mahorati maktablari hamda sport federasiyalarining iqtidorli yoshlarni kashf etish borasidagi hamkorligi, seleksiya ishlari talab darajasida yo'lga qo'yilmagani tanqid qilindi. Bu borada aniq shaffof mexanizm yaratish va barcha hududlarni qamrab olish bo'yicha ko'rsatmalar berildi.

## II BOB. OMMAVIY SPORT TADBIRLARINI BOSHQARISH USLUBIYATI VA REJISSYORLIK MAHORATI

### 2.1-§. Jismoniy tarbiya va sport boshqaruvining samarali tizimi.

#### 2.1.1 Tadbirni tayyorlovchi ijodkorlar guruhi.

##### 1. Sahnalashtiruvchi-rejissorlar.

Ular janrlar bo'yicha (pantomima, sirk epizodlari, sport chiqishlari, bolalar nomerlari va h.k.) yoki alohida bloklar (prolog va final, estrada bloki, tarixiy blok, marosimlar va h.k.) rejissorlari bo'lishi mumkin.

2. Sahnalashtiruvchi rassomlar (kostyumerlar, qo'g'irchoqlar, butaforiya va rekvizitorlar, alohida maydonlarni bezash bo'yicha).

3. Sahnalashtiruvchi baletmeysterlar (alohida, xoreografik janrlar bo'yicha: klassik balet, bal raqsi, milliy raqslar, estrada raqslari va h.k.).

4. Xormeysterlar (akademik xor, xalq xori, bolalar xori).

5. Dirijorlar (puflama orkestr, simfonik, estrada, milliy xalq cholg'ulari orkestrlari).

O'tkazilayotgan bayramlarning mashtabiga qarab har bir ijodkor o'ziga bir nechta yordamchilar: rejissor yordamchilari va assistentlari, sport turlari bo'yicha trenerlar, maketchi va bajaruvchi rassom, kostyumlar bo'yicha muhandis va ustalar, (balet va vokal bo'yicha) konsertmeysterlar olishi mumkin.

##### 2. Ishlab chiqarish-texnik xodimlar.

1. Chiroq ustalari (yorituvchilar, yoritish sxemalarini tuzuvchilar va h.k.).

2. Ovoz rejissorlari.

3. Kino-video rejissyori.

4. Badiiy-sahnalashtirish bo'limi boshliqlari.

Ularning har birida o'zining yordamchi va assistentlari: yorituvchi-elektrik, ovoz yozish operatorlari va texnik radistlar, kino va videomontajchilari, sahna mashinisti, dekoratsiya montajchilari, butafor va rekvizitorlar, kostumerlar, pardozchilar va h.k.lar bo'ladi.

##### 3. Ma'muriy-tashkiliy xodimlar.

1. Direktor o'rinbosari (transport va texnik ta'minot).

2. Ma'murlar (bosh yoki katta).

3. Moliyachi.

4. Hisobchi.
5. Ta'minotchi ekspeditorlar.
6. Ombor boshliqlari.
7. Mashinistkalar (kompyuter operatori).

#### **4. Mualliflik guruhi.**

1. Senariy muallifi (agar rejissorning o'zi bo'lmasa).
2. Poetik matnlar, boshlovchilarning publitsistik matnlari, shiorlar va

h.k.

3. Bayram uchun maxsus yozilgan qo'shiqlar mualliflari (kompozitor va shoirilar).

4. Adabiy emakdosh (u dasturning ham muharriri).
5. Musiqiy muharrir.
6. Jamoalar konsert nomerlarini tanlovchi muharrir.

Rejissyorni bir og'iz so'zidan tushunadigan, u bilan bir necha bor ijodiy ishlar o'tkazgan guruhning bo'lishi katta ahamiyatga ega, chunki bunday mutaxassislar rejissyor bilan doimiy ravishda hamkorlikda ishlaganliklari sababli, bir-birlaridan nimani xoxlayotganini osonroq tushuna olishlari ishning oldinga siljishiga katta yordam beradi.

#### ***2.1.2 Sport tadbiri direktorining asosiy vazifalari.***

Ommaviy bayramlar va tomoshalar rejissyorining shakli bo'yicha imkoniyatlari cheksizdir. Agar teatr rejissyorligida asosiy ekspressiv vosita aktyor, uning plastikligi va so'zi bo'lsa, musiqa, yorug'lik, tovush esa badiiy obraz yaratishda yordamchi rol o'ynasa, teatr tomoshasini boshqarishda mutlaqo barcha san'at turlari teng komponentlar bo'lishi mumkin.

Harakat sahnasi tomoshani boshqaradigan ekspressiv vositalar arsenaliga ham kiradi: tabiiy landshaft - ochiq maydon, o'rmon, tog'lar, qoyalar, akvatoriya, stadion, sport saroyi, havo maydoni; maxsus ishlab chiqilgan yoki mobil platformalar.

Texnik vositalar, yangi yoritish va ovoz effektlari (avtomobillar, samolyotlar, paroxodlar, pirotexnika vositalari, lazer qurilmalari, favvoralar tizimi va boshqalar) rejissyor qo'lida yorqin, kuchli badiiy vositalarga aylanadi. Teatr spektakli va bayram senariysi - bu harakatning aniq belgilanishi va unga qo'shiladigan sahnalashtirish texnikasi.

Sankt-Peterburgda va umuman Rossiyada yirik sport tadbirlari (2002-2006 yillar) davrida tadqiqotchilar tomonidan o'tkazilgan sotsiologik so'rovlar natijasida sport tadbirini o'tkazish jarayonida direktor tomonidan bir qator muhim vazifalarni amalga oshirish lozimligi aniqlandi.

1-jadval



### Sport tadbiri direktorining asosiy vazifalari<sup>9</sup>.

Sport direktori faoliyati haqidagi tadqiqotlar uning ko'p qirraliligini ko'rsatdi. Sport tadbiri direktorining yuqoridagi vazifalari bir butunlik bilan uzviy bog'langan bo'lib, uning faoliyati strukturasi tashkil etadi. Faoliyatning har bir jihati boshqalar bilan bog'liq bo'lib, tayyorgarlik darajasi va mahoratiga qarab sport rejissyorida ko'proq yoki kamroq e'tibor va stressni talab qiladi.

Sport direktori faoliyatidagi asosiy vazifalar sport-badiiy spektakl yaratish va o'tkazish hisoblanadi. Ularning yechimi yuqorida sanab o'tilgan direktorning shaxsiy funksiyalarini bajarish orqali amalga oshiriladi.

Rossiyalik tadqiqotchilar tomonidan o'tkazilgan ommaviy tomoshalar va bayramlarning etakchi rejissyorlari faoliyatini ekspert

<sup>9</sup> Реферат. "Особенности режиссуры спортивных праздников". Студент Пушкина Алексея. Ижевск 2010

bahosi uning faoliyatining aniq turlarini - ijodiy va tashkiliylikni aniqlashga imkon berdi. Shunday qilib, respondentlarning 62,5 foizi ijodiy funksiyani, 37,5 foizi esa tashkiliy funksiyani birinchi o'ringa qo'ygan. Shu bilan birga, barcha respondentlar direktorning tashkilotchilik qobiliyatini doimiy ravishda rivojlantirish va takomillashtirish zarurligini ta'kidladilar.

**2-jadvalda** bir nechta sport tadbirlari ishtirokchilari (direktorlar, sport inshootlari rahbarlari, buyurtmachilar, talabalar - bo'lajak direktorlar) o'rtasida tadbirning muvaffaqiyatiga ko'proq ta'sir ko'rsatadigan jihatlar bo'yicha so'rov natijalari keltirilgan.

Yuqoridagi natijalar ijodkorlikning ulkan roli - tadbirning ajoyib qismi, uning tashkiliy va moliyaviy tomoni butun tadbirning muvaffaqiyatiga sezilarli ta'sir ko'rsatishini aniq ko'rsatib turibdi va etakchi direktorlarning fikriga ko'ra (49%) javoblar), bu tashkiliy tomon bo'lib, birinchi navbatda tadbirning muvaffaqiyatiga ta'sir qiladi.

Olingan ma'lumotlar sport va badiiy chiqishni muvaffaqiyatli o'tkazish uchun zamonaviy sport direktori quyidagilarga ega bo'lishi kerak degan xulosaga kelishimizga imkon beradi:

- ijodkorlik, ya'ni bayramning "g'oyasini" yaratish, uni ajoyib tashkil qilish uchun ijodiy qobiliyatlar;
- bayramni tashkil etish va muvaffaqiyatli o'tkazish uchun tashkiliy ko'nikmalar;
- iqtisodiy masalalardan xabardorlik, moliyaviy rejalashtirish, logistika, bayramni mijozga "sotish" uchun, hodisaning iqtisodiy samarasini hisoblash.

Zamonaviy sport direktorining faoliyati ijodiy komponent (ijodiy qobiliyat, innovatsion fikrlash, shou-biznes xizmatlari uchun zamonaviy texnologiyalarni o'zlashtirish va boshqalar) va boshqaruv komponentini (shu jumladan, barcha tashkiliy-ma'muriy va boshqaruv funksiyalarini o'z ichiga olgan) murakkab ishlar majmuasidir). Rejissyor nafaqat spektakl rejissyori, balki o'z bayramining tashkilotchisi va "sotuvchisi" ham bo'lib, uning qo'shimcha, ba'zan g'ayrioddiy va kutilmagan mas'uliyatlari ham bor. Bularning barchasi uning ishida juda ko'p qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi.

№	Savollar	Ovozlar %
<b>Sport direktori ishidagi qiyinchiliklar</b>		
1.	Bayramni tayyorlash uchun ajratilgan vaqtning etishmasligi.	100%
2.	Etarli darajada moliyalashtirilmaganligi	92,3%
3.	Mijozning oldida senariy rejasini himoya qilish	84,6%
4.	Repetisiya ob'ektlarining cheklangan imkoniyatlari	84,6%
5.	Homiylar bilan ishlash	76,9%
6.	Bayram ijodiy yechimi	69%
7.	Bayram byudjetini ishlab chiqish	61,5%
8.	Maxsus vositalarni tanlash	61,5%
9.	Senariy ishlab chiqish	53,8%
10.	Sportchilar bilan mashg'ulotlar	46,1%
11.	Subpudratchilarni izlash va ular bilan ishlash	46,1%
12.	Mashg'ulotlar va mashg'ulotlar jadvaliga rioya qilish	38,5%
13.	Sport inshooti xodimlari bilan o'zaro munosabat	38,5%
14.	Yakuniy moliyaviy hisobotni tayyorlash	23%
15.	Bayramning borishini bevosita nazorat qilish	23%
16.	Ma'muriy va ishlab chiqarish guruhini tanlash	15,3%
17.	Mijozga hisobot taqdim etish	15,3%

Sanab o'tilgan qiyinchiliklar orasida birinchi o'rinda sport bayramiga tayyorgarlik ko'rish uchun ajratilgan vaqt yo'qligi ko'rsatilgan. Bunday sharoitda direktor bayramni o'z vaqtida tayyorlash va o'tkazish uchun nafaqat ijodiy, balki ko'proq tashkilotchilik qobiliyatini ham safarbar qilishi kerak. Ularning tashkiliy qobiliyatlarini ro'yobga chiqarish zarurati bilan birga, 3-jadvalda keltirilgan bir qator boshqa qiyinchiliklar ham mavjud:

- repetisiya bazalarini ijaraga olishning cheklangan imkoniyatlari;
- sportchilarni mashqlarga jalb etish;
- subpudratchilarni izlash va ular bilan ishlash;
- mashg'ulotlar va mashg'ulotlar jadvalini tuzish va unga rioya qilish;
- ma'muriy-ishlab chiqarish guruhini tanlash;

- bayramni tashkil etish jarayoni ustidan doimiy nazorat.

Sport direktori uchun ko'plab qiyinchiliklar moliyaviy-iqtisodiy masalalarni hal qilishda ham paydo bo'ladi (etarlicha mablag' yo'qligi, homiylar bilan ishlash, dam olish byudjetini ishlab chiqish va boshqalar).

Sankt-Peterburgda olib borilgan tadqiqotlarda yuzaga keladigan qiyinchiliklarning asosiy sabablari orasida direktorlarning o'zlari:

3-jadval

No	Savollar	Ovozlar %
1.	Bir vaqtning o'zida bir nechta loyihalarning ish yuki	60%
2.	Moliyaviy-iqtisodiy qarorlar qabul qilish tajribasining etishmasligi	(60%)
3.	Ushbu masalalar bo'yicha bilimning etishmasligi	(80%)
4.	Bayramning texnik jihozlari bo'yicha etarli bilim yo'qligi	60%
5.	Tashkiliy masalalarni hal etishda tajribaning yetarli emasligi	(30%)
6.	Madaniy dunyoqarashning yetarli darajada emasligi (kino, musiqa, xoreografiya, dramaturgiya, adabiyot, rassomlik va yangi sport olamidagi hozirgi tendentsiyalarni kuzatish	30%
7.	Dramaturgiya va senariynavislik masalalari bo'yicha bilimning etishmasligi	(30%)
8.	Ishda konsentratsiyaning etishmasligi, kuchli irodaning etishmasligi	30%

### Sport direktori ishining o'ziga xos xususiyatlari

Sahna asarini sahnalashtirish - tomosha qilish - shaxsiy ijodning o'ziga xos harakati bo'lib, uning natijalari uchun ijodkor to'liq javobgarlikni o'z zimmasiga oladi. Kishilarning ijodiy kasblardagi mahorati ko'p jihatdan ularning tafakkuridagi ijodkorlik miqdoriga bog'liq bo'lib, ijodkorlik ko'lami bu miqdorga ob'ektiv proporsionaldir. Ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish, shou-biznes direktorlari uchun juda dolzarb bo'lib, ularning faoliyati nostandart, ko'proq darajada professional muammolarni hal qilishga ijodiy yondashish, har xil

alternaturalarni izlash, g'oyalarni yaratish, gipotezalarini shakllantirish va biror yangi narsa yaratish bilan bog'liq. Ommaviy sport va badiiy ishlab chiqarishlar va tadbirlarning direktorlari ijodiy kasblar bo'yicha mutaxassislariga kiradi. Ular o'z faoliyatida professional muammolarni hal qilishlari kerak, ularning aksariyati sahnada ham ijodiy yondashuvni talab qiladi.

Ommaviy sport va badiiy spektakllarni sahnalashtirish uning rejissyoridan nafaqat ulkan ijodiy iste'dod, balki yuksak tashkilotchilik qobiliyatini ham talab etadi. Bugungi kunda sport musobaqalari va sport tadbirlarini tashkil etish turli kasb egalari - sportchilar, rejissyorlar, aktyorlar, boshqaruv apparati vakillari, menejerlar tomonidan amalga oshirilmoqda, bu esa ushbu tadbirlarni tashkil etish va o'tkazish masalalarini hal qilishda ko'plab yondashuvlarga olib keladi. Aniq belgilangan, mantiqiy tugallangan tashkiliy tuzilmalarning yo'qligi sport va badiiy chiqishlarni yaratishda ish samaradorligini pasaytiradi. Bunday bayramlarni o'tkazish mutaxassis - sport direktorining yuqori malakali ishini talab qiladi.

## **2.2-§. Rejissyorlik san'ati kasb sifatida**

### **2.2.1 Ommaviy sport tomoshalarida rejissyorlik.**

**Rejissyor** so'zi (fransuz tilidan olingan bo'lib) "**yo'l-yo'riq ko'rsatuvchi, boshqaruvchi**" degan ma'noni anglatadi, ya'ni rejissyor dramatik materialni aktyor orqali yo'naltiruvchi, boshqaruvchi insondir.

Rejissyorlik san'ati kasb sifatida XIX asrning oxiri XX asrning boshlaridagina shakllanadi. Shu davr ichida teatr tarixidan o'rin olgan mashhur rejissyorlar: Germaniyada Kronek va Reyngardt, Fransiyada Antuan, Angliyada Kreg, Rossiyada Lenskiy yetishib chiqdilar. Bu davrgacha rejissyor funksiyasiga «Badiiy-ijodiy ishlar emas, balki «ma'muriy texnik» xarakterdagi ishlarni bajarish yuklatilgan edi. Bunday xarakterdagi ish hozirgi rejissyor yordamchisining vazifalaridan iborat. Ijodiy funksiyalarni esa (umumqabul qilingan tartibda) umumiy ishning katta obro'ga ega bo'lgan qatnashchisi o'z bo'yniga olar edi. Bu qatnashchilardan: pyesaning muallifi, birinchi aktyor, rassom yoki antreprenyorlar boshqarganlar. Lekin bunday tasodifiy, «rasmiy bolmagan» rejissurada spektaklni sahnalashtirish jarayonida, ba'zi

elementlar borasida kelishilmovchiliklar kelib chiqar edi. Bunday holat jamoada o'z o'rniga ega bo'lgan rahbarning yo'qligi tufayli sodir bo'lar edi.

Avval, bunday zaruratga chidab, spektaklni yaratishda erishilgan arzimagan yutuqlarga qanoatlanib yashashga tog'ri kelgan. Hozirda esa rollarni a'lo darajada ijro etilganiga, ajoyib dekoratsiyalar yaratilgan bo'lishiga qaramay, agar spektaklning stilistik birligi va umumiy g'oyaviy intilishi (oliy maqsad) bo'lmasa, spektakl to'laqonli san'at asari bo'lib hisoblanmaydi. Bunday to'laqonlilikka rejissyorsiz erishib bo'lmaydi. Shuning uchun spektaklda bo'lgan g'oyaviy-estetik talablarning o'sishi bilan rejissyorlik san'ati va roliga bo'lgan ehtiyoj teatrlarda ortib bordi.

"Rejissyorga tabiatdan sifat, aql, yumor, erkinlik, kuzatuvchanlik, tasavvur, musiqiylik va ritmiklik ato qilingan. Faqat rejissyor bu qobiliyatlari ustida tinimsiz ishlab, bu qirralarni rivojlantirishi lozim. Bundan tashqari, rejissyor hayotni tushunish, faollik, tashkilotchilik, pedagoglik, badiiy did, obrazli fikr qila olish, tahlil qila olish, o'tkir zehnlilik qobiliyatlariga ega bo'lishi kerak. Mana shu o'rganilgan bilimlar hayotiy amaliyotda mustahkamlanishi shart"<sup>10</sup>.

Rejissyor kasbida, u bajaradigan juda ham mas'uliyatli vazifalar turadi. Teatr rejissurasidan farqli olaroq ommaviy bayramlar rejissyori keng masshtabdagi omma bilan ishlaydi. Ommaviy bayramlar rejissyori rejissuradan tashqari tashkilotchilik, pedagoglik, psixologlik fikr qilish qobiliyatlariga ega boiishi kerak. Agar omma bilan ishlayotgan rejissyorda mana shu qobiliyatlar mujassamlashmasa, rejissyor o'ylagan g'oyasini amalga oshira olmaydi. Bayram yoki tomoshaning oliy maqsadini, g'oyasini tomoshabinga yetkazib bera olmaydi. Rejissyor tashkilotchi sifatida, hamma bayram, tomoshaning tashkiliy masalalarini hisobga olishi kerak. Agarda teatr rejissyori spektakl repetitsiyasini tashkil qilishda o'ziga va rejissyor yordamchisining yordamiga tayansa, ommaviy bayram va tomoshalar rejissyori badiiy havaskorlik jamoalari rahbarlarining va yordamchi guruhning yordamiga tayanadi.

Masalan: teatr rejissyori o'zi sahnalashtirgan spektaklning premyerasidan so'ng, kamchiliklarini qayta ishlab, bartaraf qilish imkoniyatiga ega bo'lsa, ommaviy bayram va tomoshalar rejissyorida bunday imkoniyat yo'q. U o'z postanovkasini faqatgina bir marotaba

---

<sup>10</sup> F.Ahmedov. Ommaviy bayramlar rejissurasi asoslari. T., «Aloqachi» 2008, 20 bet.

ko'rsatadi. Shuning uchun ommaviy bayramlar rejissyoridan katta tashkilotchilik energiyasi talab qilinadi. Ommaviy bayramlar rejissyori har doim minglab kishilar qalbiga yo'l topa olishi, ularni umumiy ishga qiziqтира olishi kerak. Bundan tashqari, kishilarning xohishlari, qiziqishlari ko'proq nimaga, qaysi mavzuda ekanligini ham aniqlay olishi kerak.

Rejissyor tashkilotchigina bo'lib qolmay, u universal ham bo'lishi lozim. U ma'muriy ishlarni bajarishda jamoatchilik tashkilotlari bilan bog'lanib, ish olib borishi, moliyaviy masalalarni hal qila olishi va boshqa masalalarni rejalashtira olishi lozim.

Rejissyor fikr yurituvchi sifatida o'zi qo'yayotgan tomoshaning mavzusi va g'oyasini yaxshi bilib, tomoshabinga va qatnashchilarga o'zi ilgari surgan g'oyasini va oliy maqsadini yetkazib bera olishi kerak va mana shu tomoshaning tarbiyaviy va axloqiy tomonlarini aniq ko'rsata bilishi lozim.

Rejissyor pedagog sifatida, pedagogikaning xususiyatini yaxshi bilishi kerak. U o'z tomoshalari bilan kishilarni faqatgina dam olishlarinigina uyushtirmay, balki ularni o'rgatadi, o'qitadi va tarbiyalaydi.

Rejissyor psixolog sifatida kishilar psixologiyasini yaxshi bilishi kerak. Kishilarning kasbini, yoshini, qiziqishlarini hisobga olishi shart. Ommaviy tomoshalar rejissyori tomoshaning plastik tuzilishiga katta e'tibor berishi lozim. Tomoshadagi plastik harakat, tomoshaning yanada nafis, qiziqarli chiqishiga yordam beradi.

Ommaviy bayram va tomoshalar borasida Bahodir Yo'ldoshev, Rustam Hamidov, Abdurashid Rahimov, Baxtiyor Sayfullayev, Nosir Qtaboyev, Marat Azimov, Rustam Ma'diyev, Eduard Kolosovskiy, Boris Pokrovskiy, Boris Vasilev, Farhod Ahmedovlar faol ish olib bormoqdalar.

Rejissyorlik kasbi borgan sari juda ham keng xizmat doirasini qamrab olmoqda. Rejissura insonlar ma'naviy hayotining faoliyati sohasiga borgan sari kirib bormoqda. Teatrlashtirish jamiyatdagi turmushimiz zarur komponentiga aylandi. Hozirgi hayotimizni teatr, televideniye, ommaviy teatrlashtirilgan bayram va tomoshalar, ta'lim, madaniy-ma'rifiy ishlar, radio, kinosiz tasavvur qilish qiyin. Amaliy jihatdan qarasa, mamlakatimizning barcha aholisi teatr auditoriyasi a'zosi bo'ldi desak, mubolag'a bo'lmaydi. Bu quvonchli hol, lekin bu rejissyorlarga bo'lgan talabni shakllantirishga xalaqit beradi. Ayni vaqtda universal

rejissura tarafdorlari hammaga bitta rejissura degan g'oyani ko'tarmoqdalar. Bunga qarshi tor doiradagi rejissura tarafdorlari faqat o'z yo'nalishi bo'yicha ijod qilishni talab qilmoqdalar. Biz har bir rejissyor o'zining spetsifik sohasida ijod qilishining tarafdorlarimiz. Har bir badiiy faoliyatning o'z spetsifik yo'nalishi bor, shunday ekan, rejissyor o'zining spetsifik yo'nalishi bo'yicha ijod qilishi kerak. Eng talantli rejissyor bo'lishiga qaramay, ham teatrdan, ham ommaviy bayram, tomoshalarda, ham televideniye, ham estrada shoularida mutaxassis bo'la olmaydi. Kamdan-kam hollarda bunday mutaxassis bo'lishi mumkin, lekin u ham sohani yuzaki bilishi mumkin.

Rejissurani keng ravishda qo'llanilishi bu soha osondek ko'rinadigan yolg'on hissiyotni uyg'otadi. Rejissyorning yetakchi rolini noto'g'ri tushunish, rejissyorlik sohasi nufuziga putur yetkazadi.

Ommaviy tarzda o'tkaziladigan sport bayramlari, musobaqalar hamda katta hajmdagi sport tadbirlarining ochilish yoki yopilish marosimi rejissyori oldida juda katta mas'uliyat hamda mehnat turadi. Rejissyor tadbirga qanday tayyorgarlik ko'radi u nimalarga e'tibor qaratishi lozim?

Ommaviy badiiy-sport tomoshasini yaratish uchun har qanday badiiy adabiyotda bo'lganidek, avvalambor, senariy muallifi tomonidan g'oyani topib, tatbiq etishi kerak. Bu janrning bosh qahramoni — o'ziga xos katta qatnashchilar ommasi bo'ganligi sababli, yaxlit tomoshani yoki alohida olingan epizodni, kompozitsion jihatdan mukammal ishlab chiqish lozim. G'oya aniqlab olingach, keyingi jarayonda kompozitsion sahnalashtirish rejasi ishlab chiqiladi. Kompozitsion sahnalashtirish rejasi, ko'p sonli qatnashchilar ommasi ichidan bitta odamgacha amaliy harakatini aniqlashgacha yordam beradi, shundan so'nggina senariy yoziladi. Bu jarayon ssenaristning rejissyor, rejissyor assistentlari, rassom, musiqiy rahbar va baletmeysterlar bilan hamkorlikda ishlashi bilan olib boriladi. Stadiondagi ommaviy tomoshani sahnalashtirishdan oldin, sahnalashtiruvchi-rejissyor uchta savolga javob topishi lozim. Bu savollar quyidagicha: **“Nimani sahnalashtiraman?”**, **“Qanday amalga oshiraman?”**, **“Kim bilan qo'yaman?”**. Birinchi savolning javobi — tomoshaning g'oyaviy mavzusi, asosi va janridir. Ikkinchi savolning javobi — bu umumiy olingan tomoshaning va alohida olingan epizodning sahnalashtirish yechimi va badiiy-musiqali bezagi. Uchinchi savol eng

muhimlaridan bo'lib, uning javobi tomoshaning senariy rejissyorlik g'oyasida ko'zda tutilgan bosh qahramonga taalluqli bo'lib, katta ishtirokchilar ommasi (soni, yoshi, jinsi, tayyorgarligi, tajribasi va h.k. lar) hamda mazmuni va xarakteri bo'yicha, kiritiladigan yasama nomerlarning ishtirokchilari, barchasi javob bo'ladi.

Hozirgi badiiy-sport tomoshalari o'zining mazmuni hamda yuqori jihatdan to'liqligi bilan ajralib turadi. Unda san'at turlarining turli janrlari-xoreografiya, sirk, teatr, musiqa, rassomchilik, liboslar bo'yicha dizaynerlar va h.k., eng tomoshabop sport turlaridan gimnastlar, akrobatlar, batutchilar, badiiy gimnastika, kurashchilar, bokschilar, ot sporti, mototsiklchilar, parashyutchilar, futbolchilar, karate va taekvondo va h.k. chiqishlari va fanarchilar, orkestr, barabanchilar, bayroqdorlar va h.k.lar ishtirok etishlari mumkin.

Ommaviy-sport tomoshalari, rejissuraga xarakterli bo'lgan barcha narsani o'z ichiga oladi. Xuddi dramatik, opera, balet va musiqali spektakllarni yaratishdagi kabi g'oyalarni aniqlab olish lozim. Lekin bu yerda harakat boshlanishining yetakchisi bo'lib, birgina aktyor emas, balki guruh yoki ko'p ming kishilik xalq ommasi ishtirok etadi. Bu rolda ommaviy-gimnastik chiqishlarni namoyish etuvchi sportchilar; bir necha ming kishidan tashkil topgan fon, va badiiy fon guruhlari va shu bilan bir qatorda maydonda bo'lib o'tayotgan voqealarning guvohi bo'lmish tomoshabin ishtirok etadi.

Ommaviy - sport tomoshalari, sport tadbirlari, yuqori darajada tashkil etilgan sport bayramlari sportni, jismoniy tarbiyani keng xalq ommasiga yoyishda katta ahamiyatga ega.

Lekin ommaviy-badiiy sport tomoshalarining asosini sport tashkil etgani uchun sport xarakteriga xos bo'lgan ta'sirchan vositalar orqali ochib berilishi sababli rejissyor sahnalashtirish davomida katta xalq ommasi bilan ishlay olishi, — jamoa qahramoni obrazini tomoshada namoyon eta olishi lozim. Aynan qatnashchilar ommasining chiqishi, ketishi, turli mashqlar, harakatlar bajarishi, saflanish va qayta saflanishi bunday tomoshalarining yetakchi ta'sirchan vositasi bo'lib, ular yordamida takrorlanmas jamoa qahramoni obrazlilik vujudga keladi.

Ommaviy ishtirokchilar doimo rejissyorning qo'lida o'ziga xos ko'rinishga ega bo'lishi kerak. G'oyadan kelib chiqqan holda u, ommaning shaklini o'zgartirishi, bir tasvirdan ikkinchisiga ko'chirishi, unga ma'lum

bir xarakter berishi, xarakterning tempo-ritmini o'zgartirishi, kerak bo'lsa, bexosdan qatnashchilarning qo'llarida qandaydir rangli predmetning paydo bo'lishi yoki rangini o'zgartirishi mumkin. Mana shularning hammasi yorqin obrazli yechimlarni yaratishda ommaning katta imkoniyatlaridan maksimal foydalanishga sharoit yaratadi. Ommaviy badiiy-sport tomoshalari o'zining ta'sirchan vositalari orqali plakatga yaqindir. Rejissyorning g'oyasi, tomoshaning mavzusi, tomoshabinga lokal, masshtabli, to'liq ramziy va umumlashma obrazlar orqali yetkaziladi.

### ***2.2.2 Ommaviy bayramlar, sport tadbirlari hamda sport musobaqalarini tashkil etishda rejissyorlik qobiliyatlari***

**Qobiliyat** o'zi nima? Qobiliyat – insonning individual salohiyati, imkoniyatlaridir. Qobiliyat bilimdan keskin farqlanadi, bilim mutolaa natijasi hisoblanadi. Qobiliyat shaxsning psixologik va fiziologik tuzilishining xususiyati sanaladi. Qobiliyat ko'nikma, malakadan farq qiladi. Qobiliyat insonga berilgan in'om sifatida qaraladi. Qobiliyat inson tomonidan ko'nikma va malakalarning egallanishi jarayonida takomillashib boradi. Har qanday qobiliyat turi shaxsga tegishli murakkab psixologik tushunchadan tashkil topgan bo'lib, u faoliyatning talablariga mutanosib xususiyatlar tizimini o'z ichiga oladi. Shuning uchun qobiliyat deganda birorta xususiyatning o'zini emas, balki shaxs faoliyatining talablariga javob bera oladigan va shu faoliyatda yuqori ko'rsatkichlarga erishishni ta'minlashga imkoniyat beradigan xususiyatlar sintezini tushunmoq lozim.

Barcha qobiliyat uchun tayanch xususiyat — kuzatuvchanlikda, ya'ni insonni fahmlash, obyektidan u yoki bu alomatlarini ko'ra bilish, ajrata olish ko'nikmasidir. Qobiliyatning yetakchi xususiyatlaridan biri — narsa va hodisalar mohiyatini ijodiy tasavvur qilishdir. U shaxsning shakllanishi va rivojlanishi natijasi bo'lishi bilan birga, tabiiy manbaga ham ega. Bu tabiiy manba ko'pincha zehn tushunchasi bilan yuritiladi. Zehn muayyan bir faoliyatga yoki ko'pgina narsalarga nisbatan ortiqcha qiziquvchanlikda, moyillikda, intilishda namoyon bo'ladi. Zehn nishonalari deganda qobiliyat ichki imkoniyatlarining tabiiy asosini tushunish lozim. U ishtiyoq, moyillik, mehnatsevarlik, ishchanlik, talabchanlik kabilarning mahsulidir. Qobiliyat umumiy va maxsus

turkumlarga ajratiladi. Umumiy qobiliyat deganda yuksak aqliy imkoniyat va taraqqiyot tushuniladi. Qobiliyat tabiiy ravishda shakllanishi va muayyan reja asosida rivojlantirilishi mumkin. Qobiliyatni ma'lum faoliyatga moyillik yoki intilish orqali, tabiiy zehn nishonalarini aniqlash, mutaxassis rahbarligida uzluksiz faoliyatga jalb etish, qobiliyatni takomillashtirishning maxsus vositalarini qo'llash, shaxsning faollik alomatlarini maksimal darajada rivojlantirish, inson shaxsiga alohida yondashuvni umumiy talablar bilan uyg'unlikda olib borish va boshqa orqali rivojlantirish yo'llari mavjud. Qobilyatlar, aslida, tug'ma bo'ladi. Qobiliyat tug'ma bo'lsada uning rivojlanishi ijtimoiy muhitga ham bog'liq bo'ladi<sup>11</sup>.

Rejissyor – san'at olamida o'ziga xos bosh ijodkor. Xoh teatr, xoh kino, xoh katta maydon tomoshalarida bo'lsin, aniq bir asarni shakllantirish, eng avvalo uning quvvat hofiziga bogliq. Demak, agar biror aktyor asardagi biror rolni ijro etish bilan o'z o'rnini topsa, rejissyor asardagi barcha rollarni tasavvurida o'ynaydi, ularni yagona - maqsadga birlashtiradi, hayotning, insoniy munosabatlarning yaxlit bir manzarasini yaratadi. Sahnaga, ekranga, maydonga chambarchas harakat baxsh etib, harakatga ma'no singdirib shular asosida ma'lum bir insoniy g'oyani tarannum etadi. Ommaviy sport bayramlari rejissyorlari ham o'z yo'nalishlari bo'yicha barcha jarayonlarni tasavvurida birma-bir ishlab chiqadi.

O'z ijodiy o'ylari, maqsadi asosida tomoshaning barcha ishtirokchilari —aktyor, rassom, kompozitor, kinoda operator ishini birlashtirib, yangi tomoshaviy voqelik yaratadi. Eng avvalo bo'lajak katta tomoshani o'z tasavvurida jonlantiradi. Uni yaxlit holida o'z ijodiy tafakkurida "pishirib", maydonga olib chiqishga ishonchi komil bo'lgandagina, repetitsiyalarni boshlaydi.

Rassomning ishini, bastakorning musiqasini, ijrochilar mahoratini bir nuqtaga to'plab, so'ng katta, asosiy, bosh repititsiyaga kirishadi. Ana o'shanda o'zimiz ham rejissyor mehnati - uning tashkilotchilik qobiliyati, mahorati nima ekanligini yaqqol his etamiz.

Katta maydon tomoshalari, bir qarashda go'yo ko'p odamlar ishtirokidagi ommaviy bir saylu tomoshadek tuyulsa-da, lekin uning

---

<sup>11</sup> Vikipediya, ochiq ensiklopediya

zamidida qanchalar ijodiy mehnat, topqirlik, katta mazmun yotadi. Barcha ijodkoru ijrochilarni, musiqa va qo'shiqni, dekoratsiya va chiroqlar tovlanishini bir ulug' mazmunga jam eta olish – rejissyordan ulkan mas'uliyat, mahorat talab qiladi. Shuning uchun ham rejissyor – bosh ijodkor va ijrochi hisoblanadi.

**“Rejissyor zamon, davr bilan hamnafas, kerak bo'lsa boshqalardan oldinroq yurishi kerak bo'lgan san'atkordir. U o'zining saxnalashtirgan asarini tomoshabinga yoqish yoki yoqmasligini, mavzuning dolzarbligi yoki uni darrov eskirib qolishi mumkinligini oldindan anglay olishi qobiliyatiga ega bo'lishi shart. Bu kasb egasi fidoiy bo'lgandagina ma'lum yutuqlarga ega bo'lishi mumkin<sup>12</sup>”.**

Agar shunday urinishlaringiz maydonni, minglarcha kishilar qalbini zabt eta olmasa, ularga zavq, go'zallik tuyg'usini, ma'nolar silsilasini baxsh eta olmasa,- bu katta yutqiziq bo'ladi. Donolardan biri aytganidek, sahna bilan tomoshabin o'rtasida “jang” boradi. San'atkor o'z talqinining haqqoniyligi va ijrosining tabiiyligi, ta'sirchanligi bilan tomoshabinni o'ziga moyil eta olmasa, bu rejissyor uchun mag'lubiyat bo'ladi.

Bu kasbni orzu qilgan va shu soxa bilimlarini o'rganayotgan yoshlarimiz qo'yida keltirilayotgan qobiliyatlarni ham rivojlantirishlari lozim bo'ladi.

**Mas'uliyatni o'z zimmasiga olish** – Mas'uliyat bu qadriyat va axloqiy amaliyotdir, chunki u oilaviy, o'quv, ish va fuqarolik hayotiga ta'sir qiladi. Mas'uliyatli shaxs o'z vazifalarini o'z vaqtida va samarali bajaradi. Masalan, topshiriq va vazifalarni iloji boricha eng yaxshi bajaradigan, o'z ishiga mas'uliyatli shaxs javob beradi.

**Dunyoqarash** – kishilarning o'z atrofidagi voqelikka va o'z-o'ziga munosabatiga bo'lgan umumiy qarashlar tizimi, shuningdek, bu qarashlarga asoslangan odamlarning e'tiqodlari, ideallari, bilish va faoliyat tamoyillari. Dunyoqarash kishining yoshi, hayotiy tajribasi, bilimi, mafkurasi bilan bog'liq. Dunyoqarashda jamiyatda shakllangan falsafiy, ilmiy, diniy, siyosiy, axloqiy, huquqiy, estetik bilimlar, qarashlar o'z aksini topadi.

---

<sup>12</sup> Vahobjon Rustamov “Ommaviy bayramlar rejissurasi” Toshkent-2006. 73-bet.

**Klassik ta'lim** – hech bo'lmaganda o'z-o'zini o'rgatish darajasida kitoblarni o'qing, nazariyani o'rganing, buyuklarning mahorat daralarini tomosha qiling.

**Oldindan ko'ra bilish** – tashkil etilayotgan tadbirni oldindan ko'ra bilish ham zarur hisoblanadi. Bilish jarayonida tajriba va amaliyotning katta ahamiyati bor. Bu yerda amaliyot (praktika) keng ma'noda bo'lib, insonning jamiyatga ta'siri, tabiat hodisalarini o'zgartirishi, yangi narsalar, jamiyatning yashashi uchun zaruriy shart-sharoitlar yaratishi tushuniladi.

**Hazil tuyg'usi** – jamoa bilan umumiy til topa olishingiz uchun juda ham zarur. Sport tadbirini tayyorgarlik hamda repetitsiya jarayonida siz o'nlab, balki yuzlab mutaxassislar bilan muloqot qilishingizga to'g'ri keladi: aktyorlardan kostyum dizaynerlarigacha, prodyuserdan tortib grimyor hamda rassomlargacha. Agar siz o'ta jiddiy, yopiq bo'lsangiz, jamoa bilan hamkorlik qilish qiyin bo'ladi.

**Texnik bilim** – sizga ommaviy sport tomoshalari maydonida kerak bo'ladigan barcha texnikalarni, xususan, kameralar, ovoz kuchaytirgichlar hamda zamonaviy yuqori texnologiyalarni boshqalarni tushunishingiz kerak.

**Tuganmas energiya** – rejissyor tadbirni harakatlantiruvchi kuchi hisoblanadi. O'zlari nimaga erishmoqchi ekanliklarini aniq biladigan energiya beruvchi rejissyorlar o'z jamoalarini shu qadar faollashtirishga qodirki, ular hatto eng qiyin ommaviy sahnalarni sahnalashtira olishda muvaffaqiyat qozonishadi.

### ***2.2.3 Sportchi talabalarga "Sportda rejissyorlik mahorati" tushunchalarini berishning pedagogik yondashuvi***

Bugungi kunga kelib, xalqimizni sportga, jismoniy tarbiyaga jalb qilish, ularni sog'lomlashtirish maqsadida, sport tadbirlarini tashkil etish, sport musobaqalarini ochilish va yopilish marosimlarini yuqori saviyada o'tkazish borasida bir qator qaror farmonlar qabul qilindi. Yurtimizda sport tadbirlarini tashkil etish bo'yicha kadrlar tayyorlana boshlandi. Ommaviy sport tadbirlarini o'tkazish bosqichlari mahallalardan boshlandi va shu jarayonda yoshlarimizni jismoniy tarbiya va sportga qiziqtirish, shuningdek, qo'llab – qo'vvatlashning targ'ibot-tashviqot ishlari amalga oshirilmoqda. Sog'lom avlod – sog'lom kelajak, kelajagi

sogʻlom yurt qudratli boʻlur degan iboralar ham bejizga emas aslida. Sport sharhlovchisi, sport jurnalisti, sport menejeri, sport va sanʼat tadbirlari direktori kabi mutaxassisliklar paydo boʻldi va ularga ehtiyoj sezilmoqda.

Sport shou-biznesi bugungi kunda jismoniy tarbiya va sportni targʻib qilishning samarali koʻrinishiga aylanmoqda. Bu stadionlarda oʻtkaziladigan madaniy va tomoshabop sport tadbirlarining sezilarli darajada koʻpayishiga olib keldi.

Sport tadbirlarini tashkil etish va boshqarish borasida kadrlarni, kichik va ommaviy sport bayramlari direktorlarini kasbiy tayyorlash jarayonini, uning faoliyati va oliy taʼlim muassasalarida kadrlar tayyorlashdagi zamonaviy oʻzgarishlarni hisobga olgan holda shakllantirish va takomillashtirishning dolzarb masalalaridan biridir.

**Mavzu obeʼkti** - oliy oʻquv yurtlarida sport rejissyorligi boʻyicha mutaxassislarni kasbiy tayyorlash tizimi.

Ommaviy sport va badiiy chiqishlar, ommaviy bayramlarning ajralmas qismi sifatida zamonaviy inson uchun sanʼatning nisbatan yangi janridir. Sport bayramlari va tomoshalar nafaqat dam olish, balki tarbiyaviy funksiyalarni ham bajaradi. Sport shou-biznesini rivojlantirish bugungi kunda jismoniy tarbiya va sportni ommalashtirishning istiqbolli yoʻnalishi hisoblanadi. Aynan soʻnggi oʻn yillikda stadionlar va boshqa sport inshootlarida sport musobaqalari, madaniy-koʻngilochar tadbirlar soni sezilarli darajada oshgani bilan tavsiflanadi.

Sahna asarini – tomoshani sahnalashtirish shaxsiy ijodning oʻziga xos harakati boʻlib, uning natijalari uchun ijodkor toʻliq javobgar boʻladi. Kishilarning ijodiy faoliyati kasblardagi mahorati koʻp jihatdan ularning tafakkuridagi ijodkorlik hajmiga, ijod koʻlamiga bogʻliq. Fan, texnika, sanʼat va madaniyat sohasidagi kasbiy muammolarni hal qilishda nostandart, koʻproq darajada ijodiy yondashish, barcha turdagi muqobillarni izlash, gʻoyalarni shakllantirish, gipotezalarni shakllantirish va boshqalar bilan bogʻliq yangisini yaratish, ommaviy sport va badiiy tomoshalar hamda tadbirlar direktorlari ijodiy kasblar boʻyicha mutaxassislar sifatida tasniflanadi. Sahnalashtirish va tashkiliy jihatdan ijodkorlikning barcha asosiy xarakteristik parametrlaridan foydalangan holda ular, oʻz faoliyatida professional muammolarni hal qilishlari kerak. Ularning aksariyati ijodiy yondashuvni talab qiladi. Universitetda taʼlim beruvchi mutaxassislar, sport rejissyorligida bir qator mutaxassis

talabalarni, ijodiy fikrlash qobiliyatlarini shakllantirishni, "kasbiy tayyorgarlikda ijodiy shaxsni kompleks rivojlantirishning istiqbolli usullaridan biri" deb hisoblaydilar.

Ommaviy sport va badiiy tomoshalarni sahnalashtirish uning rejissyoridan nafaqat ulkan ijodiy iste'dod, balki yuksak tashkilotchilik mahoratini ham talab etadi. Bugungi kunda sport musobaqalari va sport bayramlarini tashkil etishga turli kasb egalari – sportchilar, rejissyorlar, aktyorlar vakillarini jalb etish, ma'muriy apparatlar, menejerlar, bu tadbirlarni tashkil etish va o'tkazish masalalarini hal qilishda ko'plab yondashuvlarga olib keladi Aniq shakllantirilgan, mantiqiy tugallangan tashkiliy tuzilmalarning yo'qligi sport va badiiy chiqishlar yaratishda ish samaradorligini pasaytiradi.

O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti o'qitish tizimida, Menejment - "Sport tadbirlarini tashkil etish va boshqarish" yo'nalishi ta'limining maqsadi ham, jamiyatni sog'lomlashtirishda, ommaviy sportni targ'ib qilishning kasbiy va pedagogik ta'lim tizimini shakllantirishdir. To'g'ridan-to'g'ri yoki bilvosita uning har bir elementi sport tadbirlarini tashkil qilish va boshqarishga mo'ljallangan. Shuning uchun biz sport direktorining modelini (tasvirini) tuzdik. Bu raqobatbardosh, professional tayyorgarlikka ega va ma'lum bir kompetentsiyalarga ega, ijtimoiy rivojlanishdan oldinda, doimiy kasbiy o'sishga tayyor bo'lgan mutaxassis, ijtimoiy va kasbiy harakatchanlik qobiliyatlariga ega shaxs. Mutaxassisni tayyorlashdagi barcha harakatlar ana shu ta'lim natijasiga erishishga qaratilgan bo'lishi kerak.

Shu bois bugungi kunda uning faoliyati va oliy ta'lim sohasidagi zamonaviy o'zgarishlarni hisobga olgan holda "Sport rejissyorligi" yoki boshqaruvidagi direktorlarini kasbiy tayyorlash jarayonini shakllantirish va takomillashtirishning samarali usullarini izlash zarur.

Sport festivaliga tayyorgarlik tadbirning o'zidan ancha oldin boshlanadi. Bu davrlarni shartli ravishda bir necha bosqichlarga bo'lish mumkin. Nazariy ishlarni tahlil qilish, pedagogik kuzatishlar, mutaxassislar o'rtasida so'rov o'tkazish va talabgorning sport va san'at festivallarini tashkil etishdagi shaxsiy tajribasi asosida to'rt bosqich: tayyorgarlik, tashkiliy, o'tkazish va yakuniy bosqichlar belgilandi. Har bir bosqichda ushbu turdagi ishlarga mas'ul bo'lgan mutaxassislar tomonidan turli tadbirlar amalga oshiriladi. Bizning tadqiqotlarimizda

amalga oshirilgan barcha tadbirlar, ular uchun mas'ul shaxslarning vakolatlari batafsil tavsiflanadi. Sport bayrami bosqichlarining umumiy soni, davomiyligi va mazmuni tadbirning ko'lami va moddiy-texnika bazasi imkoniyatlariga bog'liq.

Bayramga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish bosqichlari, mas'ul shaxslarning vakolatlari haqida olingan material yordamida sport inshootida sport-ko'ngilochar tadbirni tayyorlashda tashqi va ichki aloqalar tizimi belgilandi Ommaviy sport va san'at festivallari mazkur tadbirning har bir ishtirokchisi faoliyatida yuksak mas'uliyat va mustaqillikni talab qiladi. Lekin ayni paytda asosiy mas'uliyat ijodiy, tashkiliy, ma'muriy, iqtisodiy va moliyaviy masalalarni hal qiluvchi direktor zimmasiga tushadi.

Olingan ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, sport rejissyorligi bo'yicha mutaxassislarni tayyorlashda o'quv jarayoni, bayramga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish bilan bog'liq asosiy kasbiy kompetensiyalarni egallashga, tashkiliy, ma'muriy va boshqaruv ko'nikmalarini, kam bo'lmagan darajada qobiliyatlarni rivojlantirishga qaratilgan bo'lishi kerak.

Biz aniqladikki, zamonaviy iqtisodiy munosabatlar sharoitida sport tadbirlarini o'tkazish uchun moddiy bazani tashkil etuvchi yirik sport inshootlari rahbarlari va bevosita ushbu tadbirlar tashkilotchilari moddiy-texnik ta'minot, asosiy va qo'shimcha resurslarni izlash masalalari bilan shug'ullanishlari kerak. Moliyalashtirish manbalari, sport-ko'ngilochar tadbirlarni tashkil etish va tayyorlashning yangi tizimi yo'qligi, tadbirlar, sport va badiiy chiqishlar bo'yicha bosh direktorning ushbu masalalar bo'yicha malakasizligi tadbirni tayyorlash jarayonida katta qiyinchiliklarga olib kelishi mumkin.

Sport va san'at festivallarining ishchi hujjatlari (senariylar, o'rnatish rejalari, smetalar va boshqalar), sport tadbirlari, tajribali ommaviy bayramlar rejissyorlari, eng yirik sport ob'ektlarining etakchi direktorlari va rahbarlari bilan suhbatlar tahlili asosiy o'zgarishlarni aniqlashga imkon beradi.

Ijodkorlikning katta roli - tadbirning ajoyib qismi, uning tashkiliy va moliyaviy tomoni butun tadbirning muvaffaqiyatiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi va etakchi direktorlarning fikriga ko'ra (49%) javoblar), aynan tashkiliy tomon, birinchi navbatda, tadbirning muvaffaqiyatiga ta'sir qiladi.

Mutaxassisning haqiqiy faoliyati va funksiyalarini o'rganish zarur, chunki ular universitetlarda ushbu mutaxassislarni tayyorlash profilini shakllantirish uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Ilmiy-metodik adabiyotlarni tahlil qilish, mamlakatimizning yetakchi mutaxassislari o'rtasida o'tkazilgan so'rovlar, O'zbekiston respublikasidagi yirik sport tadbirlari davridagi kuzatishlar natijasida aniq natijalarga erishishimiz mumkin.

#### **2.2.4 Ommaviy sport tadbirlarini tashkil qilishda g'oyaning ahamiyati**

«G'oya — inson tafakkurida vujudga keladigan, jamiyat va olamlarni maqsad sari yetaklaydigan fikr. Unda olamni bilish va amaliy o'zgartirish maqsadlari, ularga erishish yo'llari va vositalari mujassam bo'ladi. Falsafa tarixida G'oya turli ma'nolarda qo'llangan. Forobiy «fozil jamiyat», Navoiy «adolatli jamiyat» g'oyalari ilgari surganlar. 17 – 18-asrlarda G'oya tushunchasi bilish nazariyasi bilan bog'lab izohlangan. Shu asosda G'oyalarning kelib chiqishi, bilishning turli darajalari shakllari bilan aloqasi, umuman bilish jarayonida tutgan o'rni masalalari tahlil qilingan. Yangi davrda Kant G'oyalarni «aql tushunchalari» sifatida asoslashga harakat qilgan. Fixte fikricha, G'oya «men» ning maqsadidan iborat. Gegel falsafasida G'oya taraqqiyot jarayonini o'zida to'la gavdalantiradigan mohiyat sifatida talqin etilgan»<sup>13</sup>.

**G'oya** - muayyan fikr, maqsad sari yetaklovchi kuch. G'oya – niyat, reja ma'nolarini ham anglatadi. U ma'lum bir fikrning hissiyot bilan bo'rttirilishidir. Badiiy obraz – to'qima bo'lib, ijodkor tomonidan yaratiladi. Badiiy to'qimaning o'lchovi hayotiy haqiqatga mos kelish yo kelmasligi bilan o'lchanadi. Natijada badiiy to'qima g'oya bilan birlashib bir maqsadga yo'nalgan tushunchani keltirib chiqaradi.

Tajriba natijalari G'oyada umumlashadi va shu ma'noda bilim shakliga aylanadi. G'oya narsa va hodisalarning faqat mavjud xususiyatlarini emas, balki ularning rivojlanish tendensiyalarini, kelajakdagi holatlarini ham ifoda etadi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, G'oya amaliyotga joriy qilsa bo'ladigan bilimdan iborat. Demak, G'oya bilish va amaliy faoliyat o'rtasida faol bog'lovchi hisoblanadi va u barcha yangi narsalarni yaratishning asosidir.

<sup>13</sup> Vikipediya, ochiq ensiklopediya. Qiyom Nazarov.

G'oyalar faqat yaxshilikka ezgulikka hamda yuksaklikka yetaklayvermaydi. G'oya ijobiy yoki salbiy rol o'ynashi mumkin.

Fanda esa G'oya mavjud bilimlarni sintez qilish, umumlashtirish va qat'iy tartibga solish vositasi bo'lib xizmat qiladi. Bu, avvalo, har qanday taxminlar, tamoyillar va tasavvurlarni birlashtirib, yaxlit tizim holiga keltiradi va kashf etilayotgan qonunlar, ilmiy nazariyalarning o'zagini tashkil etadi.

Ilmiy adabiyotlarda "g'oya", "mafкура", "ideya" va "ideologiya" tushunchalari ishlatilmoqda. Ideya va ideologiya ko'proq G'arb davlatlarida hamda rus tilidagi manbalarda uchraydi. Ideya iborasi yunon tilidagi idea so'zidan olingan, u ideologiya so'zining o'zagi bo'lib hisoblanadi va «tushuncha» yoxud «fikir» ma'nosini anglatadi.

Ideologiya (Idea - g'oya, tushuncha, logia - ta'limot) atamasi esa g'oyalar to'g'risidagi ta'limotni anglatadi va ikki xil ma'noda ishlatiladi:

- G'oyalarning mohiyat-mazmuni shakllanishi, ahamiyati to'g'risidagi bilimlarni ifodalaydi va ilmiy soha bo'lib hisoblanadi.

Inson tafakkuri voqelikni idrok etish mobaynida turli fikrlar, qarashlar, g'oyalar va ta'limotlar yaratadi. Lekin tafakkur yaratgan har qanday fikr yoki qarash, mulohaza yoki nuqtai nazar g'oya bo'la olmaydi. Faqat eng kuchli, ta'sirchan, zalvorli fikrlargina g'oya bo'la olishi mumkin. Tafakkurning mahsuli sifatida g'oya tevarak olamni o'rganish, bilish jarayonida vujudga keladi. Ijtimoiy ongning barcha shakllari - ilm - fan, din, falsafa, san'at va sport, badiiy adabiyot, axloq, siyosat va huquq - muayyan bir g'oyalarni yaratadi, ularga tayanadi va ularni rivojlantiradi. Ma'lum ma'noda aytish mumkinki, har bir ong sohasining o'z g'oyalari mavjud bo'ladi.

Mazmuni va namoyon bo'lish shakliga qarab, g'oyalarni bir qancha turlarga ajratish mumkin.

- Ilmiy g'oyalar;
- Falsafiy g'oyalar;
- Diniy g'oyalar;
- Badiiy g'oyalar;
- Ijtimoiy - siyosiy g'oyalar;
- Milliy g'oyalar;

- Umuminsoniy g'oyalar va hokazo»<sup>14</sup>.

Hozirgi paytda kimning g'oyasi kuchli, fikri tiniq, mafkurasi hayotiy bo'lsa o'sha g'alaba qozonadi.

G'oyani yana yangi fikr, qaysidir yo'nalish bo'yicha avval bo'lmagan va bo'lganlaridan o'zgacha yangi topilma desak ham bo'ladi. G'oyaning voqelikka ya'ni, siz tashkil etayotgan yoki rejissyorlik qilayotgan sport tadbiriga mos kelishi muhimdir.

Tuman, shahar, viloyat hamda Respublika miqiyosidagi katta hajmli ommaviy sport tadbirlari, musobaqalar va bayramlar orqali ilgari surilayotgan g'oyani rejissyor, tadbirning har bir nomerida, chiqish paradlarida, boshlovchilarning so'zlarida-sherlarida, rassomlar ishida, fon musiqalari-yu qo'shiqlarda, raqslarda, dikoratsiyalar, jonli fonlarda, ishtirokchilar chiqishlarida, rangli chiroqlarda, katta monitorlarda va hattoki so'ngi kulminatsion nuqta pirotexnika mushakbozliklarida ham o'z aksini ko'rinishini topgan bo'lishi kerak.

### ***2.2.5 Sport tadbirlarini professional tashkil etishda ijobiy hamda ijodiy g'oyalar.***

Ommaviy sport tadbirlarining g'oyalari ham xalqning shukronalik, totuvlik, mehr oqibat, mehnatsevarlik, samiyimiylik, Vatanni sevish, saxovatpeshalik, san'atga va sportga bo'lgan muhabbat, kitobga hamda ilm olishga bo'lgan intilish, kelajakka bo'lgan umid va o'z maqsadlarini ro'yobga chiqaruvchi kuchni, ishonchni o'zida ifoda etadi, jamiyat a'zolarini shu maqsad atrofida jipslashtiradi.

Asosiy maqsad tomoshabinlarni siz da'vat qilayotgan g'oyaga ishontirish va natijaga erishish. Ya'ni tomoshabin aqliga tayanib o'z xoxish irodasi orqali sport bilan shug'ullanishi, badan tarbiya qilishi hamda o'zi va oilasi sog'ligi haqida qayg'urishi lozim. Tashkilotchilar tadbirning ketma-ketlikdagi badiiy chiqishlari, teatrlashtirilgan tomoshalari, qo'shiqlaru raqslari, kutilmagan hayratlanarli voqealari orqali g'oyani targ'ib etish, kishilarni shu g'oyaning to'g'ri, hayotiy va ilg'or ekanligiga ishontirishni o'z oldiga maqsad qilib olish kerak.

---

<sup>14</sup> Миллий истиқдол ғояси: асосий тушунча ва тамойиллар. Т.: "Ўзбекистон", 2000. 4-бет.

Bularga ommaviy tarzda o'tkaziladigan bayramlar, tadbirlar, sport musobaqalari va o'yinlari orqali samarali erishishimiz mumkin. Omma har doim ham bir joyga yig'ilavermaydi. Qaysidir bayram yoki tadbir sabab to'plangan ommadan unumli foydalanib qolish lozim. Chunki bu bayram har tomonlama chuqur o'ylangan, badiiylashtirilgan, barcha san'at turlarining sintezidan tashkil topgan, tomoshabinga kuchli ham ma'naviy ham ruhiy ozuqa va ko'tarinki kayfiyat beradigan qolaversa motivatsiya ulashadigan joy hisoblanadi. Tomoshabin tadbir voqealarining ishtirokchisi hisoblanib, badiiylashtirilgan tomosha qahramonlarining yutug'iga xursand, g'am cheksa dardiga sherik bo'lib o'z hissiyotlarini yashira olishmaydi. Xuddi spektaklga o'xshab. Spektaklni televizor orqali tomosha qilsangiz qanday ta'sir qiladi, teatrga borib o'z ko'zingiz bilan ko'rsangiz qanday ta'sir qiladi? Shuning uchun ommaviy tadbirni ham televideniye orqali ko'rgandan, borib tomosha qilgan ikki hissa ta'siri foydali hisoblanadi.

Madaniy va sport tadbirlarining shakllari, aholi bilan ommaviy jismoniy tarbiya va sport tadbirlarida ilgari suriladigan g'oyalarning asosiy shakllari quyidagilardan iborat: Salomatlik va sport kunlari; "Quvnoq startlar" musobaqalari; sport kunlari; estafeta poygalari, ekologik marafonlar (masalan, chiqindi yig'ish); ommaviy oilaviy musobaqalar; turli idoralararo va korporativ musobaqalar; sport bayramlari; "arqon tortish o'yinlari", chempionatlar va boshqalar.

Ushbu dasturlar va olib borilayotgan islohotlar nafaqat odamlarni sog'lom turmush tarzi bilan tanishtirishga yordam beradi, balki ko'ngilochar funksiyani bajaradi va ishtirokchilarning yig'ilishiga hamda g'oyalarni singdirishga hissa qo'shadi. Har qanday madaniy va sport tadbiri puxta tayyorgarlikni talab qiladi. Siz e'tibor berishingiz kerak bo'lgan birinchi narsa - umumiy kayfiyat. Bu quvonchli, ijobiy, ko'tarinki bo'lishi kerak, ya'ni odamlar har qanday sport tadbiriga xuddi bayram kabi kelishlari kerak. Madaniy-sport tadbirlari, eng avvalo, millat salomatligini mustahkamlash, sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish, ishtirokchilarning harakatchanligini oshirishga qaratilgan bo'lishi kerak.

Dastur quyidagilarni o'z ichiga olishi mumkin: ochiq va yopiq binolardagi sport o'yinlari, "Bizning startlarimiz" dasturi bo'yicha musobaqalar, eng yaxshi yuguruvchi (qisqa va o'rta masofalar), jumper, otuvchi va boshqalar uchun ochiq musobaqalar, jismoniy tarbiya va sport

ko'ngilochar joylari, attraksionlar, yerdagi o'yinlar, muassasa saytida yig'ilish joyi bilan sayohatlar. Bunday bayramlar tantanali paradlar va ochilish va yopilish marosimlari, turli darajadagi mehmonlarni taklif qilish bilan tavsiflanadi. Tadbir mashhur sportchi xotirasiga yoki unutilmas sanaga bag'ishlangan tarixiy voqealarga to'g'ri kelishi mumkin, bu ham uni o'tkazish xususiyatlariga, dasturiga, o'yinlar, musobaqalar, viktorinalar, ommaviy chiqishlar mazmuniga ta'sir qiladi. Dastur musiqa, raqs yoki teatr tomoshalari bilan birlashtirilgan turli mashqlar va o'yinlarni o'z ichiga olishi mumkin. Dastur tuzilgandan so'ng uni amalga oshirish uchun batafsil senariy yoziladi.

Sport haftaligi, har qanday sport yoki faol yagona tadbir, yoki sport haftaligida yakunlanadigan va iloji boricha ko'proq talabalarni qamrab oladigan tadbirlar seriyasiga mos keladi.

Quyida siz sport haftaligi uchun g'oyalarni topasiz. Yangi qiziqarli g'oyalarni tadbirlarning umumiy ko'rinishida ham topish mumkin, bu erda siz boshqa maktablarning sport haftaligi tadbirlari rejalarini ko'rishingiz mumkin.

- Tadbirlar maktab sport kunlari, sayohatlar, seminarlar, taniqli sportchilar bilan uchrashuvlar va boshqalar bo'lishi mumkin.

- Shuningdek, sport haftaligini o'quvchilarga tanaffus vaqtida faol mashg'ulotlar taklif qilish, turli fanlar bo'yicha harakat va sportga e'tibor berish, qizdiruvchi mashqlar va kuchni tiklash uchun kun yoki hafta davomida har bir sinfda 2 daqiqalik tanaffus o'tkazish orqali nishonlashingiz mumkin (miya faolligi ilmiy jihatdan tasdiqlangan. 20-25 daqiqalik aqliy mehnatdan keyin sekinlashadi va qisqa tanaffuslarda qizdiruvchi konsentratsiyani yaxshilashga yordam beradi).

- Maktab sport haftaligi diplomiga loyiq bo'lgan eng faol sportchi va sinfni aniqlashi mumkin.

### **Ish beruvchilar**

Sport haftaligi tadbirlari, kompaniya xodimlarining ko'pchiligi ishtirok etadigan har qanday sport va faol tadbirlar uchun mos keladi. Shuningdek, xodimlarning oila a'zolari va ularning yaqinlarini jalb qilish imkoniyatini ham ko'rib chiqishingizni tavsiya qilamiz.

Quyida siz sport haftaligidagi tadbirlar uchun g'oyalarni topasiz. Moslashish, g'oyalarni takomillashtirish, yangi g'oyalarni ilgari surish har tomonlama mamnuniyat bilan qabul qilinadi.

Kampaniyaga qo'shilgan xodimlarni yutuqlarini tan olgan holda maqtash va namuna ko'rsatishni tavsiya qilamiz, ammo har qanday ichki faoliyat majburiy bo'lmasligi kerak. Har qanday insonga harakat zarur, foydali va farovonlikka ijobiy ta'sir ko'rsatishini mustaqil ravishda tushunishi shuningdek, tushuntirish kerak.

Uzoq muddatli va biroz raqobatbardosh harakatlar uchun biz muassasada jamoat stendidan foydalanishni tavsiya etamiz, u yerda xodimlar harakat normasini kim va qanday bajarganligi, kim ishtirok etishi va hokazolarni ko'rishlari mumkin.

### **Birgalikda faoliyat yuritish uchun g'oyalar:**

- Korporativ yurish kuni - tabiatga qo'shma sayohat (piyoda, velosipedda, kanoeda va boshqalarda).
- Tomoshabin sifatida sport musobaqalariga birgalikda tashrif buyurish.
- Jamoaning sport musobaqalarida ishtirok etishi (masalan, ba'zi havaskorlar sport musobaqalarida, orientirlash).
- Ichki sport musobaqalarini tashkil etish - jamoaviy yoki individual sport turlari bo'yicha.
- Korporativ sport musobaqalarida ishtirok etish - masalan, kuzgi sport musobaqasi.

### **Tematik kompaniyalar:**

- "Ishga va uyga velosipedda", "Ishga va uyga piyoda", "Lift yo'q - faqat zinapoyalar!"
- Faol tushlik tanaffusi - Har kuni tushlik tanaffusida xodimlar 30 daqiqa yurish, yugurish yoki velosipedda yurishadi.
- "Salomatlik kuni" - korxonada sog'liqni saqlash yoki o'qitish mavzusida oddiy tibbiy ko'riklar va maslahatlar o'tkazish.
- Step Counting Challenge - bu mobil ilovalar yordamida qadamlarni hisoblash kampaniyasi. G'olib uchun mukofot - hamkasblarning hurmati va ish beruvchining sovg'asi.
- "Axborotli ma'ruza/axborotli seminari" - kompaniyaga salomatlik, faol sevimli mashg'ulotlar, sport anjomlari yoki biron bir aniq sport turi haqida ma'ruza o'qiydigan, amaliy mashg'ulot o'tkazadigan va hokazolar bo'yicha mutaxassis taklif etiladi.
- Mnemoviktorina - bu sport, faol sevimli mashg'ulotlar va salomatlik haqidagi o'yin.

### **Sport haftaligi ajoyib imkoniyatdir:**

- yangi odamlarga sport intizomi haqida gapirib bering va ularni klubingizda mashg'ulotlarga jalb qiling;
- klub a'zolari, ularning do'stlari va yaqinlariga mashg'ulotlarda birgalikda qatnashish va zavqlanish imkoniyatini taklif qiling;
- bolalar va kattalar sog'lom, quvnoq va aqlli, jamiyat hayotiy bo'lishi uchun aholining rivojlanishi va salomatligiga ijobiy ta'sir ko'rsatadigan umumevropa va umumestoniya kampaniyasining a'zosi bo'lish.

### **Sport haftaligi qanday o'tkaziladi?**

Sport haftaligi turli media-kanallarda, jumladan, televidenie (yangiliklar, eshittirishlar), radio, tashqi reklama, ijtimoiy tarmoqlarda yoritib borilmoqda, shu sababli ma'lumotlar aholining keng doirasiga yetib boradi. Sport haftaligida ishtirok etish siz va sport klubingiz uchun taklif etilayotgan mashg'ulotlarga qiziqish uyg'otish uchun ajoyib imkoniyatdir.

### **Ochiq mashg'ulotlarni o'zimiz reklama qila olamizmi?**

Albatta! Misol uchun, siz o'z klubingiz a'zosi bo'lgan taniqli sportchi, jamoa a'zosi yoki murabbiyni reklama qilishingiz mumkin. Siz allaqachon klubingizga borgan bolalar, o'smirlar yoki yoshlar orqali xabar tarqatishingiz, Facebook tadbirini yaratishingiz (Sport haftaligi logotipidan foydalangan holda) va unga klub a'zolarini taklif qilishingiz, oilaviy sport kunini o'tkazishingiz va hokazo. Reklama uchun siz afishalardan, qisqa videolardan, ularni Facebook yoki Instagramda joylashtirish orqali foydalaning. Qancha mashqni ro'yxatdan o'tkazishim mumkin? Xohlaganingizcha!

### **2.2.6 Taqdirlash hamda final va yakuniy qismlar.**

O'zbekiston Respublikasi hududida o'tkaziladigan sport va ommaviy-jismoniy tarbiya tadbirlari g'oliblari va sovrindorlarini mukofotlash uchun esdalik sovg'alari, medallar va diplomlar normalari, so'mlarda (bazaviy hisoblash miqdorining belgilangan miqdoriga nisbatan koeffitsiyentlarda).

1. G'oliblarni mukofotlash uchun esdalik sovg'alari qiymatining quyidagi limitlari belgilanadi:

a) tuman, tumanlararo, shahar, shaharlararo sport musobaqalarini o'tkazishda:

1-o'rin uchun — bazaviy hisoblash miqdorining 3 baravarigacha;

2-o'rin uchun — bazaviy hisoblash miqdorining 2 baravarigacha;

3-o'rin uchun — bazaviy hisoblash miqdorining 1 baravarigacha;

b) mintaqaviy (Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyat, Toshkent shahri) sport musobaqalarini o'tkazishda:

1-o'rin uchun — bazaviy hisoblash miqdorining 5 baravarigacha;

2-o'rin uchun — bazaviy hisoblash miqdorining 4 baravarigacha;

3-o'rin uchun — bazaviy hisoblash miqdorining 3 baravarigacha;

v) o'smirlar va qizlar, sport faxriylari o'rtasida respublika va xalqaro (O'zbekiston hududida) sport musobaqalarini o'tkazishda:

1-o'rin uchun — bazaviy hisoblash miqdorining 7 baravarigacha;

2-o'rin uchun — bazaviy hisoblash miqdorining 5 baravarigacha;

3-o'rin uchun — bazaviy hisoblash miqdorining 3 baravarigacha;

g) o'spirinlar va katta yoshdagilar o'rtasida respublika va xalqaro (O'zbekiston hududida) sport musobaqalarini o'tkazishda:

1-o'rin uchun — bazaviy hisoblash miqdorining 9 baravarigacha;

2-o'rin uchun — bazaviy hisoblash miqdorining 6 baravarigacha;

3-o'rin uchun — bazaviy hisoblash miqdorining 4 baravarigacha.

2. Barcha darajalardagi sport musobaqalarida 1 va 3-o'rinlar g'oliblariga, esdalik sovg'alaridan tashqari, tegishli qiymatdagi medallar va diplomlar beriladi.

3. Ommaviy tusdagi sport va ommaviy jismoniy tarbiya tadbirlarida (festivallar, spartakiadalar, kompleks sport musobaqalari, nogironlar, aqlan zaif sportchilar o'rtasidagi sport musobaqalari, aholi, sport faxriylari o'rtasidagi sport tadbirlari va shu kabilarda) sport musobaqalari qatnashchilarining sportdagi faoliyatini rag'batlantirish maqsadida 1, 2, 3-o'rinlar uchun sovg'a mukofotlariga qo'shimcha ravishda, o'tkaziladigan sport tadbirlari yoki ommaviy jismoniy tarbiya tadbirlari to'g'risidagi tasdiqlangan nizomlarda (reglamentlarda) nazarda tutilgan nominatsiyalar bo'yicha alohida sovg'alar ta'sis etilishi mumkin.

4. Nominatsiyalar belgilangan bazaviy hisoblash miqdorining quyidagi miqdorlari qiymatiga ega bo'lgan sovg'alar tarzida ta'sis etiladi:

a) sport va ommaviy jismoniy tarbiya tadbirlarini tuman, tumanlararo, shahar, shaharlararo darajada o'tkazishda — bazaviy hisoblash miqdorining 2 baravarigacha;

b) mintaqaviy (viloyat, shahar (Toshkent shahri), viloyatlararo va Qoraqalpog'iston Respublikasi darajasida) o'tkazishda — bazaviy hisoblash miqdorining 3 baravarigacha;

v) respublika va xalqaro (O'zbekiston hududida) darajada o'tkazishda — bazaviy hisoblash miqdorining 4 baravarigacha miqdorda.

Tegishli sport tadbirining qatnashchilari, tashkilotchilari va homiylari ko'rsatib o'tilgan nominatsiyalar bo'yicha mukofotlar olishga talabgorlar bo'lishlari mumkin.

Sport va ommaviy-jismoniy tarbiya tadbirlarini o'tkazish hamda ular ishtirokchilarining moddiy ta'minoti normalarini belgilash tartibi to'g'risidagi nizomga ilova 4-jadval.

### **Sport va ommaviy-jismoniy tarbiya tadbirlari qatnashchilarini ta'minlashning qo'shimcha normalari**

1. Tegishli tashkilotlar tomonidan qatnashishga qo'yilgan sport musobaqalari va o'quv-trenirovka yig'inlari qatnashchilari bo'lgan sportchilarni zarur farmakologik tiklash vositalari, vitaminlar hamda oqsil-glyukoza preparatlari bilan ta'minlash xarajatlari normalari, belgilangan bazaviy hisoblash miqdoriga nisbatan protsent hisobida, quyidagi tartibda aniqlanadi:

4-jadval

<b>Tadbirlar</b>	<b>Bir nafar sportchini sutkalik ta'minlash xarajatlari normasi</b>
Bevosita respublika sport musobaqalariga tayyorlanish bo'yicha o'quv-trenirovka yig'inlari	10 foizgacha
Xalqaro sport musobaqalariga tayyorlanish bo'yicha o'quv-trenirovka yig'inlari	25 foizgacha
Respublika sport musobaqalari	10 foizgacha
Xalqaro sport musobaqalari	30 foizgacha

Farmakologik tiklash vositalari, vitaminlar hamda oqsil-glyukoza preparatlari bilan ta'minlash xarajatlari sport hamda ommaviy jismoniy tarbiya tadbirlarining kalendar rejasida nazarda tutilgan sport yoki ommaviy-jismoniy tarbiya tadbiriga ajratilgan mablag'lar doirasida amalga oshiriladi.

Sport tadbirlari va o'quv-trenirovka yig'inlari qatnashchilarini farmakologik tiklash vositalari, vitaminlar hamda oqsil-glyukoza preparatlari bilan ta'minlash uchun nazarda tutilgan umumiy summa alohida tadbirga xizmat ko'rsatadigan tibbiyot muassasalarining hisob raqamiga o'tkaziladi.

2. Sportning ot sporti turlari uchun quyidagi qo'shimcha ta'minlash shartlari belgilangan:

• sport otlarini oziqlantirish (kuniga 1 ot hisobiga) oziqlantirish normalari bo'yicha amalga oshiriladi:

xashak — 8 kg;

emlar — 7,5 kg (suli, kepak, bug'doy kepagi), sariq arpa, makkajo'xori doni, "Uspex" va "Krepish" premikslari, "Otkormochniy" omixta ozuqasi;

sabzi — 2 kg;

• ko'k massa (o't) — 1,5 kg;

tuz — 55 g.

Sport otlarini va qo'shimcha yuklarni musobaqalarga tashish, yo'lda va musobaqalarda oziqlantirish, yo'lda veterinariya xizmati ko'rsatish, shuningdek hamrohlik qiladigan shaxslarni sport musobaqalariga yuborish va ulardan olib kelish xarajatlarini ularni musobaqaga yuborgan sport tashkilotlari amalga oshiradilar.

Sport musobaqalarini o'tkazish davrida sport otlarini joylashtirish va ularga veterinariya xizmati ko'rsatish xarajatlarini sport tadbirini o'tkazadigan sport tashkiloti yoki uni o'tkazuvchi boshqa tashkilot amalga oshiradi.

Sport otlarini yo'lda va tadbirlarni o'tkazish davrida oziqlantirish hamda veterinariya xizmati ko'rsatish bo'yicha qo'shimcha yuklarni sport tadbirlariga tashish, shuningdek hamrohlik qiladigan shaxslarni xizmat safariga yuborish xarajatlari tomonlarning kelishuvi bo'yicha yoki tashkiliy qo'mita shartlariga muvofiq amalga oshiriladi.

### III BOB. SPORT TADBIRLARIDA MUSIQADAN FOYDALANISH MEXANIZMLARI

#### 3.1-§ Sport tadbirlarining tomoshaviyligini hamda ta'sirchanligini oshirishda musiqaning roli

##### *3.1.1 Sport tadbirlarida musiqadan foydalanish usullari*

Bugungi kunda butun yer sayyorasi bo'ylab inson zoti borki hech biri o'zini musiqasiz tasavvur qila olmaydi. Biz ushbu mavzu orqali aynan sport tadbirlarida foydalaniladigan yoki foydalanishi kerak bo'ladigan qo'shiqlar va musiqalar haqida qolaversa musiqalarni o'z o'rniga qo'yish hamda tanlay bilish va ularning ta'siri o'rni haqida to'xtalib o'tamiz.

##### **Xo'sh eng avvalo musiqa o'zi nima?**

Musiqa — inson hissiy kechinmalari, fikrlari, tasavvur doirasini musiqiy tovushlar izchilligi yoki majmui vositasida aks ettiruvchi san'at turi. Uning mazmuni o'zgaruvchan ruhiy holatlarni ifodalovchi muayyan musiqiy badiiy obrazlardan iborat. Musiqa insonning turli kayfiyatlari (masalan, ko'tarinkilik, shodlik, zavqlanish, mushohadalik, g'aminglik, xavf-qo'rquv va boshqalar)ni o'zida mujassamlashtiradi.

Bundan tashqari, musiqa – shaxsning irodaviy sifatleri (qat'iyatlik, intiluvchanlik, o'ychanlik, vazminlik va boshqalar)ni, uning tabiati (mijozi)ni ham yorqin aks ettiradi.

Musiqa 1896 yilgi Olimpiya o'yinlaridan beri sport tadbirlarida ishlatilib kelinadi. Qadimgi yunonlar festivallar, turnirlar va sport tadbirlarida musiqadan keng foydalanganliklari ma'lum. Musiqa bizning hissiyotlarimizga ta'sir qiladi, shuning uchun ham hayotimizning har bir jabhasida muhim ahamiyatga ega.

Sport - bu ko'ngil ochishning ajoyib usuli bo'lib turli xil odamlarni bir joyga to'playdi va musiqa yordamida ularning hayajonlarini, ehtiroslarini yanada ko'taradi. Yaxshi musiqa, yaxshi sport bayrami va yaxshi muxlislar sport tadbirlarida katta zavqlanishning asosiy kaliti hisoblanadi! Sportda musiqa haqida gap ketganda, uning asosiy maqsadi muxlislar va sportchilarni hayajonlantirishdir, ya'ni ularga bayramona kayfiyat, kuchli ehtiros va emotsional motivatsiya ulashishdir.

Sport tadbirlarining ochilish va yopilish marosimlari uchun maxsus musiqalar tanlash va ulardan foydalanish mutaxassislar uchun katta

mas'uliyat talab etadi. Bunda tanlanadigan musiqalar albatta tadbir ruhiga mos bo'lishi, ayniqsa, milliy kuy-qo'shiqlardan foydalanish muhim ahamiyatga ega.

Chunki, milliy musiqa va qo'shiqlarimiz sport tadbirlarimizning ta'sirchanligini oshirishi bilan bir qatorda aholiga, ayniqsa, yoshlarimizning madaniy saviyasini yuksaltirish, ularning milliy va umumbashariy madaniyatning eng yaxshi nodir durdonalaridan, namunalaridan bahramand etish, shu asosda ma'naviy yetuk, barkamol shaxslarni tarbiyalashga xizmat qiladi.

Ommaviy bayram va tomoshalarda musiqaning vazifalari quyidagilardan iborat:

- musiqa-qatnashuvchilar ishtirokchilar obrazlarini xarakterlaydi;
- harakat vaqti va joyini ifodalashi mumkin;
- tomoshabinga ko'rinmayotgan voqealarni ilg'ab olishga tez tushuna olishiga yordam beradi;
- monolog va dialoglarning emotsionalligini (tuyg'u, hayajon) kuchaytiradi;
- so'z bilan ifodalash qiyin bo'lgan daqiqalarni tasvirlay oladi;
- xatti - harakat, voqealarni to'ldirishi, boyitishi mumkin;
- pauzalar o'rnini to'ldirishi mumkin;
- vaqtni tejash yoki cho'zish va boshqa muhim vazifalarni bajarishi mumkin.

Musiqa hozirgi kunda davlat bayramlari, tadbirlari va spektakllarini boshqarishning eng muhim vositalaridan biri hisoblanadi.

Muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev 2020-yilning 27 iyun kuni Namangan viloyati faollari bilan o'tkazgan yig'ilishida ham musiqa haqida alohida to'xtalib quyidagi "Ashula eshitib bajarilgan ishda 10 baravar baraka bo'ladi" degan fikrni ta'kidlab o'tgan hamda shunday izohlagan. "Bu nima uchun kerak? Iqtisodiyotni tiklaymiz, lekin shuning barobarida madaniyatimizni tiklab bormasak, ertaga ma'naviy ozuqa bo'lmagan elda, xalqda, yoshda yutuq bo'lmaydi". **Sh.Mirziyoyev.**

Mutaxassis rejissyorlar tomonidan sahnalashtirilmagan sport tadbirlarida o'tkaziladigan kichik va katta hajmdagi ommaviy sport tadbirlarida tashkilotchilarning hamda ishtirokchilarning tadbirning mazmun mohiyatiga va g'oyasiga, uning bayramona kayfiyatini va jo'shqinligini namoyon qilishda, tadbirning ruhiyatini ochib berishga

xizmat qiladigan musiqalarni tanlay bilish mahorati, va tushunchaning yetishmayotganligi katta muammolardan biri ekanligi sabab bo'lmoqda.

Musiqqa yoki qo'shiqni o'z joyiga va o'rniga qo'ya olish, madaniyatini shakllantirish, bugungi kunda dolzarb mavzu bo'lib qolmoqda va yuqori darajadagi ommaviy sport tadbirlarini tayyorlash jarayonida ma'sul mutaxassislar e'tibor qaratishi lozim bo'lgan quyidagi takliflarni inobatga olishlari kerak.

1) Sportchilar uchun maxsus milliy ruh va kuch g'ayrat, shijoat hamda tetiklik beradigan musiqalarni yaratish.

2) O'zbek sporti va yo'nalishlari bo'yicha milliylikimiz aks etib turuvchi o'z madhiyalarini yaratish.

3) Aynan sport tadbirlarini tashkil etish kafedrasida tahsil olayotgan talabalarni Respublikamiz hududlarida yoki bizga yaqin bo'lgan hududlarda o'tkaziladigan sport tadbirlarini tashkiliy jarayonlariga jalb qilish.

Talabalarimiz nazariy bilimlarini amaliy tajribalar bilan birgalikda olib borib, mujassamlashtirsa maqsadga muvofiq bo'lar edi. Shunda muhtaram prezidentimizning qaror va farmonlariga hamda ommaviy sportni rivojlantirishdagi targ'ibot tadbirlariga o'z hissamizni samaraliroq qo'ngan bo'lar edik.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak jamiyatni va kelajak avlodni sog'lomlashtirish, ommaviy sportni targ'ib qilish hamda oldinda turgan xalqaro darajadagi sport tadbirlarida O'zbekiston sharafini ko'klarga ko'tarishimiz uchun yuqorida biz keltirib o'tgan fikrlar, muammolar hamda takliflar ustida to'g'ri oqilona yondoshib izlanishlar olib borish hamda bilim va ko'nikmalarga ega bo'lish lozim!

### **3.1.2 Sport tadbirlariga xos musiqalar va milliy qo'shiqlar.**

Hozirgacha davlat ahamiyatidagi qolaversa barcha Mustaqillik bayramlari, Navro'z umumxalq bayramlarida, ommaviy badiiy tomoshalar, har xil ko'rinishdagi sport tadbirlarida, keng qo'llaniladigan o'zbek milliy musiqalari hamda qo'shiqlaridan qo'ydagi san'atkorlarning kuy - qo'shiqlarini misol keltirishimiz mumkin.

**Farrux Zokirov** (Yalla guruhi) "O'zbekiston vatanim" qo'shig'i.

**Ozodbek Nazarbekov** Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasi madaniyat vaziri lavozimida faoliyat olib borayotgan xonandaning

**“Mendirman”** qo‘shig‘i buyuk ajdodlarimizga hurmat, g‘urur va iftixor, mustaqilligimizga shukronalik, mardlik, jasurlik ruhida yaratilgan bo‘lib, barcha tadbirlarda xususan: sport tadbirlarida, Navro‘z, Mustaqillik, 14-yanvar vatan himoyachilari kuni, 9-may Xotira va qadrlash kuniga bag‘shlangan va barcha vatanparvarlik shukuhini beradigan tadbirlarda, hamda harbiy namoyishlar va paradlarda keng qo‘lanilib kelinmoqda.

**Sulton Ali Rahmatov.** Bastakor Sulton ali Rahmatovning deyarli barcha musiqalari ommaviy bayramlarimizda, sport tadbirlarimizda keng qo‘llaniladi.

**Hosila Rahimova.** “Alpomish, To‘maris, Bos-bos, Kurash, O‘tov” qo‘shiqlari.

**Sevara Nazarxon.** “Ulug‘imsan vatanim” tadbirlar so‘ngida, sportchilarimiz taqdirlanayotgan paytda ko‘pincha ishlatiladi.

**Rashid Xoliqov** (Shaxzod guruhi) “Ey aziz yurtim” qo‘shig‘i.

**Jaxongir Poziljonov** (Bojalar guruhi) “O‘zbekiston, Chempion” qo‘shiqlari.

**Bundan tashqari:** chorlov, fanfar, madhiya, marsh musiqalari, har bir sport turi bo‘yicha madhiyalar, fonda tadbir boshlanishigacha uning ruhiyatini berib turuvchi maxsus musiqalar, badiiy qismda esa boshlovchilar uchun musiqalar, xonandalar, raqqosalar, bolalar chiqishlari uchun, sportchilar va teatrlashtirilgan tomoshalar, harbiylar chiqishlari hamda final uchun tadbirning ruhiyatidan g‘oyasidan mazmun mohiyatidan kelib chiqib musiqalar tanlanadi va ijro etiladi.

## IV BOB. OMMAVIY SPORT TADBIRLARIGA TAYYORGARLIK BOSQICHLARI

### 4.1-§ Ommaviy sport tadbirlarini o'tkazish bo'yicha ishlarni tashkil qilish.

#### 4.1.1 Ommaviy sport tadbirlarini o'tkazish tartibi.

Ushbu Nizom O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-martdagi PQ-3583-son "O'zbekiston Respublikasi Jismoniy tarbiya va sport vazirligini tashkil etish to'g'risida"gi qaroriga muvofiq umumiy o'rta ta'lim maktablari, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari o'quvchilaridan iborat sport jamoalari o'rtasida (sport turlari bo'yicha) ushbu muassasalar, tuman(shahar)lar, viloyatlar va respublika darajasida ommaviy sport tadbirlarini o'tkazish tartibini belgilaydi.

#### 1-bob. Umumiy qoidalar

1. Mazkur Nizomda quyidagi asosiy tushunchalardan foydalaniladi:

**ommaviy sport tadbirlari** — 100 va undan ko'p kishilarning ishtirokida sport musobaqalarini, o'quv-mashq jarayonini va sportchilar ishtirokida sport musobaqalariga tayyorgarlik ko'rish bo'yicha boshqa tadbirlar (xalq sayillari, festivallar, milliy namoyishlar va o'yinlar, ko'riktanlovlar, ko'rgazmali chiqishlar)ni o'tkazish maqsadida sport inshootlarida tashkil qilinadigan fuqarolarning birgalikda qatnashishlari;

**sport jamoalari** — ommaviy sport tadbirlarida qatnashayotgan umumiy o'rta ta'lim maktablari, akademik litsey va professional ta'lim muassasalari o'quvchilaridan iborat turli yosh guruhlariga tegishli sportchilar, trenyerlar, jismoniy tarbiya o'qituvchilari, tibbiyot mutaxassislari va boshqa mutaxassislardan iborat ommaviy sport tadbirlariga tayyorlanish va ularda O'zbekiston Respublikasining hududida qatnashish maqsadida tashkil etiladigan jamoalar;

**ommaviy sport tadbiri tashkilotchilari** — o'z tashabbusi bilan sport tadbiri o'tkazayotgan va (yoki) bunday tadbirni tayyorlash hamda o'tkazishni tashkiliy, moliyaviy va moddiy jihatdan ta'minlashni amalga oshirayotgan yuridik yoki jismoniy shaxs(lar);

**ommaviy sport tadbiri ishtirokchilari** — ommaviy sport tadbirlari tashkilotchilari, sport jamoalari, sportchilar va boshqa shaxslar, shuningdek tomoshabinlar;

**sport inshooti** — sport tadbirlari va ommaviy sport tadbirlarini, sport turlari bo'yicha o'quv-mashq mashg'ulotlari va o'quv-mashq yig'inlarini o'tkazish uchun mo'ljallangan, o'ziga qo'yiladigan norma va talablarga javob beradigan hamda tegishli pasportga ega bo'lgan yopiq yoki ochiq tipdagi ixtisoslashtirilgan inshoot.

2. Ommaviy sport tadbirlari O'zbekiston Respublikasi Jismoniy tarbiya va sport vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi (bundan buyon matnda tegishli vazirliklar deb yuritiladi) va ularning hududiy bo'linmalari tomonidan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014-yil 29-iyuldagi 205-son qarori bilan tasdiqlangan Ommaviy tadbirlarni o'tkazish talablariga muvofiq tegishli ruxsatnoma olinganidan so'ng boshqa manfaatdor tashkilotlar bilan hamkorlikda tashkil etiladi.

3. Ommaviy sport tadbirlari tegishli sport federatsiyalari (uyushmalari) tomonidan tasdiqlangan musobaqa qoidalariga asosan umumiy o'rta ta'lim maktablari, akademik litsey va professional ta'lim muassasalari o'quvchilari o'rtasida o'tkaziladi.

4. Ommaviy sport tadbirlari jarayonlari videotasvirga tushirilishi lozim.

5. Ommaviy sport tadbirlarini fototasvirga tushirish, audio va videoyozuvini amalga oshirish, shuningdek ommaviy axborot vositalarida translatsiya qilish qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

## **2-bob. Ommaviy sport tadbirlarida ishtirok etuvchi jamoalarga qo'yiladigan talablar**

6. Ommaviy sport tadbirida ishtirok etuvchi sport jamoalari hakamlar hay'atiga quyidagi hujjatlarni taqdim etishlari lozim:

mazkur Nizomning ilovasiga muvofiq shaklda sport jamoasi a'zolari to'g'risidagi ma'lumotlar aks ettirilgan talabnoma;

o'quvchining pasporti yoki tug'ilganlik haqidagi guvohnomasi nusxasi;

sug'urta polisi (ishtirokchining xohishiga ko'ra).

7. Ommaviy sport tadbirlarining keyingi bosqichlarida avvalgi bosqichlarda ishtirok etgan sport jamoalarining tarkibini o'zgartirishga yo'l qo'yilmaydi.

Ommaviy sport tadbirlarining keyingi bosqichiga yo'llanma olgan sport jamoasidagi o'quvchi sog'lig'i sababli keyingi bosqichlarda ishtirok etish imkoniyatiga ega emasligi to'g'risidagi tibbiyot muassasasining xulosasi hakamlar hay'atiga taqdim etilgan hollar bundan mustasno.

8. Ommaviy sport tadbirlarida ishtirok etuvchi sport jamoalari sport federatsiyalari (uyushmalari) tomonidan tasdiqlangan musobaqa qoidalariga, musobaqa o'tkazilayotgan vaqtda jamoat tartibi va intizomiga amal qilishlari lozim.

### **3-bob. Ommaviy sport tadbirlarini o'tkazish bo'yicha ishlarni tashkil qilish**

9. Ommaviy sport tadbirlarini o'tkazish bo'yicha butun tadbirlar kompleksini bajarish uchun tegishli vazirliklar hamda ularning hududiy bo'linmalari o'z buyruqlari bilan tashkiliy qo'mitalar, hakamlar hay'atlari, apellatsiya komissiyalarini tashkil etadi.

#### **10. Tashkiliy qo'mitalar:**

ommaviy sport tadbirlariga tayyorgarlik ko'rish hamda ularni o'tkazishda yagona uslubiy yondashuvni ta'minlaydi;

hakamlar hay'atlari, apellatsiya komissiyalari tarkibini shakllantiradi va tasdiqlaydi;

sport jamoalarining ommaviy sport tadbirlariga kelishi bilan bog'liq masalalarni hal qiladi;

ommaviy sport tadbirlarini fototasvirga tushirish, audio va videoyozuvini amalga oshirish, shuningdek ommaviy axborot vositalarida translatsiya qilinishi yuzasidan ishlarni tashkillashtiradi.

11. Ommaviy sport tadbirlarini o'tkazish uchun tegishli vazirliklar hamda ularning hududiy bo'linmalari tomonidan sport federatsiyalari bilan kelishilgan holda hakamlar hay'atlari tarkibi tasdiqlanadi.

12. Hakamlar hay'atlari sport federatsiyalari (uyushmalari) tomonidan tasdiqlangan musobaqa qoidalariga asosan g'oliblarni aniqlaydi va ommaviy sport tadbirlari yakunlarini bayonnoma bilan rasmiylashtiradi.

13. Musobaqa natijalaridan norozi bo'lgan sport jamoalari musobaqa natijalari e'lon qilingandan keyin 2 kun davomida tegishli vazirliklar hamda ularning hududiy bo'linmalari buyruqlari bilan tashkil etiladigan apellatsiya komissiyasiga yozma murojaat etish huquqiga ega.

14. Apellatsiya komissiyasi hakamlar hay'atlari tarkibida bo'lmagan kamida uchta mutaxassisdan iborat tarkibda tuziladi.

Apellatsiya shikoyatini ko'rib chiqishda sport jamoalari ishtirok etish huquqiga ega.

Apellatsiya komissiyasi 24 soat ichida apellatsiya shikoyatlarini ko'rib chiqadi. Bunda apellatsiya komissiyasi tomonidan sportchining musobaqadagi natijalari hakamlar hay'ati tomonidan to'g'ri qo'yilganligiga baho beriladi va uning natijasi bo'yicha tegishli qaror qabul qilinadi.

Qaror 24 soat ichida sport jamoasiga yetkazilishi lozim.

#### **4-bob. Ommaviy sport tadbirlarini o'tkazish**

15. Umumiy o'rta ta'lim maktablari o'quvchilari o'rtasida o'tkaziladigan ommaviy sport tadbirlari quyidagi to'rt bosqichda o'tkaziladi:

birinchi bosqich (ta'lim muassasasi bosqichi) — umumiy o'rta ta'lim maktablari o'quvchilari o'rtasida sport turlari bo'yicha o'tkaziladi;

ikkinchi bosqich (tuman (shahar) bosqichi) — tumanda (shahar) joylashgan barcha umumiy o'rta ta'lim maktablarining birinchi bosqich ommaviy sport tadbirlari g'oliblari o'rtasida o'tkaziladi;

uchinchi bosqich (Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar bosqichi) — ikkinchi bosqich ommaviy sport tadbirlari g'oliblari o'rtasida o'tkaziladi;

to'rtinchi bosqich (respublika bosqichi) — uchinchi bosqich ommaviy sport tadbirlari g'oliblari o'rtasida o'tkaziladi;

16. Akademik litsey, professional ta'lim muassasalari o'quvchilari o'rtasida o'tkaziladigan ommaviy sport tadbirlari quyidagi to'rt bosqichda o'tkaziladi:

birinchi bosqich (akademik litsey va professional ta'lim muassasasi bosqichi) — akademik litsey va professional ta'lim muassasalarining o'quvchilari o'rtasida o'tkaziladi;

ikkinchi bosqich (tuman (shahar) bosqichi) — tumanda joylashgan barcha akademik litsey va professional ta'lim muassasalarining birinchi bosqich ommaviy sport tadbirlari g'oliblari o'rtasida o'tkaziladi;

uchinchi bosqich (Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar bosqichi) — ikkinchi bosqich ommaviy sport tadbirlari g'oliblari o'rtasida o'tkaziladi;

to'rtinchi bosqich (respublika bosqichi) — uchinchi bosqich ommaviy sport tadbirlari g'oliblari o'rtasida o'tkaziladi.

**17.** Ommaviy sport tadbirlarining birinchi bosqichida umumiy o'rta ta'lim maktablari, akademik litsey yoki professional ta'lim muassasalarida ta'lim olayotgan barcha o'quvchilar ishtirok etish huquqiga ega.

**18.** Ommaviy sport tadbirlarining birinchi bosqichida ishtirok etish istagini bildirgan umumiy o'rta ta'lim maktablari, akademik litsey yoki professional ta'lim muassasalarida ta'lim olayotgan o'quvchilar o'zi tahsil olayotgan umumiy o'rta ta'lim maktabi, akademik litsey yoki professional ta'lim muassasasining jismoniy tarbiya o'qituvchisiga murojaat qiladi.

**19.** Umumiy o'rta ta'lim maktablari, akademik litsey yoki professional ta'lim muassasalarining jismoniy tarbiya o'qituvchilari ommaviy sport tadbirlarida qatnashish istagini bildirgan o'quvchilardan sport jamoalarini shakllantiradi.

**20.** Umumiy o'rta ta'lim maktablari, akademik litsey yoki professional ta'lim muassasalarida birinchi bosqichda g'oliblikni qo'lga kiritgan sport jamoalari keyingi bosqichga yo'llanma olishadi.

**21.** Ommaviy sport tadbirlarining g'oliblarini aniqlash va musobaqalarini yakunlash shartlari har bir ommaviy sport tadbirlarini o'tkazish bo'yicha tegishli vazirliklar tomonidan tasdiqlangan musobaqa nizomida belgilanadi.

Musobaqa nizomi sport federatsiyalari (uyushmalari) tomonidan tasdiqlangan musobaqa qoidalariga muvofiq bo'lishi lozim.

**22.** Ommaviy sport tadbirlarining g'oliblari tadbir tashkilotchilari tomonidan birinchi, ikkinchi va uchinchi darajali diplom, medal va kuboklar hamda esdalik sovg'alari bilan taqdirlanishlari mumkin.

Umumiy o'rta ta'lim maktablari, akademik litsey va professional ta'lim muassasalarida o'quvchilaridan iborat sport jamoalari o'rtasida (sport turlari bo'yicha) ushbu muassasalar, tuman(shahar)lar, viloyatlar va

respublika darajasida ommaviy sport tadbirlarini o'tkazish tartibi to'g'risidagi nizomga ILOVA

5-jadval

				<b>“TASDIQLAYMAN”</b> (F.I.O.) 20___yil “___”_____	
<b>Sport jamoasi a'zolari to'g'risidagi ma'lumotlar aks ettirilgan TALABNOMA</b>					
<b>T/ r</b>	<b>F.I.O</b>	<b>Tug'ilgan n yil, oy, kun</b>	<b>O'quvchi qatnashayotgan umumiy o'rta ta'lim maktabi, akademik litsey yoki professional ta'lim muassasasi nomi</b>	<b>Umumiy o'rta ta'lim maktabi, akademik litsey yoki professional ta'lim muassasasi shifokorinin g xulosasi</b>	<b>O'quvchinin g 3x4 sm o'lchamdagi fotosurati</b>
1.					
2.					
3.					
<b>Zaxira</b>					
1.					
2.					
<b>Sport jamoasi rahbari va trenerlar ro'yxati</b>					
1.					
2.					
Musobaqada ishtirok etuvchi o'quvchilar soni: _____					
Umumiy o'rta ta'lim maktabi, akademik litsey yoki professional ta'lim muassasasi shifokori: _____ (F.I.O., imzo)					
Jamoaa bosh treneri: _____ (F.I.O., imzo)					

### 5-bob. Yakuniy qoidalar

23. Ushbu Nizom talablari buzilishida aybdor bo'lgan shaxslar qonun hujjatlariga muvofiq javobgar bo'ladi.

24. Mazkur Nizom O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi hamda Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining Kasb-hunar ta'limi markazi bilan kelishilgan.

## 4.2-§ Senariy ommaviy bayram va tomoshalar dramaturgiyasining asosi.

### 4.2.1 Senariy haqida ma'lumot u qanday tuziladi?

Ommaviy bayram va tomoshalar dramaturgiyasining asosini senariy tashkil etadi. Senariy (italyancha «Scenario» — adabiy-dramatik asar degan ma'noni anglatadi) tadbir mazmunini adabiy tasvirlash bo'lib, bunda jiddiy ketma-ketlik asosida harakat elementlari bo'lmish mavzu va g'oya, bir bo'lakdan ikkinchisiga o'tish, bloklar, bezaklar, matnlar to'liq ko'rsatiladi.

Senariy muallifi senariy yaratish jarayonida, asosan mahalliy dalil, hujjat va tarixiy materiallarga asoslanib, ulardan to'g'ri foydalana olishi lozim. Muallif qo'llanilayotgan rasmiy hujjatlarni quruq chiqmasligi uchun shunday badiiy uslublarni topishi kerakki, bu badiiy uslublar, yorqin, hayajonga soluvchi, emotsional harakatdagi asarga aylanishi kerak. Muallif o'zi ishlatayotgan tarixiy-hujjatli materialni yaxshi bilishi, o'zi tasvirlayotgan davrning tarixchisiga aylanishi kerak. Bitta hujjat kontekstda turlicha ta'sir qilishi mumkin.

Bizga ma'lumki, tarixiy dalil hech qachon qaytarilmaydi va uni boshqatdan vujudga keltirib bo'lmaydi. Shuning uchun u hech bir asarda gavalana olmaydi.

Hujjat esa- bu dalil haqidagi guvohlikdir. U real mavjud bo'lib, uni bemalol ishlatish mumkin. Bundan tashqari, bo'lib o'tgan hodisalar haqidagi yozma guvohliklar, bayonnoma, stenogramma, nikoh haqidagi guvohnoma va h.k.lar dalil sifatida ishlatilishi mumkin. Yo bo'lmasa fotosuratlar, kinokadrlar «tasviriy» dalil sifatida qo'llaniladi.

Ommaviy bayram va tomoshalar senariysini yaratish jarayonida, albatta mavzu va g'oyani aniqlab olish lozim. Ko'pincha bularning ikkisini aralastirib yuboradilar. Turli g'oyaviy pozitsiyadan, ushbu mavzuda o'z g'oyalarini ochib beradilar. Badiiy sport tomoshalarini o'tkazishda mukammal yozilgan senariy kerak bo'ladi. Maydonni, ya'ni tadbir o'tadigan joyga mazmun berish mazkur tadbiming amalga oshirishning eng qiyin shartlaridandir. Senariy, montaj varaqasi, dasturlar asosida ish olib boriladi. Sport va san'at - bu mamlakatni boshqa yurtlarga tanishtiruvchi vosita, elchi hisoblanadi. Shuning uchun ham davlatimiz siyosatida sport va san'atni rivojlantirishga qaratilgan bir qancha qaror va

farmonlar, farmoyishlariga guvoh bo'lamiz. «Sog' tanda sog'lom aql» deganlaridek, jamiyat uchun ham sog'lom insonlar zarurdir. Badiiy sport tomoshalarini yaratishda ssenarist rejissor va sportchi-murabbiy bilan maslahatlashgan holda ularning xatti-harakatlarini qog'ozga tushirishga harakat qiladi. Bunday tadbirlar asosan, musobaqa shaklida o'tkaziladi. Unga teatrlashtirish usullarini qo'llash esa tadbiming badiiy jihatlarini yanada kuchaytirishga, faollashtirishga sabab bo'ladi va natijada tomoshabin o'zi kutmagan rohatbaxsh manzaralarga duch keladi, tomoshaga nisbatan faolligi oshib boradi.

Badiiy sport tadbirlarini ikki yoki uch bosqichda, ya'ni ikki yoki uch kun uyushtirish mumkin. Birinchi va ikkinchi kunlari g'oliblar aniqlanib, uchinchi kun esa final o'yinlari o'tkazilishi mumkin. Misol tariqasida boks o'yinlariga bag'ishlangan shou dasturini oladigan bo'lsak, uning quyidagi tartibda o'tkazish, ya'ni senariyning kompozitsion tuzilishini quyidagicha belgilash mumkin:

**a) Prolog** - final ishtirokchilari bo'lmish sportchilarni sahnaga turli ta'riflar bilan taklif qilinishi.

**b) Epizodlar qatori** - 1,2,3,4 raundlar va ular orasidagi badiiy qism.

**v) Kulminatsiya** - oxirida qolgan eng kuchli jangchilarning chiqishi.

**g) Final** - g'oliblarni aniqlash va taqdirlash.

Shunday qilib senariy yozish ketma-ketligini pedagog hamda rejissyor F.Axmedov quyidagicha tuzadi:<sup>15</sup>

**Asarning goyasi** — bu muallifning jamiyat hayotini (yaxshilash) o'zgartirish, asarning nima sababdan yozilgani borasidagi faol fikridir. Bu bizning nima uchun kurashga chorlashimizdir.

**Mavzu** — bu ssenaristning nima haqida hikoya qilmoqchiligi, tadbirda yoritiladigan hayotiy ko'rinishlardir.

Bayram yoki tomoshaning g'oyasi badiiy va hujjatli materiallarni tanlashda asos bo'ladi. G'oya faqatgina bayram yoki tomoshaning oxirida (finalda) yechilib, tomoshabinga mulohaza uchun ozuqa berishi lozim.

**Syujet** - bu harakat davomida voqealarning rivojlanish zan-jiridir. Syujet har qanday teatrlashtirilgan tomoshada qarama-qarshiliksiz rivojlanmaydi.

---

<sup>15</sup> F. Ahmedov. Ommaviy tadbir va bayramlar rejissurasi va aktyorlik mahorati. Cho'pon Toshkent-2007.

**Fabula** — asar mazmunida harakatning asosiy momentlarini tasvirlashdir. Boshqacha qilib aytganda, fabula bu umumlashtirilgan syujet, syujet esa, konkretlashtirilgan (aniqlashtirilgan) fabuladir.

**Kompozitsiya** — bu dramaturgiya qonuniyatlariga asoslangan holda, bayram yoki tomoshaning barcha komponentlarini bir butuncha jamlab, harakatni tashkil etishdir. Teatrlashtirilgan bayram va tomoshalarining kompozitsion tuzilishi — prolog, asosiy harakatdagi tugun, kulminatsiya va final (yechim)dan tashkil topadi.

**Prolog** — bu tadbirning asosiy g'oyasini umumlashma tarzida tasvirlashdir.

**Tugun** — bu harakatning boshlanishi bo'lib, tomoshabin fikri va his-tuyg'ularining asosiy, birinchi darajali voqeasidir.

**Asosiy harakat** — bu syujetning, qarama-qarshilikning rivojlanishi bo'lib, kurash jarayoni, to'qnashuvlar va to'siqlarni yengib o'tishni tasvirlashdir. Aynan mana shu yerda ziddiyatlar rivoji juda ham muhimdir.

**Kulminatsiya** — bu harakat rivojining eng yuqori nuqtasi va eng yuqori keskinligidir. U albatta yechimga olib boradi.

**Final** — (ko'pincha uni yechim deb, ba'zida epilog deb ham ataydilar) bu bayram yoki tomoshaning tugallanishidir.

Senariyda kompozitsiyaning ushbu komponentlari to'liq ishtirok etgandagina to'liq badiiy asar tusini oladi.

Ommaviy teatrlashtirilgan tomoshalar senariysida harakatning uzviyligiga bo'layotgan voqealarni qayd etish bilangina emas, balki eng muhim masalalar g'oya va mavzudan kelib chiqib, erishiladi. O'ylamasdan ulangan elementlar orqali tomoshabinga hech narsa bera olmaydigan tartibsizlik kelib chiqadi.

Ommaviy bayram va tomoshalar elementlarining kompleksliyligi va ko'p tomonliligi uning senariysining o'ziga xos xususiyatidir.

Ommaviy teatrlashtirilgan tomoshalar senariysida so'z kam ishlatilib, personajlar o'rtasidagi sababiy-oqibatli aloqalar, psixologik ta'sirchan vositalar singari komponentlar bilan almashtiriladi. Boshqacha qilib aytganda, tomoshaning ichki obrazi (uning g'oyasi, oliy maqsadi va o'ziga xos ritmi)ni tashqi shakldagi materiallar orqali tasvirlash, ommaviy teatrlashtirilgan

O'zbekistonda badiiy sport tadbirlarini tashkil etish bo'yicha bir qancha tadbirlarni sanab o'tish mumkin. Sport va san'at sohalari mamlakatimizni dunyoga tarannum qiluvchi o'ta katta qudratli vositalardan biri ekanligi hammamizga ma'lum.

Badiiy sport tadbirlirini tashkil etishdan maqsad –sog'lom turmush tarzini, insonlar salomatligi, ularning ham ma'nan ham jismonan yetuk bo'lishlari, bir so'z bilan aytganda - insonlarning bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazish, ularga ma'nan hamda jismonan madad bo'lish,

San'at noziklikni, mayinlikni, jozibadorlikni, sport esa qat'iyatni, jismoniy baquvvatlilikni, qattiqqo'llikni talab qiladi. Tashqaridan qaraganda bu ikki hodisani bir-biriga bog'lash mumkin emasday tuyuladi.

Bunday muvaffaqiyatli uyg'unlikka faqat teatrlashtirish usullari orqali erishish mumkin.

Teatrlashtirish yuqorida qayd etib o'tganimizdek, dramaturgiya qonuniyatlariga asoslanish, tadbirni ma'lum bir spektakl shakliga keltirishdir. Sportchi sahnaga chiqqach, o'zini faqat bokschi emas, balki aktyor deb hisoblashi lozim. Buning uchun rejissordan katta ma'suliyat talab qilinadiki, tadbir haqiqiy sport o'yini emas, badiylashtirilgan sport tomoshasiga aylantirilishi lozim. Mana shu maqsadlarning barchasi badiiy sport tomoshalari senariysida o'z ifodasini topmog'i kerak. Teatrlashtirilgan sport tomoshalariga ko'plab misollar keltirish mumkin. **2012 – yil** Buyuk Britaniya poytaxti **London** shahrida o'tkazilgan XXX yozgi Olimpiada o'yinlarining ochilish qismidagi teatrlashtirish usullarining yuksak mahorat bilan qo'llanganligi bunga misol bo'la oladi. Har qanday sport tadbiri tomoshalarini tashkil etishda rejissor va ssenarist o'z oldiga oliy maqsadni qo'yadi. Ya'ni, bunday tadbirlar tomoshalar-ning bir-biriga beg'araz, nafrat ko'zi bilan qarashiga yo'l qo'ymasliklari, bir-birlariga nisbatan dushmanga aylanib qolmasliklari, bir-birlarini raqib sifatida emas, do'st, aka-uka sifatida qabul qilishga, mag'lubiyatni tan olib, yanada ko'proq mehnat qilishlarini tushunib olishlari va eng asosiysi bir-birlariga hurmat nuqtai nazarida munosabatda bo'lishlariga erishish lozim.

#### **4.2.2 Senariy turlari**

Senariy tabiati bo'yicha bir qancha turlarga bo'linadi:

##### **1. Kino senariy:**

- a) badiiy filmlar senariysi;
- b) hujjatli filmlar senariysi;
- d) jilmiy-ommabop filmlar senariysi;
- e) qo'g'irchoq va multfilmlar senariysi.

## **2. Televizion senariylar:**

- a) adabiy-badiiy ko'rsatuvlar senariysi;
- b) publitsistik-axborot ko'rsatuvlar senariysi;
- d) ma'naviy-ma'rifiy ko'rsatuvlar senariysi;
- e) ijtimoiy-siyosiy ko'rsatuvlar senariysi;
- f) o'yin-ko'ngil ochar ko'rsatuvlar senariysi;
- g) televizion filmlar senariysi;
- h) musiqiy ko'rsatuvlar senariysi va h.k.

## **3. Radioeshittirishlar senariysi:**

- a) ijtimoiy-siyosiy eshittirishlar senariysi,;
- b) adabiy-badiiy eshittirishlar senariysi;
- d) publitsistik-axborot eshittirishlari senariysi;
- e) musiqiy eshittirishlar senariysi;
- f) ma'naviy-ma'rifiy eshittirishlar senariysi;
- g) O'yin-ko'ngil ochar eshittirishlar senariysi.

## **4. Sirk tomoshalari senariysi.**

## **5. Ommaviy bayram va tomoshalar senariysi.**

Ommaviy bayram va tomoshalar senariysi - sintetik asardir. Unda dramaturgiyaning elementlari bo'lib, ko'proq epik xarakterdagi (ba'zida lirik-epik) asarlarga yaqinlashib, ko'proq u yoki bu mashtablilikni, ijtimoiy hodisalarni aks ettiradi. Uning «qahramonlar»i bir-biri bilan kurashmay balki, ijtimoiy davr ziddiyatining u yoki bu tomonida, yoki umumxalq ishining katta yoki kichik uchastkasida faoliyat ko'rsatadilar.

Ommaviy bayram va tomoshalar qahramonlarning mashtabi juda ham kengdir. «Har bir senariyning badiiy darajasi, umumiy dramaturgiyada bo'lganidek, epizodlarning dramaturgik tugallanganligi, kartinaning obrazli yakunlanganligi, tomoshabinga ta'sir etuvchi emotsional kuchlarning boshidan oxirigacha rivoji, dramaturgiya talablariga javob bera olishi bilan belgilanadi.

Shunday bo'lishiga qaramay, ommaviy bayram va tomoshalar senariysi, teatr uchun yozilgan pyesadan, badiiy filmga yozilgan senariydan farq qiladi. Undagi publitsistik vazifalar ahamiyatli, ijtimoiy hodisalar aniq qahramonlarning shaxsiy qarama-qarshiliklari orqali

emas, balki ijtimoiy ziddiyatlarni epik prinsipi bo'yicha, yaxlit namoyish etiladi»<sup>16</sup>.

Ommaviy bayram va tomoshalar senariysi tomoshabinga emotsional ta'sir qilish borasida keng imkoniyatlarga ega.

Bunday senariy muallifi, tomoshabinlarga berilgan tarixiy faktlarga bo'lgan munosabatiga suyanishi mumkin.

Senariy muallifi unga dramaturgik asarlardan parchalar kiritishi yoki aniq qahramonlarning aniq to'qnashuvlarini ko'rsatuvchi u yoki bu dramaturgik xarakteriga ega bo'lgan epizodlarni o'zi yozishi mumkin. Lekin bu senariyga san'atning boshqa turlaridan - musiqali kartinka, plastik-sport chiqishlari, kino- va videokadrlar, badiiy o'qish kabilarni qo'shish mumkinligini e'tiborga olish lozim. Albatta, senariyda qanchalik ko'p badiiy vositalar qo'llanilsa, u shunchalik murakkablashadi, lekin senariyning g'oyaviy-badiiy yaxlitligini vujudga keltirish oson bo'ladi. Shuning uchun senariy dramaturgiyasi, ya'ni uning kompozitsion qurilishi katta ahamiyatga egadir.

Ommaviy bayram va tomoshalar senariysi tomoshabinga ko'p tomonlama emotsional ta'sir qilishi bilan birga tomoshabinlarni bayramning faol ishtirokchisiga aylantirib, tomoshabinni, qahramonlar o'rtasidagi u yoki bu qarama-qarshiliklarga bo'lgan munosabatlari, kechinmalarida birga bo'lishni talab qilmaydi. Shuning uchun ommaviy bayram va tomoshalar senariysida doimo qarama-qarshilikning bo'lishi talab qilinmaydi. Masalan, «Navro'z», «Mehrjon», «Birinchi qadam» bayramlari, xalq sayllari. Bunday bayram va sayllarda, umuman, qarama-qarshilik o'masligi mumkin.

---

<sup>16</sup> V.Rustamov. Ssenariynavislik mahorati. T.:«Barkamol fayz media», 2017.

## V BOB. OMMAVIY SPORT TADBIRLARIDA TA'SIRCHAN-VOSITALAR HAMDA SAN'ATLAR SINTEZI

### 5.1-§ Ommaviy badiiy sport tomoshalarida “fon” hamda “badiiy fon” (jonli ekran)

#### 5.1.1 Ommaviy badiiy sport bayramlari foni

Fon—ommaviy badiiy-sport bayramlarida yordamchi vazifani o'tovchi guruhdir. Fon faqatgina ommaviy badiiy sport bayramlaridagina emas, balki ommaviy bayram va tomoshalarining boshqa janrlarida ham keng qo'llaniladi. Lekin ko'pchilik «fon» bilan «badiiy fon»ni yanglishtiradi. Bizga tarixdan ma'lumki, fon va badiiy fon birinchi bo'lib jismoniy tarbiya va sport bayramlarida ishlatila boshlangan. Keyingi paragrafda badiiy fonga batafsil to'xtalib o'tamiz. Yuqorida aytib o'tganimizdek, fon ommaviy sport bayramlarida faqatgina yordamchi vazifani o'tabgina qolmay, maydonda bo'lib o'tayotgan voqea va harakatlarni to'ldirib, rang-baranglik kaloritini oshirib, harakatni jonlantiradi. Eng asosiysi, rejissyorning g'oyasini ochib berishga, tomosha kompozitsiyasidagi nomer va epizodlarni, saflanish va qayta saflanishlarni boyilib, montajga yordam beradi.

Tomoshaning badiiy obrazini yanada yorqinroq namoyish etishga, emotsional ta'sirni kuchaytirishga zamin yaratadi. Ayniqsa guruhlar nomer va epizodlarining joy almashuvidagi ochiq montajni amalga oshirishda faol ishtirok etadi.

Fon guruhining alohida rejissyori, baletmeysteri bo'lib, senariy bo'yicha har bir blokda tasvirlarga alohida harakat tasvirlari ishlab chiqiladi. Fon guruhida rejissyorning ko'rsatmasidan, maydonning masshtabidan kelab chiqqan holda 500 dan 2000 gacha ishtirokchilar qatnashishi mumkin. Asosan fon guruhi bayram yoki tomoshaning boshidan oxirigacha maydonda harakat qiladi.

Ko'pincha fon guruhi tomoshaning prologi va epilogida faol harakat qilib, tomoshani ochib berib, tugatadilar. Albatta fon guruhi qatnashchilari tomoshaning mavzusidan kelib chiqib, turli kostyumlarga kiyintiriladi. Ular bir xil kostyumda tomoshaning boshidan oxirigacha harakat qilishlari yoki turli kiyingan guruhlarining navbat bilan almashish yo'li bilan harakatlanishlari mumkin.

Bu guruh ishtirokchilari turli predmetlar: rangli tasmalar, rangli ro'mollar, to'p, soyabon, bayroqchalar, sharlar, gullar va h.k. ishlatishlari mumkin. Ba'zan rejissyor ko'rsatmasiga binoan bir nechta predmetni almashtirib ishlatishlari mumkin.

Asosan stadionlarda o'tkaziladigan ommaviy sport bayramlarida fon guruhi maydondagi ikkita darvozadan shartli sahna maydoni deb qabul qilingan maydon markazigacha bo'lgan oraliqning ikki tomonida joylashadi. Fon joylashadigan maydon oralig'iga fon rejissyori oldindan har bir metrni o'lchab, har bir ishtirokchi harakatlanadigan joyni maxsus belgi bilan belgilab chiqadi.

Fon guruhida ishtirok etish ham eng murakkab ishlardan biri bo'lib, tomoshaning boshidan oxirigacha chiqadigan bloklarni, ularning har biriga qo'yilgan harakatlarni eslab qolishi hamda shu bilan birga, barcha ishtirokchilar qo'llaridagi predmetlari yordamida sinxron harakat qila olishlari lozim. Harakatdagi sinxronlik ko'rsatilayotgan tasvirning aniq chiqishiga, almashishlarning chiroyli chiqishiga bevosita ta'sir qiladi. Maydonda tomoshabinga ishtirokchining har bir noo'rin, noto'g'ri harakati tomoshabinga kaftda turgandek ko'rinib turadi. Hatto bir kishining noto'g'ri harakati butun tasvirni buzib yuborishi mumkin.

Fon guruhining harakati tomoshaning umumiy tempo-ritmi bilan bir xil ravishda rivojlanishi kerak. Ularning harakatlari umumiy tempordan ortda qolsa yoki tezlashib ketsa, umumiy tasvir buziladi.

Tomosha davomida kompozitsion rivojlanish bo'yicha fon guruhining mizanssenalari o'zgarib boradi. Harakat davomida ular joylarini almashishlari, doiraviy, yarim doiraviy, frontal, parallel, shaxmatli mizanssenalarda joylashib harakat qilishlari mumkin. Bunday ko'chishlar, o'zgarishlar rejissyor va ishtirokchilardan diqqat bilan harakat qilishni talab qiladi. Ishtirokchilar oddiy yurish yoki yugurish bilan emas, balki rejissyor, baletmeyster ko'rsatmalari asosida plastik harakat qilishlari talab qilinadi. Bunday almashishlarda barcha ishtirokchilar, albatta, birbirlarini sezishlari, birga harakat qilishlari juda ham zarurdir.

Fon guruhi faqatgina shakllarnigina emas, balki maydondagi voqealarga hamohang ravishda, butun maydon kengligi bo'yicha kerakli raqamlar (masalan, 1991-yil, mustaqillikka erishgan yilimiz), yoki bo'lmasa (ozodlik, tinchlik va h.k.) so'zlarni, maxsus predmetlar yordamida (rangli tasmalar, ro'mollar va sh.k.) yozishlari mumkin.

Yaqin o'n yillikda jahonda bo'lib o'tgan eng nufuzli sport bayrami bo'lmish «Olimpiada»ni tahlil qilib ko'rsak, fon guruhining naqadar katta ish bajarganining guvohi bo'lamiz. Masalan, 2000-yilgi Sidney Olimpiadasining rang-barang ochilishini guvohi bo'ldik. Bu tomoshada fon guruhi ko'p ming kishilik ishtirokchilar ommasidan tashkil topgan bo'lib, ular turli kiyimlarda tez-tez almashib, Avstraliya tabiatini ko'rsatishga harakat qildilar. Meyrxold biomexanikasi va konstruktivizmi uslubida sahnalashtirilgan tasvirlarda fon faol ishtirok etib, keng masshtabda harakat qildi. 2004-yil Afinada bo'lib o'tgan Olimpiada o'yinlarining ochilishi esa Dionis bayramlari an'alarida namoyish etildi. Yunon miflari, xudolar va sh.k. plastik yo'nalishda hal etildi. Bu yerda ham fon guruhi asosiy harakat qiluvchi omma bo'lib, harakatlanayotgan platformada Yunoniston tarixini, mif qahramonlari obrazlarini ko'rsatishda faol ishtirok etdi.

Respublikamizda o'tkazilayotgan bayramlarda fon guruhi bilan ko'p yillardan beri baletmeyster Marat Hasanov ishlab kelmoqda. 2005-yil Chirchiq shahrida o'tkazilgan «Umid nihollari» badiiy-sport bayramida (rejissyor Rustam Shamsiddinov) fon guruhi faol ishtirok etdi, ayniqsa, tomosha finalida butun stadion maydoni bo'yicha O'zbekiston bayrog'ining (maydon kattaligidagi mato) yoyilishida fon guruhining xizmati katta.

Xullas, fon ham o'ziga xos ta'sirchan vosita bo'lib, bayram tomoshalarining ajralmas bo'lagi hisoblanadi.

### **5.1.2 Fon guruhi bilan ishlash usullari.**

Fondagi tasvirlarni yaratish uslubi qanday? Ayniqsa, harakatlanuvchi tasvirlar qanday yaratiladi? Bundan tashqari, ko'p ming sonli qatnashuvchilarning sinxron harakatini qanday tashkil qilish mumkin? Mana shunday va shu kabi savollar tug'iladi. Badiiy fonda tasvirlar asosan mozaika uslubi yordamida yaratiladi. Tasavvur qiling, tribunada o'tirgan qatnashchilarning qo'lida bir xil predmet (masalan, turli rangdagi planshetlar, sharlar, ko'zgular to'plami) bo'lib, belgilangan dastur bo'yicha rejissyorning ko'rsatmasi orqali harakat qilib, turli tasvir ornament, ramzlar vujudga keladi. Tasvirlarni vujudga keltirish uchun har bir tasvir raqamlanadi. Rejissyor buyrug'i orqali quyidagi raqamdagi planshetni qatnashchilar ochishlari bilan fonda tasvir paydo bo'ladi.

Badiiy fonda mozaik tasvirni yaratish uchun quyidagilarning bo'lishi shart. — tasvirni yaratish uchun kerakli predmet; — har bir ishtirokchi uchun harakat dasturi; — fonni boshqarish sistemasi. Mozaikaning elementi bo'lgan predmet, o'z razmeri bo'yicha tasvir yaratilayotganda qatnashchini berkitishi bilan bir qatorda tasvirlarning o'zgarish jarayonida yengil va erkin boshqarila olish lozim.

Amaliyot shuni ko'rsatdiki, bunday talablarga 50x50 sm yoki 60x60 sm kattalikdagi ikki uchiga tayoq qoqilgan mato bo'lagi to'liq javob bera oladi. Bu predmet fon bayroqchasi deb atala boshlandi. Bunday bayroqchani har biri turli rangdagi matolardan qilingan bo'lib, uning ikki tomoni turli rangda bo'ladi. Ko'pincha quyidagi ranglar kelishuvidagi qizil-sariq, qizil-oq, oq-havorang, havorang-qizil, moviy-yashil ishlatiladi.

Qatnashchilarning qo'lida necha turdagi bayroqcha bo'lishi senariyda ko'rsatilgan tasvirlarga bog'liq bo'ladi. Ikki rangdagi bayroqchalar bayramda ishlatiladigan barcha tasvirlarda qo'llaniladi, shuning uchun barcha qatnashchilarga shunday bayroqchalar beriladi. Agar rangni barcha tasvirlarga ishlatilmay, bir-ikkita tasvirda alohida detallarnigina ajratib ko'rsatishsa ishlatilsa, u holda ikkala tomonga bir xil rangdagi bayroqcha qo'llaniladi. Bunday bayroqchalar barcha qatnashchilarga berilmay, balki u yoki bu tasvirni yaratishga qatnashadigan ba'zi ishtirokchilarga beriladi.

Fon bayroqchasi — fon uchun juda ham qulay predmetdir. U ishlatishga oson bo'lib, yoyilganda kam joyni egallab, fon qatnashchisini yaxshi berkitib, toza tasvirlarni vujudga keltirishga, juda katta rang koloriyasi va sahnalashtirish imkoniyatlarini yaratishga yordam beradi (bu bayroqchalar shoyi matodan bo'lib, 9 xil rangda bo'ladi). Ba'zan esa badiiy fonda, bayroqchalar o'rniga rangli bosh kiyimlar, qog'ozdan qilingan yelpig'ichlar, ko'zgu, fonlar ishlatilishi mumkin. Bu predmetlarning qo'llanilishi fonning imkoniyatlarini yanada oshirib, kengaytiradi. 1983-yil Toshkentning 2000-yillik bayramida ishlatilgan badiiy fon bunga misol bo'la oladi (badiiy fon bosh rejissyori L.Nemchik, badiiy fon bosh rassomi V.Sokolov). Bu bayram bayroqchalardan tashqari turli rangdagi bosh kiyim va ko'zgularning qo'llanilishi badiiy fon ta'sirchanligini yanada oshiradi.

Ko'pincha mozaik tasvirlarni vujudga keltirishda qatnashchilarning kostyumlari ishlatiladi. Bu kostyumlar asosan ikki xil rangda bo'ladi (ko'k

rang tomoni bir rangda boisa, orqa tomoni boshqa rangda boadi). Fon ishtirokchilarining burilishlari natijasida fondagi tasvirlar va ranglar o'zgaradi. Lekin qanday predm etlar ishlatilishiga qaramay, badiiy fonda ishlatiladigan asosiy predmet—fon bayroqchasidir.

### 5.1.3 Badiiy fon jonli ekran sifatida

Badiiy fon ommaviy sport bayramlarining ajralmas qismi bo'lib, u "jonli ekran" deb ham ataladi.

Xo'sh, "badiiy fon"ning o'zi nima? Badiiy fon stadion tribunalarida o'tirgan 6-7 ming kishidan tashkil topgan bo'lib, ularga berilgan turli rangdagi planshetlarni rejissyor buyrug'i asosida ochib, turli ranglar jilosi yoki tasvirlarni vujudga keltiradigan fondir. Badiiy fon maydonda bo'layotgan voqealarning ta'sirchanligini, emotsional ta'sirini, tomoshaviyligini oshirishga, boyitishga, bir chiziqni biri bilan g'oyaviy bog'lashga yordam beruvchi vositadir.

Badiiy fon birinchi marotaba 1946-yil sobiq Sovet Ittifoqida Moskvaning Dinamo stadionida butun ittifoq fizkulturachilar paradida ishlatilgan edi. Unda 7000 kishi ishtirok etib, fonda kitobning ochilayotgan varaqlari turli ranglar jilosida namoyish etiladi. Bu narsa u davr uchun yangilik bo'lib, turli ranglar bayram koloritini yanada oshirib, katta muvaffaqiyat qozondi. Badiiy fon yillar o'tishi bilan rivojlanib, ta'sirchan vosita sifatida uning yangi qirralari, imkoniyatlari shakllandi.

Hozirgi kunda o'tkazilayotgan yirik sport-bayram va tomoshalarini badiiy fonsiz tasavvur qilish qiyin. Shuning uchun bugungi kunda bu vosita «badiiy fon» yoki «jonli ekran» deb ataladi. Zamonaviy bayramlarda badiiy fonning ahamiyati juda ham kattadir. Badiiy fon bayramlarda o'zining an'anaviy vazifasidan tashqari, tadbir xatti-harakatining faol ishtirokchisi sifatida qatnashib, turli tasvirlar, plakatlar, shiorlar orqali rejissyorning g'oyasini ochib berib, tomoshani yanada boyitadi. Badiiy fon hozirgi kunda o'z rejissyori hamda rassomiga ega bo'lishi kerak. "Senariyning umumiy g'oyasi va oliy maqsadidan kelib chiqqan holda badiiy fon rejissyor, rassom bilan hamkorlikda bayram, tomoshaning boshidan oxirigacha har bir blokda xatti-harakat uchun fondagi tasvirlarning eskizlarini yaratishadi. Badiiy fon rejissyori va rassomining mahorati orqali fondagi tasvirlar, kino ekranidagi kabi jonlanadi. Bu esa tomoshabing katta emotsional ta'sir qiladi. Ba'zi bir hollarda fon nafaqat

to'ldiruvchi, balki solist sifatida bosh rolni ijro qilishi mumkin. (Masalan, 1980-yildagi Moskva Olimpiadasining ramzi bo'lgan ayiq yopilish marosimida ushbu ayiqning uchib ketishi va fonda paydo bo'lgan ayiqning yig'lashi bo'lsa, 1977-yilda Moskvadagi Lujniki stadionida o'tkazilgan yoshlar festivalida fonning o'zida prolog Sveridovning «Vaqt oldinga» musiqasi yordamida 4 minut davomida namoyish etilgan)<sup>17</sup>. Ayniqsa, jonli ekranda surat va tasvirlarning harakatlanishi tomoshaviylikni yanada oshiradi.

## 5.2-§ Ommaviy sport bayramlarida liboslar va rekvizitlar

### 5.2.1 Ommaviy bayram va tomoshalar liboslari

An'anaviy realistik spektakllarning kostyumlaridan ommaviy bayram va tomoshalar kostyumlari maishiylik va haqqoniylik borasida farq qiladi. Ommaviy bayram tomoshalarida *birinchidan*, bunday kostyumlar bu san'at turining ramziy va allegorik stiliga tog'ri kelmaydi, *ikkinchidan*, maishiy kostyumning mayda detallari katta maydon masofasida ko'rinmaydi. *Uchinchidan*, shuncha ko'p miqdordagi kostyumni qayerdan olish mumkin? Maxsus, aynan shu tomosha uchun ko'p ming sonli alohida eskizlar bo'yicha janrni hisobga olgan holda, ranglar gammasi yaratiladigan kostyumlarni tikish oson ish emas. Axir maxsus buyurtmali davlat tadbirlarini hisobga olmasak, bu ishni amaliy jihatdan amalga oshirib bo'lmaydi.

Hatto, «Mustaqillik», «Navro'z» bayramlarida, ba'zi eskirgan kostyumlarning demasa, qolganlari tikilganiga uch, to'rt yil, hatto undan ham oshgan. Bizga ma'lumki, ommaviy bayramlarning tomoshaviy chiqishi kostyumlarning turli-tumanligi, rang-barangligi ranglar gammasiga ham bog'liq.

Turli-tuman kostyumlar qo'l ostimizda bo'lmasa, asosan rejissyor bayram g'oyasidan kelib chiqqan holda, bloklarda uniformalardan foydalanishi mumkin. Masalan: o'quvchilar, talabalar (bakalavr, magistr), gimnasuar, quruvchilar va h.k. Bunday kostyumlar ta'sirchanligini oshirish uchun (turli bosh kiyimlar, ro'mol, soyabonlar, shlyapa, sharf,

---

<sup>17</sup> Б.Н. Петров. «Художественный фон - живой экр в режиссуре спортивно-массовых представлений С 71 В. сб. По. -"ески театр в у "совой культурно-просветительном работе. —Л: 197 г.

yelpig'ich, bantiklar, koptok, gullar, sharlar va h.k.)ni ishla sh mumkin Aynan mana shu elementlar (atributlar) bir lahzada kostyumlarning rangi, obrazining o'zgarishiga yordam beradi. Ayniqsa, bolalar, yoshlar bloklarida, badiiy fon va fon guruhlarida bu narsaning guvohi bo'lamiz.

Ommaviy sport tomoshalarida, turli fartuklar, ro'molchalarning ikki tomonini ikki xil rangda ishlatib o'ziga xos ranglar o'zgarishini yaratish mumkin. Sportchlarning sinxron harakatlari, bir lahzada rekvizitlarni, kostyumlar rangini almashtirishlari, rejissyorga maydonda yoki tribunalarda tez almashuvchi, jonli tasvirlarni ko'rsatishga imkon beradi.

«Ommaviy teatrlashtirilgan tomoshalarda, — deb yozadi A.D.Segal, alohida olingan, muvaffaqiyatli topilgan, lekin hajmi kichik bo'lgan detalning «ta'siri» yo'qqa chiqadi, chunki katta maydonda u ko'rinmaydi. Bu san'at turining spetsifikasi yo' katta hajmli ta'sirchan elementni yoki mayda, juda ham ko'p sonli, bir xil elementlarning sinxron qo'llanilishi natijasida son ko'rsatkichidan, sifat ko'rsatgichga o'tadi. Masalan: ko'p ming sonli ishtirokchilar qo'lida turli rangli bayroqchalar yoki fonarlarning bo'lishi. Odatda rejissyor bu vositalar yig'indisini turli ko'rinish, shakllarida ishlatadilar.

Mehnat rezervlari stadionida o'tkazilgan «Teatrlashtirilgan futbol» ommaviy tomoshasida (Rejissyor B. Sayfullayev) tomoshaning kulminatsiyasida maxsus yozilgan qo'shiqqa maydonga bir qancha mayda futbol to'plari bilan diametri ikki metr bo'lgan futbol to'pining (to'p aktyor tomonidan kiyib olingan) chiqib kelishi, tomosha obrazining ta'sirchan vositasi, sifatida namoyon bo'ldi.

Samarqandda o'tkazilgan «Universiada»da rejissyor R.Shamsitdinov sport maydonida ko'p ming sonli ishtirokchilar tepasida, butun maydon bo'ylab O'zbekiston bayrog'ining paydo bo'lishi katta ta'sir kuchiga ega bo'ldi. Bundan tashqari, bunday bayram tomoshalarida, hajmi katta qo'g'irchoqlar (havo bilan shishiriladigan, karkash va h.k.) yer shari, muchaldagi turli hayvonlar, tarixiy obidalar binolar, paxta, bug'doy boshog'i, lola, olov (pnevmo figuralar) va h.k.lar qo'llaniladi.

Ochiq maydondagi harakatda, aktyorlar mimikasi ko'rinmay, uning qad-qomati kichkina bo'lib ko'ringanligi lufayli, mana shunday ta'sirchan elementlar ishlatiladi.

Ommaviy tarzda o'tkaziladigan badiiy sport bayramlari tomoshalarida liboslarning orni o'ziga xos ahamiyatga ega. Liboslar orqali

tomoshabin uch xil ko'rinishdagi ma'lumotlarga ega bo'lishi mumkin, birinchisi, qaysi davr ekanligini, qahramonning jamiyatda tutgan o'rne, hamda o'sha davrning liboslari ko'rinishini anglab olishimiz mumkin.

Ommaviy-sport tadbirlarning badiiy chiqishlarida zamonaviy liboslar ham nomerlarda, teatrlashtirilgan jang sahnalarida, raqs sahnalari, sahna ko'rinishlari kabi chiqishlarida o'z aksini yanada yaqqol topadi. Bunga misol qilib boy obrazini oladigan bo'lsak, sahnada tomoshabinga ko'rinish berishi bilan qaysi davr ekanligini, o'sha insonning boy ekanligini kiyimlaridan bilib olishimiz mumkin, hamda, va qaysi jamiyatda qay darajadagi lavozimdagi inson ekanligini ko'rib voqealarni yorqinroq tarzda anglab olishimiz mumkin. Buni biz liboslar orqali bilib oldik.

### ***5.2.2 Sport musobaqalari uchun maxsus tikilgan milliy brend liboslari***

**Kiyim turlari:** O'zbek milliy tarixiy kiyimlari, bosh kiyimi, oyoq kiyimi, sport kiyimi, harbiy kiyim, diniy kiyimlar, urush davri kiyimlari, bolalar kiyimlari, maktab kiyimlari v.b.

Kiyim turiga ko'ra — ichki, ustki kiyim, bosh kiyimlar, oyoq kiyimlar (poyabzal); vazifasiga ko'ra — kundalik, uyda, dam olish paytida, bayram va to'y marosimlarida kiyiladigan (kishilik) kiyimlar, ish kiyim (jomakor), sport kiyim, rasmiy kiyim (forma)lar, maxsus kiyimlarga bo'linadi hamda ayollar, erkaklar va bolalar kiyimlariga ajratiladi.

**Bayram, marosim** (kishilik) kiyimlari milliy uslubda, qimmatbaho matolardan tayyorlanadi, turli bezaklar (kashta, munchoq va b.) bilan boyitiladi. Ish kiyimi (jomakor) oddiy matolardan mehnat jarayoniga mos qilib tikiladi (mas: o't o'chiruvchining ish kiyimi o'tga chidamli brezentdan, baliqchilarning kiyimi suv o'tkazmaydigan matodan tikiladi, traktorining ish kiyimi kombinezondan, tibbiyot xodimi, sartarosh, oshpazlarning ish kiyimi asosan, oq xalatdan iborat va h.k.).

**Sport kiyim** jismoniy tarbiya va sport bilan shug'ullanish uchun qulay qilib tikiladi. Rasmiy kiyim (forma) harbiy kiyim, matros, millitsioner, aloqachi va rasmiy kishilar (prokuror va b.)ning maxsus nizomda belgilangan kiyimlari. Maxsus kiyim homilador ayollar, bemorlar va b. kiyadigan kiyimlar. Bolalar kiyimlari rang-barang pishiq matodan qulay qilib tikiladi, ular turli qo'shimchalar bilan uqa, jiyak, kashta tikib, quroq usulida bezatiladi. Kiyim ixcham, iqlim va faslga, jins, yoshga

moslashtirilgan, eng muhimi qulay bo'lishi, kishiga yarashib turishi lozim. Kiyimni bichish va tikish katta san'at. Kiyim tikish uchun oldin tabiiy (paxta, jun, ipak) yoki sun'iy (sintetik) matolardan tanlanadi, tikuvchilar uyda, atelyelar va fabrikalarda kiyim tikishadi. Buning uchun avval matoni bichib olish kerak. Bu ishni bichiqlik bajaradi. O'nga modelyer rassom kiyim rasmi (modeli)ni chizib beradi. Xullas kiyim bitib sotuv do'koniga tushguncha bir necha kishi mehnat qiladi.

**O'zbek milliy kiyimi.** O'zbekiston hududida mahalliy kiyim qadimdan iqlim, turmush sharoitlari va urug'-qabila an'analari asosida shakllangan. Respublika hududidan topilgan arxeologik yodgorliklar, devoriy rasmlar, yozma manbalar, qo'lyozma kitoblarga ishlangan mo'jaz tasvir (miniatyura)larda o'zbek milliy kiyimining boy tarixi namoyon bo'ladi.

Sharq Uyg'onish davrida barcha sohalarda bo'lgani kabi liboslarga tus berishda ham g'oyat ilgari lab ketilgan. Kishi qomatining go'zalligini aniq ko'rsatadigan beli qisma liboslar tarqalgan. Biroq kiyimning kishi qomatiga qarab bichish usuli bu yerda uncha rivojlanmagan. Kiyim shakli estetik ideal, ijtimoiy-iqtisodiy hayot, xususan, din, axloq bilan chambarchas bog'liqdir.

**19-asr kiyimlari** (to'n, ko'ylak, yaktak, chopon va b.) keng, uzun, yaxlit bichimi, odam qomatini berkitib erkin to'kilib turishi kabi xususiyatlarni saqlagan. Qishki va yozgi, erkak, ayol va bolalar kiyimlari bir xilligi, shakli va bichimi yaqinligi bilan ajralib turadi: oq yoki malla bo'zdan ko'ylak, qalami yaktak yoki to'n, olachi chopon, do'ppi o'zbek erkaklari uchun, ayollar uchun keng ko'ylak, uzun lozim, nimcha, kaltacha asosiy milliy kiyim hisoblangan. Turmushga chiqmagan o'zbek qizlari bilan ayollari kiyimlari bichimida ayrim tafovutlar bo'lgan. Masalan, qizlar ko'ylagi yoqasi ko'ndalang ochilib, chetlariga boshqa rangli matodan yoqa yoki jiyak hoshiya tikilgan; ayollar ko'ylagi yoqasi taxminan 25 sm uzunlikda bo'ylama ochilgan. O'rta Osiyo Rossiyaga qo'shib olingach, tik yoqa (no'g'oy yoqa)li ko'ylaklar paydo bo'ldi (Zarafshon vodiysida qozoqi ko'ylak deb yuritilgan). Yosh juvonlar birinchi farzandlarini tuqqunlariga qadar parpara yoqali (yoki jimjima tik yoqali) ko'ylak kiygan. 19-asr oxirlarida ko'krak burma ayollar ko'ylaklari paydo bo'ldi, bunday bichimli ko'ylaklar hozir ham milliy kiyim sifatida asosiy o'rin tutadi.

Erkaklar to'g'ri bichimli ko'ylak, yaktak, to'n, chakmon kiygan. To'nlar avraastarli yoki paxta solib qavilgan, oldi ochiq, uzun bo'lgan. Astarli to'nlar ba'zi xollarda kalta va keng yenglik qilib ham tikilgan. To'nlar avrasi beqasam, kimxob, baxmal, shoyi, qora satin, chit va boshqa matolardan, astari chit yoki satindan tikilgan. Turli viloyatlarda turlicha to'nlar kiyilgan. Buxoro, Samarqand, Shahrisabz va boshqa joylarda to'nlar qimmatbaho matolardan tikilib, yoqasi, etagi, yeng uchlariga turli xil rangdagi zar iplarda kashta tikib, atroflariga toshlar qadab bezatilgan. Bunday to'nlarni xon va amirlar boy va amaldorlarga yaxshi xizmatlari evaziga in'om etishgan. Umuman hurmatli kishilar — ustozlar, qudalar, kuyovlar va shunga o'xshash. holatlarga to'n kiygazish udumi hozirgi ko'ngacha saqlangan.

Aslzodalarning bayram kiyimlarida belbog' — kamarlari to'qali, baxmaldan tayyorlangan yoki zardo'zi kashtalar bilan tikib bezatilgan. Kundalik kiyimlar ustidan uzun qo'shoq va chorsi qiyiqlar bilan bog'langan. Erkaklar ishtoni keng, uzun bo'lib, poychasi tomon torayib borgan. Bosh kiyimlardan do'ppi, kuloh kiyilgan, ustidan salla o'ralgan, (aslzodalarning bosh kiyimlari zar va kumush iplar bilan bezatilgan). Qish faslida mo'ynali telpaklar kiyishgan.

O'zbek xalqi orasida eng ko'p tarqalgan yengil bosh kiyim do'ppidir. Asosan, baxmal, sidirg'a shoyi, satin kabi matog'a ip, ipak, zar bilan kashta tikib tayyorlangan.

**Oyoq kiyimlaridan** uzun qo'njli, poshnasiz, tag charmi yumshoq bo'lgan kavush bilan kiyiladigan mahsi, zodagonlar orasida uch qismi qayrilgan baland poshnali etik kiyish urf bo'lgan.

**Ayollar kiyimlari** ko'ylak, lozim, kamzul, nimcha va sh. k. to'g'ri bichimli bo'lgan. Ayollar lozimi keng, uzun, past (pocha)ga tomon torayib boruvchi shaklda bo'lib, ochiq rangli matolardan tikilgan. Lozimning poychasi jiyaklar bilan bezatilgan. Kelinchaklar o'zgacha jiyak taqishgan. Bosh kiyim sifatida asosan ro'mol o'ralgan. Yoshi va mavqeyiga, oilaviy ahvoliga qarab turli xil ro'mol — doka ro'mol, shol ro'mol, g'ijim ro'mol va b. xil ro'mollar o'ralgan, o'ralish usuli ham turlicha bo'lgan. Qizlar uchun qulay bosh Kiyim do'ppi hisoblangan. Do'ppilardan iroqi chorgul, yo'rmado'zi, munchoq gulli, zardo'zi, iroqi do'ppilar mashhur. Bosh Kiyimlari ustidan chiroyli naqshlar bilan bezatilgan tillaqosh, bo'yinga ularga mos bo'yintumor, zebigardon, qo'lga bilaguzuk, uzuk va b.

taqinchoqlar taqilgan. Ayollar odmi matodan tikiladigan, ayol qomatiga yopishib, ko'ylak etagidan bir oz yuqoriroq turadigan avra-astarli paxtalik chopon ham kiyishgan. Choponning yoqa o'ymasi chuqurroq, bag'ri tugmachasiz bo'lgan. Ayollar shariatga ko'ra, begona kishilardan o'z yuzlarini yashirishgan. Shuning uchun ular chodra, keyinchalik paranji yopinishgan.

**Bolalar kiyimi**, asosan, kattalar kiyimi shaklini takrorlaydi. Chaqaloqning birinchi kiyimi "chilla ko'ylak" bo'lgan. 2—3 yoshidan boshlab ko'ylak-ishton, choponcha kiydirilgan. Bola 6—7 yoshga kirgandan so'ng uning kiyimi kattalar kiyimi bichimida tikilgan.

Ayrim urug', tuman, viloyatlarning kiyimlari (do'ppi, ro'mol, chopon va b.)da va uning bezaklarida ham farq bo'ladi. Viloyatlardagi aholining kundalik kiyimlarigina emas, bayram kiyimlari ham farqlangan. Zarafshon vodiysi ayollarining yalang qavat delegay, rumchasi, toshkentliklarning mursagi, Shahrisabzning kaltachasi bayram va tantanalarda kiyiladigan kishilik liboslari hisoblangan.

Hozirga kelib zamonaviy brendlar o'ylab topilmoqda hamda sifat darajasi xalqaro standartlarga javob bera oladigan firmalar o'z mijozlariga ega. Shulardan biri Toshkentda yangi SABER — sport kiyimlari va jihozlari brendi tashkil etilgan va uning taqdimoti bo'lib o'tdi. Brend asosini Otabek Umarov yaratgan element tashkil etadi. Kompaniya asoschilari orasida Oraz Abdurazakov ham bor.




6-rasm. SABER matbuot xizmati

Toshkentda yangi sport kiyimlari va jihozlari brendi — SABER-ning taqdimoti bo'lib o'tdi. Bu haqda kompaniya matbuot xizmati Spotga ma'lum qildi.

Ta'kidlanishicha, ushbu brend tarixi 2019 yilda, Triatlon federatsiyasi rahbari Otabek Umarovning turli xil sport turlari ramzi bo'lgan dunyoga mashhur ikona asosida grafik element yaratganidan boshlangan.

Brend yaqin vaqtgacha tijorat bilan aloqasi yo'qligi bois, mualliflik uchun e'tiroz bildirilmagan. Undan sport tashkilotlari, shuningdek o'z kolleksiyalarida uskunalar va aksessuarlar ishlab chiqaruvchilar tomonidan bepul foydalanilgan.



**7-rasm. Otabek Umarov tomonidan yaratilgan grafik element**

O'z navbatida, professional sportchilar orasida keng tarqalgan brendning mashhurligi o'sishiga ta'sir ko'rsatgan. Shunday qilib, marketing rivojlandi, deya qayd etadi SABER.

2020-yilda sport anjomlari ishlab chiqarishga sarmoya kiritmoqchi bo'lgan Dubayning Berkeley Square Investments kompaniyasi O'zbekistonda marketing tadqiqotlarini o'tkazdi.

Bu element mamlakatda mashhur ekanligi ma'lum bo'ladi.

"Urban Hayot" orqali Berkeley Square Investments kompaniyasining rahbariyati o'z manfaatlarini O'zbekistonda himoya qilgan holda muallif bilan muzokaralar olib borgan, natijada litsenziya shartnomasi imzolangan.

Uning asosida logotipdan foydalanish huquqi Ross Konnon va Oraz Abdurazakov tomonidan tashkil etilgan “Urban Hayot” MChJga 5 yilga o‘tdi.

Kelishuv vaqtida logotipda fonetik tovush va nom ham bo‘lmagan. Brendni yaratishda Londonning identifikatsiya instituti INSTID va Toshkentning GRANDPR agentligi ishtirok etgan. Aynan shu tarzda SABER paydo bo‘lgan, deyiladi xabarda.



8-rasm. Oraz Abdurazakov va Ross Konnon

### **Promoushen va turnirlar**

SABER homiyligida aralash yakkakurash bo‘yicha ikki chempionat tashkil etilgan. Shuningdek, U-1 chempionatining MMA-promoushen va “7 Fighting Series” jamoaviy turniri doirasida yangi brendning taqdimoti bo‘lib o‘tadi.

“Bular SABER-ning ilk ommaviy tashabbuslari, ammo bu bilan rejalarimiz tugab qolmaydi. Biz o‘zimizni jang san‘atlari bilan cheklab qolmaymiz, shunchaki ularning yoshlar orasida mashhurligini hisobga olgan holda, shu yo‘nalishda ish boshladik. Shu bilan bir qatorda, sportning aksariyat yo‘nalishlari bizning brendimizga tegishli”, — deya ta’kidladi Ross Konnon.

### **O'zbekistonda ishlab chiqarish va 2000 ta yangi ish o'rinlari**

Otabek Umarovning aytishicha, uning qalbiga yaqin bo'lgan loyihaning qayta tug'ilishni boshdan kechirayotganini ko'rish juda ajoyib tuyg'u hisoblanadi.

“Bir necha yil avval qalam eskizlari va bolalar sport maktablari uchun ilk kiyimlar to'plamida yaratilgan g'oya kecha yangi yorqin brend sifatida namoyish etildi. Bir nechta ixlosmandlarning tashabbusidan katta sarmoyaviy loyihaga qadar bo'lgan yo'l eng qisqa vaqt ichida bosib o'tildi. Endi boshqalar loyihani davom ettirsinlar, men avval ixtiro qilgan belgi yaxshi qo'llarda ekanligiga shubham yo'q. Ulkan va foydali narsaning abadiy muallifi bo'lib qolish juda ilhomlantiradi”, — deya Instagramda-gi sahifasida xabar qoldirgan Otabek Umarov.

Shuningdek uning ta'kidlashicha, Berkeley Square Investments kompaniyasiga kamida 2000 ta ish o'rni yaratish talabi qo'yilgan. Bu esa, o'z navbatida, investorlarning rejalariga to'liq mos kelgan.

### **5.2.3 Badiiy tomoshalarda teatrlashtirilgan dikoratsiya hamda rikvizitlarning ahamiyati**

Ommaviy bayramlar tomoshalarida ham, teatr dekoratsiyasiga o'xshash ta'sirchan vositalardan keng foydalaniladi. Dekoratsiya bu – **Bezatish** (fransuzcha *decoratio -bezak*) – so'zning keng ma'nosida bezak deganda me'moriy inshootning tashqi dizaynini, uning interyerini, shuningdek, uy-ro'zg'or buyumlari, dekorativ va amaliy buyumlarni tashkil etuvchi elementlar to'plami tushuniladi. “Bezatish” so'zi ko'pincha teatr aksessuarlariga murojaat qilish uchun ishlatiladi, ularning maqsadi sahnada o'ynaladigan harakat sodir bo'ladigan joyning illyuziyasini yaratishdir. Shu sababli, teatr dekoratsiyasi ko'pincha landshaftlar yoki ko'chalar, maydonlar va binolarning ichki qismining istiqbolli ko'rinishidir. Ular tuvalga bo'yalgan. Har bir teatr dekoratsiyasining asosiy komponentlari fon va sahna orqasidir.

Teatr dekoratsiyasi san'ati, ssenografiya-tasviriy san'atning teatr san'ati bilan bog'liq sohasi; dekoratsiya, liboslar, yorug'lik, sahna texnikasi vositasida spektaklning tomosha obrazi (ko'rinishi)ni yaratish san'ati. Teatr rassomi sahnada ko'rsatiladigan har bir ko'rinish, joy, kiyim va boshqalarning eskizlarini yaratadi, shu eskizlar asosida dekoratsiya va liboslar tayyorlanadi. Rassom illyuziya yordamida tomoshabinda turli

taassurotlar tug'diradi, tarixiy davr, tarixiy sharoit to'g'risida to'g'ri tasavvurlar hosil qilinishiga erishadi. Teatr dekoratsiyasi san'ati. teatr, dramaturgiya, tasviriy san'at taraqqiyoti bilan bog'liq holda rivojlandi. Qadimgi marosim, o'yinlarda uning ilk ko'rinishlari (libos, niqob va boshqalar) namoyon bo'ldi. Yunoniston teatrida miloddan avvalgi 5-asrdayoq yordamchi qurilmalardan tashqari hajmli shakllar bilan tasviriy dekoratsiyalar qo'shib ishlatilgan; Qadimgi Rim teatrida bu san'at rivojlantirilgan, ilk bor parda qo'llanilgan. O'rta asrlarda Osiyo (Hindiston, Xitoy, Yaponiya va boshqalar) mamlakatlarida sahnani shartliramziy tarzda bezash hukmron bo'lgan. Uyg'onish davrida Italiyada perspektivali dekoratsiyalar shakllandi, shahar maydoni yoki uzoklarga ulanib ketgan ko'chalar, o'zgarmas joylar romlarga tortilgan rasmlar yordamida yaratildi (Bramante, B.Perutssi, S.Serio va boshqalar). 17-asr boshlarida sahna mexanizmlari keng qo'llanila boshlandi, aylanuvchi 3 tomonli prizma shaklidagi qurilma tomoshabin ko'z oldida dekoratsiyalarni almashtirish imkonini berdi. Texnikaning takomillashishi sahna orti (kulis) va sahna — qutini yuzaga keltirdi. 17-asr o'rtalaridan sahnada yon dekoratsiyalar paydo bo'ldi va butun Yevropaga tarqaddi. Buyuk Britaniyada (sahna maydoni yuqori, quyi va orqa sahnalar, tomoshabin tomon turtib chiqqan sahna oldi — prosceniumdan iborat) maxsus teatr binosi shakllandi.

Klassitsizm davrida voqeaning joy va vaqt birligi qonuniga bo'ysundirilishi o'zgarmas dekoratsiyalar prinsipini qaror topishiga olib keldi. Hindiston, Hindixitoy mamlakatlari teatrlarida spektaklni bezatish libos, niqob, grimlar bilan cheklandi (bu an'ana 20-asr gacha davom etdi). 19-asr 1choragida Fransiya, Buyuk Britaniya teatrlarida diorama va panorama gazli yoritgichlarning yangi shakllari bilan uyg'unlashtirgan holda qo'llaniladi. Texnikaning murakkablashishi bo'lim (akt)lar orasida parda, elektr yoritgich (1849) ni qo'llashga, zamonaviy mavzudagi asarlarni sahnaga qo'yilishi real hayotni aniq aks etgirishga olib keldi. 19-asr oxiridan rassomlar teatr bilan hamkorlikda sahna san'atining boshqa san'atlar qatorida tutgan o'rnini belgilovchi o'ziga xos qonuniyatlarini tadqiq qildilar.

20-asrda Teatr dekoratsiyasi san'atida sahna texnikasi — sintetik materiallar, lyuminescent bo'yoqlar, kollaj, foto va kinoproeksiya, ko'zgular tuzilmasi, murakkab yorug'lik qurilmalari bilan boyidi. 60-

yillardan deyarli hamma yerda "sahnadan tashqari" dekoratsiyalar, "sahna — arena"larga e'tibor kuchaydi. 70-yillar Teatr dekoratsiyasi san'ati xalq san'ati bilan yo'g'rilgan ohanglarni qo'llashi bilan ajralib turadi, marosim niqobgrimlari, qo'g'irchoq liboslari dekoratsiyaning ajralmas qismiga aylandi. Teatr dekoratsiyasi san'atis. ustalarining dramaturgiya asosida rejissyor va rassom tasavvuridagi erkin sahna asarini yaratishga intilishi ortdi. 20-asr Teatr dekoratsiyasi san'atis. rivojlanishi jarayonida sahnalashtiruvchi rassom spektaklning mualliflaridan biriga va "Teatr dekoratsiyasi san'ati"ni spektaklning tasviriy rejissura (ssenografiya)si degan tushunchaga aylantirdi. Bu xususiyatlar turli oqimlar kurashi jarayonida rivojlandi, hajmlifazoviy dekoratsiyalar, spektaklning tomosha obrazi rangtasvirni qo'llash hisobiga ko'rkamlashdi va ta'sirchanligi yanada ortdi. Teatr dekoratsiyasi san'atis.ga dastgox. rangtasviri ustalari katta hissa qo'shdilar. Xalq san'atining uslublashtirilgan shakllariga qizikish o'rnini saxna voqealarining ichki mantig'iga bo'ysundirilgan bezak tuzilishini izlash egalladi. Teatr dekoratsiyasi san'atis.da kekxa avlod rassomlari bilan bir qatorda yosh rassomlar ham muvaffaqiyatli ijod qilmoqda.

O'zbekistonda Teatr dekoratsiyasi san'ati jahon Teatr dekoratsiyasi san'atining eng yaxshi an'analari ta'sirida rivojlandi. 20-asr ma'rifatparvarlar teatri dastlabki spektakllarida hayotiy voqelikni sahnada aynan ko'rsatish, libos va pardozlarni ham hayotdagiday rasmiy tarzlarda ishlatish uslubini qo'llagan, joylarni rasmana qilib qurish odat tusida bo'lganini ko'rish mumkin, liboslar masalasida ham shunday yo'l tutilgan. Tajriba biroz ortgach, teatr asar konfliktidan kelib chiqib ziddiyatli ikki tomonni bir-biriga qaramaqarshi (kontrast) tasvirlashga o'tdi, yutuqlar bilan birga kamchiliklar ham mavjud bo'lgan: har bir spektakl uchun maxsus dekoratsiyalar kam ishlangan, teatrdan rassomning o'zi bo'lmagan, spektakllar ko'pincha yig'ma dekoratsiyalar bilan shartli ko'rsatilgan; spektakllarga kerakli libos, buyum va ashyolar uymauy yurib terib kelingan, ijaraga olingan.

Teatr dekoratsiyasi san'atining dastlabki professional namunalari 20-asr (boshlari)da O'zbekistonda yashagan rus rassomlari (S.Yudin, S.Milenin, V.Ufimsev va boshqalar) tomonidan yaratildi, ulardan tao'shm olgan va ularning ijodiy rahbarligida o'zbek teatr rassomlari yetishib chiqdi (Sh.Shorahimov, H.Ikromov, M.Musayev va boshqalar). Xalq hayoti,

urfodatlarini, amaliy bezak san'ati, liboslarini yaxshi bilganligi rassomlarning ishlarida o'z aksini topdi, spektakllarga liboslar ularning chizmalari asosida tayyorlandi. Hayotni aynan aks ettiruvchi uslub illyuziyali dekoratsiya va ko'p jihatdan shartli liboslarni yaratilishiga olib keddi, aktyorlarga turmush tarzini, personajlar qiyofasini batafsil va umumlashma tarzda ko'rsatish imkonini berdi. O'zbek teatri erishilgan yutuklarini mustahkamlash bilan birga dekoratsiya san'ati va liboslar bobida jiddiy izlanishlar olib bordi, tasviriy san'atning ba'zi tamoyil va uslublarini ishga soldi, obrazli yechim, maxrbatli tasvir yo'lidan bordi, kino va televideniye vositalaridan foydalandi.

60-yillar oxirlaridan Toshkent teatr va rassomlik san'ati institutining teatr rangtasviri (ssenografiya) bo'limini tugatgan bir guruh rassomlarning respublika teatrlariga kirib kelishi bilan sahna asarlarining tarkibiy kismi bo'lgan tasviriy vositalar (dekoratsiya, libos, grim) da yangi davr boshlandi. I. Valdenberg, V. Riftin va boshqalardan saboq olgan G. Brim, A. Jiboyedov, R. Tumankov, A. Shibayev, bir oz keyinroq O. Ollaberganov, V. Mixaylichenko, T. Shorahimov, U. Saydaliyev va boshqa dekoratsiya san'ati va u bilan bog'liq libos, grim sohalarida tub o'zgarishlar yasashga va Teatr dekoratsiyasi san'atisini dastgoh va monumental rangtasvir darajasiga ko'tarishga intildilar. O'zbek Teatr dekoratsiyasi san'ati tom ma'nodagi professional yo'lga tushib oldi. Rassom endi spektaklning sahnalashtiruvchi rejissyor bilan xammuallifga aylandi. Jumladan, G. Brim sahnalashtirilgan spektakllarning sahna makonini asarlar mazmuni va janriga moye bezashda me'morlik ohanglari, tamoyillarini qo'llab katta yutuklarga erishdi ("Mariya Styuart", "Boy ila xizmatchi", "Shoh Edip", "Abu Rayhon Beruniy", "Buxoro", "Istehkom" va boshqalar).

80-yillarning oxiri va ayniqsa, 90-yillar, ya'ni O'zbekistonning mustaqilligi davrida o'zbek teatri tarixni idrok etish va o'zlashtirishda, buyuk allomalar va davlat arboblari hayoti va faoliyatini yoritishda katta yutuklarga erishdi, bunda teatr rassomlarining xizmati katta: tarixiy shaxslarning sahnaviy obrazlarining to'laqonli va teran mazmunga ega bo'lishida muhit tasvirini yaratgan teatr rassomlarining xizmati salmoqlidir. Respublika teatrlarida rassomlarning keksa, o'rta va yosh avlodi bir-biridan ta'sirlangan holda ijod qilmoqda. V.I.Ligay (Andijon), D.Safoyev (Samarqand), T.Shorahmedov, A.Jiboyedov, B.Qurbonov,

B.To'rayev, Z.Botirov, Sh.Abdumalikov, N.Glubokina (Toshkent), F.Rajabov (Farg'ona) va boshqalar Teatr dekoratsiyasi san'ati taraqqiyotiga katta hissa qo'shmoqda.

Rekvizit so'zi lotincha **requisitum** so'zidan kelib chiqqan bo'lib, "zarur" degan ma'noni anglatadi. Teatr tomoshalari, filmlar, suratga olishlar, shuningdek rassomlar va haykaltaroshlar uchun namunalar va boshqalarni ishlab chiqarish uchun zarur bo'lgan narsa va narsalar majmuasi tushiniladi. Teatrdagi rekvizitlar - bu aktyorlar harakat paytida sahnada kerak bo'ladigan haqiqiy yoki soxta narsalar to'plami; rekvizitlar sahna libosiga qo'shimcha sifatida ham xizmat qilishi mumkin (soyabon, portfel, xodimlar, tayoq yoki boshqa narsa). Rekvizitlar kichik va unchalik katta bo'lmagan narsalar: qamishlar, siyoh idishlari, idish-tovoqlar, yorliqlar, pullar, xaritalar, fotosuratlar, yozuv mashinkalari, gazetalar, hattoki oziq-ovqat, harakat paytida "yo'q qilish" mumkin va, albatta, qurollar.

Haqiqiy va soxta narsalar ham rekvizit sifatida harakat qilishi mumkin. Badiiy asarning asosiy g'oyasi va maqsadi bilan bog'liq holda rekvizitlar yordamchi vazifalarni bajaradi. Rekvizitlar: mebel, transport vositalari, hujjatlar, matbuot, qurollar, kiyim-kechak aksessuarlari, kichik (va unchalik emas) uy-ro'zg'or buyumlari va boshqalar.

Bunday ta'rif ham mavjud: "Rekvizitlar - sahnada teatrlashtirilgan o'yin namoyish qilish uchun zarur bo'lgan shkaf va dekoratsiyadan tashqari turli xil narsalar bu: tomosha uchun zarur bo'lgan haqiqiy emas, balki soxta narsalar to'plami" deb ham tushinish mumkin.

### **5.3-§ Pirotexnika ommaviy bayram va tomoshalarning ajralmas qismi**

#### **5.3.1 Ommaviy bayram va tomoshalarda pirotexnikaning o'rni**

Pirotexnika ommaviy bayram va tomoshalarning ajralmas bo'laklaridan biridir. Bizga ma'lumki, bayramlarning ko'p qismi feyerverk bilan tugaydi. Lekin pirotexnika deganda, faqatgina feyerverkni tushunsak, xato bo'ladi. Pirotexnikaga - turli portlashlar, rangli tutunlar, pirotexnik olovdan qilinadigan bengal olovlari, favvora, sharshara, serpantinlar kiradi.

urfodatlarini, amaliy bezak san'ati, liboslarini yaxshi bilganligi rassomlarning ishlarida o'z aksini topdi, spektakllarga liboslar ularning chizmalari asosida tayyorlandi. Hayotni aynan aks ettiruvchi uslub illuziyali dekoratsiya va ko'p jihatdan shartli liboslarni yaratilishiga olib keddi, aktyorlarga turmush tarzini, personajlar qiyofasini batafsil va umumlashma tarzda ko'rsatish imkonini berdi. O'zbek teatri erishilgan yutuklarini mustahkamlash bilan birga dekoratsiya san'ati va liboslar bobida jiddiy izlanishlar olib bordi, tasviriy san'atning ba'zi tamoyil va uslublarini ishga soldi, obrazli yechim, maxrbatli tasvir yo'lidan bordi, kino va televideniye vositalaridan foydalandi.

60-yillar oxirlaridan Toshkent teatr va rassomlik san'ati institutining teatr rangtasviri (ssenografiya) bo'limini tugatgan bir guruh rassomlarning respublika teatrlariga kirib kelishi bilan sahna asarlarining tarkibiy qismi bo'lgan tasviriy vositalar (dekoratsiya, libos, grim) da yangi davr boshlandi. I. Valdenberg, V. Riftin va boshqalardan saboq olgan G. Brim, A. Jiboyedov, R. Tumankov, A. Shibayev, bir oz keyinroq O. Ollaberganov, V. Mixaylichenko, T. Shorahimov, U. Saydaliyev va boshqa dekoratsiya san'ati va u bilan bog'liq libos, grim sohalarida tub o'zgarishlar yasashga va Teatr dekoratsiyasi san'atini dastgoh va monumental rangtasvir darajasiga ko'tarishga intildilar. O'zbek Teatr dekoratsiyasi san'ati tom ma'nodagi professional yo'lga tushib oldi. Rassom endi spektaklning sahnalashtiruvchi rejissyor bilan xammuallifga aylandi. Jumladan, G. Brim sahnalashtirilgan spektakllarning sahna makonini asarlar mazmuni va janriga moye bezashda me'morlik ohanglari, tamoyillarini qo'llab katta yutuklarga erishdi ("Mariya Styuart", "Boy ila xizmatchi", "Shoh Edip", "Abu Rayhon Beruniy", "Buxoro", "Istehkom" va boshqalar).

80-yillarning oxiri va ayniqsa, 90-yillar, ya'ni O'zbekistonning mustaqilligi davrida o'zbek teatri tarixni idrok etish va o'zlashtirishda, buyuk allomalar va davlat arboblari hayoti va faoliyatini yoritishda katta yutuklarga erishdi, bunda teatr rassomlarining xizmati katta: tarixiy shaxslarning sahnaviy obrazlarining to'laqonli va teran mazmunga ega bo'lishida muhit tasvirini yaratgan teatr rassomlarining xizmati salmoqlidir. Respublika teatrlarida rassomlarning keksa, o'rta va yosh avlodi bir-biridan ta'sirlangan holda ijod qilmoqda. V.I.Ligay (Andijon), D.Safojev (Samarqand), T.Shorahmedov, A.Jiboyedov, B.Qurbonov,

H.To'rayev, Z.Botirov, Sh.Abdumalikov, N.Glubokina (Toshkent), F.Rajabov (Farg'ona) va boshqalar Teatr dekoratsiyasi san'ati taraqqiyotiga katta hissa qo'shmoqda.

Rekvizit so'zi lotincha **requisitum** so'zidan kelib chiqqan bo'lib, "zarur" degan ma'noni anglatadi. Teatr tomoshalari, filmlar, suratga olishlar, shuningdek rassomlar va haykaltaroshlar uchun namunalar va boshqalarni ishlab chiqarish uchun zarur bo'lgan narsa va narsalar majmuasi tushiniladi. Teatrdagi rekvizitlar - bu aktyorlar harakat paytida sahnada kerak bo'ladigan haqiqiy yoki soxta narsalar to'plami; rekvizitlar sahna libosiga qo'shimcha sifatida ham xizmat qilishi mumkin (soyabon, portfel, xodimlar, tayoq yoki boshqa narsa). Rekvizitlar kichik va unchalik katta bo'lmagan narsalar: qamishlar, siyoh idishlari, idish-tovoqlar, yorliqlar, pullar, xaritalar, fotosuratlar, yozuv mashinkalari, gazetalar, hattoki oziq-ovqat, harakat paytida "yo'q qilish" mumkin va, albatta, qurollar.

